

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 494.3:008**

PARDAYEV SIROJIDDIN SHOKIR O'G'LI

**"MADANIYAT TILI ETNOMADANIY TAFAKKUR IFODASINING
SHAKLI SIFATIDA (LINGVO-PRAGMATIK TAHLIL)"**

10.00.01-O'zbek tili ixtisosligi

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish
uchun yozilgan**

DISSENTATSIYA

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
doktori, professor I.K.Mirzayev**

Samarqand – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. MADANIYATNING RAMZIY TABIATINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	12
1.1-§.Til madaniyatni ifodalashning milliy shakli sifatida.....	12
1.2.-§. Madaniyat semiosferaning bir qismi sifatida.....	27
1.3-§. “Til” va “madaniyat” tushunchalarining mutanosibligi.....	37
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	51
II BOB. MADANIYATLARARO ALOQA ULARNING O‘ZARO HARAKAT VA TA’SIRI SIFATIDA.....	54
2.1-§. Madaniyat aloqa tizimi sifatida.....	54
2.2-§.Suhbat madaniyatning mavjudlik shakli sifatida.....	63
2.3-§.Globallashuv davridagi madaniyatlararo aloqa tizimida madaniy o‘xshashliklar.....	77
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	87
III BOB. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIYOTINING KULTUROLOGIK TAHLILI.....	89
3.1-§.Badiiy matnning kulturologik tahlil tamoyillari.....	89
3.2-§. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida madaniyat tili tahlili.....	104
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	121
XULOSA.....	123
FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI....	126

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon lingvistikasida madaniy globallashuv jarayonlarining rivojlanishi doirasida to‘laqonli madaniyatlararo muloqotlar olib borishga bo‘lgan qiziqish shiddat bilan kuchayib bormoqda. Tildagi madaniylashuv jarayoni shu xalq tafakkuri mahsuli ekanligi bois mazkur masalada tilshunoslik sohasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Til va madaniyat uzoq davrlardan buyon bir-birini taqozo etuvchi hodisa sifatida daliliy misollarga tayangan holda, ma’lum xalqning etnomadaniy tafakkurini badiiy va so‘zlashuv nutqiga oid materiallar asosida izohlash dolzarb vazifalardan sanaladi.

Dunyo tilshunosligi vakillarining ayrimlarida til va madaniyatning aloqasi, o‘zaro shartlanganligi bugun shubha uyg‘otmoqda. Ayrimlarning nuqtayi nazari, dunyoqarashi esa odamlar didi va jamiyatga munosabatlarini shakllantiradi, shuningdek, xalqlarning o‘ziga xosligini avloddan avlodga yetkazuvchi, boshqa xalqlarga ham tarqatuvchi til va madaniyatning saqlanishini ta’minlaydi, jamiyat faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Lingvokulturologik tadqiqotlar doirasida til va madaniyatning etnomadaniy tafakkurni shakllantirish borasidagi ahamiyatiga bo‘lgan qiziqish, tadqiq doirasining torligi, bizningcha, zamonaviy lingvokulturologiyaning asosiy kamchiliklaridan biridir. Bu borada lingvistik tadqiqotlar ko‘lамини oshirish ayni kunning dolzarb vazifalaridandir.

Mamlakatimizda lingvokulturologiya hamda sharqshunoslik sohasidagi mana shunday kamchilikni to‘ldirish maqsadida til va madaniyatni o‘zbek xalqi etnomadaniy tafakkurini namoyon etuvchi shakllardan biri sifatida o‘rganishga harakat qilinmoqda. Zero, avlodlar davomiyligini, o‘zbek xalqi etnomadaniy tafakkuri rivojining qonuniyligi va tendensiylarini o‘zbek adabiyoti, asarlaridan o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. “Eng katta boylik – aql va ilm, eng katta meros – yaxshi ta’lim, eng katta qashshoqlik – ilmsizlidir”¹. Shunga asosan, zamonaviy bilimga, yuksak madaniyatga intilish mamlakatning barcha fuqarolari

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// <https://uza.uz/ru/>

uchun hayotiy zaruratga aylanishi lozim. Mazkur tadqiqotda bilimlardagi bo‘shliq va tarjima amaliyotidagi nomukammallikni bartaraf etishga, shuningdek, ushbu muammoga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni aktuallashtirib, ularga turtki berishga harakat qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldaggi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘arb tilshunosligida madaniyatlararo muloqot hamda til va madaniyat munosabatlari faol tadqiq etilmagan. R.B.Adler, G.Rodman, A.du Pré, T.K.Gamble, M.Gamble, W.B.Gudykunst va P.Holmes singari olimlarning ishlari maorif tashkilotlari shakllanishining zamonaviy imkoniyatlarini globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot olib borishning ustuvorligini rivojlantirish, shuningdek,

turli madaniyatlar vakillari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish hamda maromga solish mexanizmini aniqlash imkonini beradi².

Rus tilshunosligida til va madaniyatning o‘zaro ta’siri hamda shartlashish muammolari keng tadqiq etiladi, ularda madaniyatlararo muloqot, globallashuv davrida madaniyatlararo aloqa tizimida madaniy o‘ziga xosliklarni saqlab qolishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu borada M.S.Kagan, O.G.Karpovich, V.M.Mejuyev, L.A.Ornatskaya, O.V.Flerov, S.A.Shachnev va boshqalarning ishlarini alohida ajratib ko‘rsatamiz³. L.A.Kozimovaning ilmiy maqolasida ta’kidlanishicha, bir qator yaqin fanlar va lingvistikaning madaniyatshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi bo‘limlari “chatishishi”dan paydo bo‘lgan lingvokulturologiya ular bilan o‘zaro yaqin aloqada bo‘ladi⁴.

O‘zbek tilshunosligida o‘zbek tili va madaniyati tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar olib borilmagan bo‘lsa-da, til va madaniyat to‘g‘risida bildirilgan fikrlarni, lingvokulturologiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlarda uchratish mumkin. Bu borada N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, A.E.Mamatov, Sh.Safarov, M.Yo‘ldoshev, M.Saidov, U.Qo‘ziyev, D.Teshaboyeva, Sh.Usmonova kabi olimlarning xizmatlari katta⁵. Xususan, A.Abdirazzakov o‘zbek milliy-ma’naviy qadriyatlarini, ularning

²Adler, R.B., Rodman, G. & du Pré, A. Understanding human communication (12h ed.). – New York, NY: Oxford University Press, 2013. – 377 p. Gamble, T.K. & Gamble, M. Communication works (11th ed.). – New York, NY: McGraw-Hill, 2021. – 410 p. Gudykunst, W.B. (ed.). Language and ethnic identity. – Clevedon, UK: Multilingual Matters, 1988. – 348 p. Holmes, P. Intercultural dialogue: challenges to theory, practice and research // Language and Intercultural Communication. – 2014. – Vol. 14. – Issue 1. – P. 1-6.

³ Каган М.С. Мир общения: Проблема межсубъектных отношений.—М.:Политиздат,1988.— 319 с; Карпович О.Г. Политика и общество. Общество с ограниченной ответственностью "НБ-Медиа". 2017. - С. 57-66; Межуев В.М. Диалог как способ межкультурного общения в современном мире // Вопросы философии. – 2011. – № 9. – с. 65-73; Орнатская Л.А. Межкультурный диалог: проблемы и перспективы исследования. – Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 6, Философия, культурология, политология, право, международные отношения. - 2014. - № 1. - С. 48-60.

⁴Казымова Л.А. Язык и культура: к вопросу о специфике лингвокультурологии. Филология и лингвистика. 2018; 3 (9): 19–22.

⁵ Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқики йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 5. –Б. 10., Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б.3., Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.318 b., Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, 2008., Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Yozuvchi, 1991., Mamatov A.E. Lingvomadaniyatshunoslik. Lingvokulturema va logoepistema. Xorijiy filologiya. – Samarcand: SamDCHTI, 2015. – № 1. – Б. 100-102., Mamatov A.E. Zumonaviy lingvistika. Tashkent: “Noshir” nashriyoti, 2019. –168 b., Saidova M., Qo‘ziyev U. Lingvokulturologiya. – Namangan, 2017. – 51 b., Teshabayeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O‘zbekiston Respublikasi OAV misolida). Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2012., Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 245 b.

millat o‘zligini anglashdagi o‘rnini tavsifladi⁶, B.Abduraximov O‘zbekiston badiiy madaniyatining xususiyatlarini uning rivojidagi ijtimoiy o‘sish jarayonida tahlil qildi⁷, G.T.Garipova o‘z tadqiqotida ko‘p darajali, ko‘p funksiyali, “sintetik” tadrijiylashuv mantig‘ini o‘z ichiga olgan taraqqiyot tendensiyasi yetarlicha murakkab kompleks sanalgan bir jinsli bo‘lmagan, XXI asr boshidagi tipik o‘zbek adabiyoti jarayonini taqdim etdi⁸.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining “Zamonaviy lingvistika va lingvistikating kommunikativ aspektlari” yo‘nalishi rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi madaniyat tilining o‘ziga xosligini o‘zbek xalqi etnomadaniy tafakkuri ko‘rinishi shaklida, zamonaviy voqelik va tendensiyalarda o‘zbek tilining yangilanishi, milliy badiiy adabiyotning rivojlanishini hisobga olgan holda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilni madaniyatni ifodalashning milliy shakli sifatida, madaniyatni esa semiosferaning bir qismi sifatida o‘rganish;

“til” va “madaniyat” tushunchalarini muqoyasa qilgan holda madaniyatni aloqa tizimi sifatida, muloqotni madaniyatning mavjudlik shakli sifatida tavsiflash;

madaniy o‘xshashliklar xususiyatlarini globallashuv davridagi madaniyatlararo aloqa tizimida ko‘rsatish;

o‘zbek xalqi etnomadaniy tafakkuri ko‘rsatkichlarining o‘ziga xosligini badiiy adabiyot misolida tahlilga tortish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek xalqining etnik-madaniy tafakkuri (G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi misolida) olindi.

⁶ Абдираззаков А.А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995. – С. 24.

⁷ Абдурахимов Б. Социодинамика художественной культуры Узбекистана: Автореф. дис. ...докт. искусствовед. наук. – Ташкент, 2000. – С. 44

⁸ Гарипова Г.Т. Концептуальные тенденции развития узбекской литературы конца XX – начала XXI вв. // Ziyoruz.uz. – 27.09.2021. – URL: <https://www.ziyoruz.uz/ru/literaturovedenie/49-literaturnaya-kritika/977--i> (дата обращения: 29.08.2022).

Tadqiqotning predmetini hozirgi voqelik va tendensiyalarda o‘zbek tilining yangilanishi va milliy badiiy adabiyotning rivojlanishini hisobga olgan holda, madaniyat tilining o‘ziga xosligi o‘zbek xalqining etnomadaniy tafakkuri ko‘rinishi shakli sifatidagi xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasvirlash, etnografik, qiyosiy-tarixiy, transformatsion, lingvo-pragmatik, semiotik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Madaniyat semiosferaning bir qismi ekanligi til, san’at, aksiologik birliklar, turli xil marosimlar, mifologiya, urf-odatlarga xos birliklar asosida yoritib berilgan;

“Til” va “madaniyat” tushunchalarining muloqot birligi, me’yoriylik, tarixiylik “dinamika-statika” antinomiyasi asosida mavjudligi jihatdan umumiy va xususiy farqlanishi ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan so‘z, urf-odatlar tilda o‘z aksini topishi, til madaniyatga nisbatan o‘zgaruvchan hodisa ekanligi, til orqali boshqa madaniyatlar hamda kishilar bilan tanishilishi, til odamlarning tafakkuri, dunyoqarashi va xatti-harakatlariga ta’sir qilsh jihatlari ochib berilgan;

Madaniyatning kommunikativ tabiatи bir davrdan ikkinchisiga axborot tashish, mentalitet, me’yor, ma’no, belgi, ramz shakllanishida namoyon bo’lishi, shuningdek, suhbat madaniy mavjudlik shakli sifatida kommunikativ maqsad, makon-zamon, kmommunikativ vaziyat, repertuar kabi vositalar orqali aniqlanishi, globallashuv jarayonida milliy o‘ziga xoslik etnomadaniy jihatdan dalillangan.

“Shum bola” qissasi matnida o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy qiyofasi “Bo‘yginangdan gирgitton bo‘lay”, “Xudoyi qo‘noq”, kabi jumlalar, “Savatdan non uzilmasa, ariqdan suv”, “kar qilingan bedanaday”, “tushovi yechilgan toychoqlarday” kabi ta’riflar, “ko‘zim uchib turgandi”, “Maslahatli to’n tor kelmas”, “O‘zingni ehtiyot tut, qo‘shningni o‘g‘ri tutma” kabi turli paremalar, “dasturxon”, “kavush”, “kafan”, “kigiz” kabi madaniy leksemalar orqali ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiya materiallari tadqiqot mavzusi bo‘yicha izlanishlarni davom ettirishda qiziqarli va foydali bo‘lishi bilan ahamiyat kasb etadi;

tadqiqot natijalarini ta’lim va amaliy maqsadlarda qo’llab, ulardan tilshunoslikning lingvokulturologiya, adabiyotshunoslilik ta’lim sohasiga doir o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin bo‘ladi;

amaliy maqsadlarda esa tahlildan olingan natija va xulosalarni, me’yorlarni kompleks takomillashtirish, turli davrlarga mansub o‘zbek badiiy asarlari uslub va strategiyasini, o‘zbek xalqi etnomadaniy tafakkur ko‘rsatkichlarini aniqlashga ko‘maklashadi;

O‘zbekiston va o‘zbek xalqining jahondagi obro‘li imidjini shakllantirish hamda yuksaltirish borasidagi istiqboldagi ishlarda samara beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda foydalanilgan tahlil, yondashuv va uslublar hozirgi tilshunoslik nazariyasiga muvofiq kelishi, shuningdek, metodologik asoslanganligi, tadqiqot materiallari ishonchli manbalardan olinganligi, muammo aniq shakllantirilib, xulosalar mantiqan izchil bayon etilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyatga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati til va madaniyatning o‘zaro aloqalari hamda bir-biriga bog‘liqligini namoyon etishga, xalqning ular bilan shartlangan etnomadaniy tafakkuri haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirishga, dunyoda O‘zbekiston va uning xalqiga xos qulay imidjni takomillashtirish va yuksaltirishga, shuningdek, o‘zbek klassik adabiyoti, hozirgi o‘zbek badiiy adabiyoti materiallarining diskursiv-pragmatik xususiyatlarini xolis tahlil qilishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati, olingan qarashlar asosida filologiya yo‘nalishida “O‘zbek tili va nutq madaniyati”, “Tilshunoslik”, “Lingvokulturologiya”, “Diskursiv tilshunoslik”, “Sotsiolingvistika”, “Sotsiopravmatika” kabi predmetlar doirasida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda, seminar va treninglar jarayonida, shu bilan birga, yangi o‘quv-uslubiy jamlanmalar, lug‘atlar tuzish, murakkabligi va hajmi turli darajadagi ilmiy-amaliy qo‘llanmalar, darsliklar, monografiyalar yaratishda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Madaniyat tili etnomadaniy tafakkur ifodasining shakli sifatidagi xususiyatlarini aniqlashdan olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

Madaniyat semiosferaning bir qismi ekanligi til, san’at, aksiologik birliklar, turli xil marosimlar, mifologiya, urf-odatlarga xos birliklar asosida yoritilganligi, “Til” va “madaniyat” tushunchalarining muloqot birligi, me’yoriylik, tarixiylik “dinamika-statika” antinomiyasi asosida mavjudligi jihatdan umumiyligini va xususiy farqlanishi ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan so‘z, urf-odatlar tilda o‘z aksini topishi, til madaniyatga nisbatan o‘zgaruvchan hodisa ekanligi, til orqali boshqa madaniyatlar hamda kishilar bilan tanishilishi, til odamlarning tafakkuri, dunyoqarashi va xatti-harakatlariga ta’sir qilsh jihatlariga oid fikrlaridan 2021-2023-yillarda ‘Musiqa va san’at o‘quv masalalari uchun “Bolalar raqlari”’ fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773 raqamli fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 3-iyundagi 1/04-100 son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning nazariy qismining yangi ilmiy dallillar bilan boytilishiga erishilgan.

Madaniyatning kommunikativ tabiatini bir davrdan ikkinchisiga axborot tashish, mentalitet, me’yor, ma’no, belgi, ramz shakllanishida namoyon bo’lishi, shuningdek, suhbat madaniy mavjudlik shakli sifatida kommunikativ maqsad, makon-zamon, kmommunikativ vaziyat, repertuar kabi vositalar orqali aniqlanishi, globallashuv jarayonida milliy o’ziga xos etnomadaniy jihatlari to‘g‘risidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 – Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish amaliy grant loyihasi tadqiqotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 14-sentabrdagi №04/1-2462-son ma’lumotnomasi.)

“Shum bola” qissasi matnida o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy qiyofasi “Bo‘yginangdan gиргиттон бо‘лаи”, “Xудоиি оқоноқ”, каби жumlalar, “Savatdan

non uzilmasa, ariqdan suv”, “kar qilingan bedanaday”, “tushovi yechilgan toychoqlarday” kabi ta’riflar, “ko‘zim uchib turgandi”, “Maslahatli to’n tor kelmas”, “O‘zingni ehtiyot tut, qo‘sningni o‘g‘ri tutma” kabi turli paremalar, “dasturxon”, “kavush”, “kafan”, “kigiz” kabi madaniy leksemalar orqali ochib berilgan o‘rinlaridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limi qoshidagi “Sadoqat” to‘garagi faoliyatida va adabiy kechalarda, ijodkor yoshlari bilan uchrashuvlarda foydalilanigan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 3-iyundagi 07-03/638-son ma’lumotnomasi). Natijada to‘garak a’zolarining yozuvchining o‘sha davrdagi o‘zbek millatiga xos urfatatlari, tili, yashash tarzi, madaniyatiga xos bo‘lgan jihatlarni ochib berilganligi haqidagi bilimlari kengayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari va xulosalari bo‘yicha 2ta xalqaro va 3ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5ta maqola, jumladan, 2tasi xalqaro, 3tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiylajmi 138 sahifani tashkil etadi.

I BOB. MADANIYATNING RAMZIY TABIATINI TADQIQ

ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1-§. Til madaniyatni ifodalashning milliy shakli sifatida

Inson yaralibdiki, o‘ziga xos yashash tarzi, qadriyatlarini ham bunyod etadi, avlodlarga uzatadi hamda ajdoddardan meros bo‘lib qolgan an’analarga amal qiladi. Bu uzviy jarayon bo‘lib, doimiy ravishda qaytarilib turaveradi. Barcha jonzotlararo til mo‘jizasi insoniyatga ato etilgan ekan, u orqali kishilar o‘zaro muloqotga kirishib, o‘z his-tuyg‘u, xohish-istiklarini bir-biriga bildirishadi hamda yuqorida ta’kidlab o‘tgan milliy-madaniy qarashlarni kelajak avlod ongiga singdiradi. Mana shunday munosabatlar natijasida til, tafakkur, madaniyat tushunchalari bir yo‘lda kesishadi.

Hech bir til yo‘qliki, unda shu tilda so‘zlashuvchi xaqning madaniyati aks etmagan. Til jamiyatga xizmat qilar ekan, jamiyatni tashkil etuvchi har bir a’zo milliy urf-odat, til, tarix, adabiyotni qamrab olgan ma’lum madaniyatga tegishli bo‘ladi. Demak, madaniyatning mohiyatini ochib berishda tilning vazifikasi quyidagilarda aks etadi: Til – bu uzlusiz rivojlanishda bo‘lgan ochiq umumiyligi belgilar tizimidan iborat bo‘lgan hodisa sanaladi. Matnning og‘zaki va yozma ko‘rinishlaridan foydalanish so‘zlovchi tomonidan berilayotgan ma’lumotni eshitish hamda vizual tafakkur qilishga asos bo‘ladi. Bu holat madaniyatning turli tiplarida o‘z aksini topadi. Barchaga ma’lumki, til sayqallangan, qoliplangan adabiy til, so‘zlashuv nutqi, sheva hamda lahjalar, jargonlar shaklida mavjud bo‘ladi. Mazkur shakllar madaniyat nuqtayi nazaridan ham avtonom bo‘lib, uni tashkil qiluvchi vositalarni bir nuqtada birlashtirishga xizmat qiladi.

Til va madaniyatning o‘zaro munosabati haqida so‘z borar ekan, turli millatlarning iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalari doirasida tillar va madaniyatlarning bir-biriga mushtarakligi, lingvistik shaxsni o‘rganish kabi jihatlar bu borada muhim ekanligi ta’kidlanadi. Mazkur jarayon xalqlar, tillar va madaniyatlarning bog‘liqligini inobatga olgan holda millatlarara bag‘rikenglik

o‘zaro hurmat, bir-biriga bo‘lgan qiziqish va shu kabilarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O‘zga tilli madaniyatlar yordamida dunyoning milliy manzarasini kontseptuallashtirish muammosi ko‘plab tilshunoslar, filologlar, faylasuflar va antropologlarning e’tiborini tortadi. Adabiy tilda dunyoning lingvistik tasviri tushunchasini o‘rnatish bu sohada shakllangan polivariantlik holatini tushunish zarurati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, dunyo tasviri tushunchasini ikki xil – ichki jamiyatni tavsiflash va tashqi kuzatuvchilar yordamida aniqlash mumkin. Ko‘pgina tilshunoslarning asarlarida keltirilgan tadqiqotning dolzarblii xalqlarning milliy xususiyatlarini ifodalovchi til birliklari ilmiy tavsifi yo‘qligi bilan bog‘liq. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatga ikki qarama-qarshi nuqtayi nazardan qarash mumkin. Bir tomondan, til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ajralmas hodisa sifatida qaralsa, boshqa tomondan, tilni dunyoning istalgan obyekti va nuqtasi tomonidan qo‘llaniladigan aloqa vositasi sifatida ko‘rish mumkin. Til va madaniyat alohida hodisa ekanligi ta’kidlandi. Bu qarashlarning hech biri to‘g‘ri emas. Birinchisi, tilning madaniy jihatdan bog‘liqligi hamda zamonaviy dunyoning xalqaro va transmilliy jarayonlari nuqtayi nazaridan chalg‘ituvchi til, madaniyat, tarix va mentalitetning yopiq olami – milliy romantizm g‘oyasidan uzoq emasligini ta’kidlaydi. Boshqalarning fikricha, til madaniy jihatdan neytraldir. Til kod sifatida qaraladi va til avtonomiyasining klassik-strukturalistik konsepsiyasini qayta yaratishdan uzoq emas. Til uzoq vaqt va turli darajalarda o‘rganiladi. Qadimgi Yunon faylasuflari uning to‘g‘ri qo‘llanilishi va maqsadi haqida to‘xtalgan bo‘lsalar, zamonaviy olimlar uning qanday ishlab chiqarilishi hamda idrok etilishini tahlil qildilar. Ko‘p asrlar davomida til u haqida gapirishning ma’lum bir umumiyligi tushunchasi doirasida ko‘rib chiqildi. Til haqida fikr bildirilgan nazariyalarda to‘rt xil yondashuv borligini ko‘ramiz: ijtimoiy fakt, tabiiy xatti-harakatlar, ruhiy hodisa, mavhum obyekt sifatida qarash. Tilni ijtimoiy fakt sifatida birinchi marta F.de.Sossyur ta’riflagan bo‘lib, u tillarning shunchaki tarixiy tavsifini bergen holda (uning davrida bo‘lgani kabi) bu faqat insongagina tegishli bo‘lmasligi kerak, deb

ta'kidlagan. Uning fikricha, til haqida muhim ma'lumotlarni uning oddiy foydalanuvchilari, ko'p hollarda o'z ona tili haqida nazariy bilimlari kam yoki umuman yo'q, lekin malakali so'zlovchilardan olish mumkin⁹. Bundan tashqari, F.de.Sossyur taklif qilganidek, tildan foydalanish o'tmishdagi til shakllariga nisbatan diaxronik tahlildan tashqari, tilni (ma'lum bir vaqtida qo'llanilgan til) sinxron jihatdan tahlili ta'minlanishi kerak bo'lgan zamonaviy tuzilma hisoblanadi¹⁰. Til yoki nutqdan foydalanishning ijtimoiy jihatni F.de.Sossyur tomonidan "parole" (shartnoma) deb, til tuzilishi haqidagi asosiy bilim "langue" (til) nomi bilan atalgan¹¹. Tilga xos yana bir qarash, asosan, tilning xulq-atvori, qisman xulq-atvor psixologiyasi va falsafasidan kelib chiqadi. Ushbu nuqtayi nazarni ifodalovchi tilshunoslar lingvistik universallarga emas, balki turli odamlar tomonidan qo'llaniladigan har xil tillarga e'tibor qaratdilar, chunki ular til ma'lumotlarini inson xatti-harakati va o'zaro ta'sirini kuzatish orqali toplash yaxshiroq deb taxmin qilishdi. Bundan tashqari, jumlalarning ma'nosi kuzatilmaydi, shuning uchun uni introspektiv hukmlarga tayangan holda tahlil qilish kerak deb taxmin qilingan. Bu taxmindan so'ng ushbu yondashuvni ifodalovchi tilshunoslar tomonidan tilga ta'rif beriladi. Ularning ta'kidlashicha, til nutq jamoasida aytilishi mumkin bo'lgan bayonotlar yig'indisidir. Til N.Xomskiy tomonidan shakllantirilgan uchinchi yondashuvga ko'ra, psixik hodisadir. Olim tillar o'rtasidagi ma'lum o'xshashliklarni payqab, ularni atrof-muhit omillari bilan izohlab bo'lmaydi yoki ular tasodifiy bo'lishi ham mumkin emas, insonda alohida aqliy qobiliyat bo'lishi kerak, degan fikrni bildiradi. U generativ grammatikaga ega bo'lgan tilni, foydalanuvchilarga cheksiz miqdordagi iboralarni yaratishga imkon beruvchi cheklangan qoidalar to'plamini aniqladi. Ushbu yondashuv vakillari tilni tahlil qilishda uni alohida emas, balki universal grammatika yoki insonga so'zlash uchun imkon beradigan aqliy qobiliyat, degan nuqtayi nazarni ilgari surishadi. So'nggi guruh tilni mavhum obyekt deb ta'kidlaydigan olimlardan iborat, chunki u makon va vaqtini egallamaydi. Bu yondashuv N.Xomskiyning g'oyalariga ziddir,

⁹ Соссюр Ф. де. Труды по языкоznанию. – М.: Наука, 1977. – 426 с.

¹⁰ Соссюр Ф. де. Труды по языкоznанию. – М.: Наука, 1977. – 426 с.

¹¹ Соссюр Ф. де. Труды по языкоznанию. – М.: Наука, 1977. – 426 с.

biroq bunga qo'shilgan tilshunos olimlar tilning eng yaxshi mavhum modellarini tahlil qilish butun ilmiy bilish sohasiga foyda keltirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Til nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni talqin qiladi, inson yashaydigan maxsus voqelikni yaratadi. A.M.Xaydegger tilni "borliq uyi" deb atagan. Ushbu dissertatsiya ishida til xalq mentalitetiga kirib borish usuli – tashuvchisi va dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari sifatida ko'rib chiqiladi. Zamonlar oralab o'tayotgan olis asrlarning aks-sadolari zamonaviy maqollar, matallar, frazeologik birliklar, metaforalar, madaniyat timsollari va boshqalarda saqlanib qolgan. Ma'lumki, inson o'z xalqining tili va madaniyatini o'zlashtirgandagina shaxs bo'lib qoladi. Milliy madaniyatning barcha nozik jihatlari o'ziga xos va noyob tilda o'z ifodasini topgan. Insonga dunyo haqidagi ma'lumotlarning katta qismi til kanali orqali keladi, shuning uchun ham inson predmet va narsalar olamida emas, balki o'zi tomonidan intellektual, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlar uchun yaratilgan tushunchalar olamida yashaydi. Unga so'z orqali ko'p ma'lumotlar keladi va insonning jamiyatdagi muvaffaqiyati uning tilni qanchalik yaxshi o'zlashtirganiga, madaniy nutqni bilishiga emas, balki qobiliyati sabab nutq sirlarining qanchalik ayon bo'lishiga bog'liq. Faylasuflarning ta'kidlashicha, har qanday buyum yoki hodisaning atalgan nomi yaxshilab tushunilsa, haqiqiy dunyonи ko'rsatish osonroq va qulayroq bo'ladi. Xalq madaniyati va mentaliteti haqida eng qimmatli ma'lumot manbalari sifatida frazeologik birliklar, metaforalar, timsollar va boshqalarni keltirish mumkin, chunki ular o'rganilayotgan madaniyatning afsonalari, asotirlari va an'analarini o'zida saqlaydi. Mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning yozishicha, frazeologik birliklar doimo odamlarning dunyoqarashini, ijtimoiy tuzumini, o'z davri mafkurasini bilvosita aks ettiradi, metafora va turli xil belgilar haqida ham shunday deyish mumkin. Aftidan, til siri inson borlig'ining eng buyuk sirlaridan biri, agar u o'rganilmasa, o'tmish haqidagi keng bilim yo'qoladi. Shunga asosan, tilshunoslar til birliklaridan tashkil topgan va yuzaki lingvistik tuzilmalarni ularning chuqr mohiyati bilan bog'lash imkonini beradigan madaniy fonni ko'rishlari kerak. Har bir til o'z dunyosini shakllantiradi va o'ziga xos tushunchaga egaligi bilan

farqlanadi. Tilshunoslar har bir tilda dunyoning o‘ziga xos tasviri bor va natijada adresat so‘zlarni ushbu tasvirga muvofiq tartibga solish kerak, degan xulosaga keladi. Shu munosabat bilan tilda mustahkamlangan dunyoning o‘ziga xos idroki mavjud. Til – dunyo haqidagi bilimlarning shakllanishi va mavjudligining muhim usuli. Odamlar faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirgan holda, bilish natijalarini so‘zda mustahkamlaydi, bilimlarni shakllantiradi va avloddan avlodga o‘tkazadi. Ushbu bilimlar yig‘indisi “oraliq lingvistik dunyo”, “dunyoning lingvistik modeli”, “dunyoning lingvistik manzarasi” yoki “olamning lisoniy manzarasi” deb ataladi. Ular orasida “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasining keng tarqalishi munosabati bilan ushbu atamadan foydalanish lozim topildi. Til tashuvchisi uchun ona tili ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan dunyoni konseptuallashtirish shaklidir. Madaniyatda yaratilgan qadriyatlar tizimi tilda aks etadi. Bundan tashqari, V.fon Gumboldtning fikricha, har bir til ma’lum bir dunyoqarashni aks ettiradi, shuning uchun insonning idroki va faoliyati uning qarashlariga bog‘liq, insonning tevarak-atrofdagi olam obyektlariga munosabati to‘liq til bilan belgilanadi¹². H.G.Gadamer ta’kidlaganidek, “biz yashayotgan an’ana”, birinchi navbatda, “til an’anasi” ni nazarda tutadi. Insonning aql-idroki va xurofoti uning qaysi tilda fikrlashiga qarab belgilanadi¹³. Demak, birinchidan, shaxsning prepredikativ darajadagi fikrlari o‘ziga tegishli ona tilining ichki tuzilmalari bilan belgilanadi. Ikkinchidan, insoniy fikrlash – bu “til tajribasi”dir. Bu tilda yaratilgan madaniyat tarixi bilan belgilanadigan “mulohaza Yuritish tajribasi” hisoblanadi. Sapir-Uorf gipotezasiga ko‘ra (mualliflar E.Sapir va B.Uorf) til va fikrlash tarzi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlashadi.

So‘zlovchining oldida timsollar bo‘lmaydi, garchi ramzning o‘zi ancha chuqr ildizlarga ega, til esa koinot, istaklar, tasavvurlar o‘z ifodasini topadigan vosita bo‘lsa-da, dunyoni qayta qarab chiqish va muqaddaslashtirish uchun bizga muqarrar ravishda so‘z kerak bo‘lishi munosabati bilan, madaniy qadriyatlar, ideallar, yo‘riqnomalar, insonning olam haqidagi fikri va uning bu olamdagি roli

¹² Гумбольдт В. О различии строение человеческих языков и его влиянии на духовной развитие человечества // Избранные труды по языкоznанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 110.

¹³ Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. – М.: Искусство, 1991. – С. 45.

tilda mujassamlanadi, shuningdek, til ma'lum bir madaniyatning asosiy qadriyatlarini aks ettiradi va shu bilan birga, vaqt ularni shakllantiradi. Shunday qilib, til tashuvchisi uchun ona tili ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan dunyoni konseptuallashtirish shaklidir. Insoniyat madaniyatining bu jihatini tushunish uchun ba'zi leksik birliklar, A.Vejbitskaya ta'biri bilan aytganda, "bebaho ishora" ga aylanadi. Kalit so'zlar – bu ma'lum bir madaniyat uchun juda muhim va ma'noli so'zlar bo'lib, biz to'plangan tajriba qandaydir tarzda tilda kodlangan, degan xulosaga kelishimizga olib keladi¹⁴. Jumladan, K.Girts madaniyat – bu timsollar yordamida ifodalangan meros tushunchalar tizimi sifatida ramzlarda ifodalangan mazmun tarixan ko'chirilgan modeli bo'lib, ular orqali odamlar birlari bilan muloqotda bo'ladilar va shu asosda ularning hayot haqidagi bilimlariyu o'rnatmalari tushuniladi, deb hisoblaydi¹⁵. Dunyo tasviri, lingvistik konsepsiya inson dunyoqarashini o'rganishga asoslanadi. Agar dunyo insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri bo'lsa, u holda dunyo tasviri inson va atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida paydo bo'ladi. Jumladan, boshqa tilshunoslik vakillari dunyoning lingvistik tasviri ko'rinishida aks ettirilgan shaxsnинг konseptual tizimi jismoniy va madaniy tajribasidan kelib chiqib, u bilan bevosita bog'liqligini to'g'ri ta'kidladilar. Tashqi olamning hodisa va predmetlari inson ongida ichki obraz shaklida namoyon bo'ladi. A.N.Leontevning so'zlariga ko'ra, odamlarga atrofdagi voqelikni ifodalovchi maxsus "beshinchchi kvazidunyo" mavjud bu "semantik maydon" ma'nolar tizimi. Shu bilan birga, dunyo tasviri shakllar tizimidir¹⁶. M.Xaydeggerning yozishicha, biz "tasvir" so'zini eshitganimizda, avvalo, biror narsaning obrazliligi haqida o'ylaymiz. Uning fikricha, dunyoning mohiyatan tushunilgan tasviri dunyoni tasvirlaydigan rasm emas, balki tasvir sifatida tushunilgan dunyodir. Haqiqiy dunyoni aks ettirish va ushbu aks ettirishning fiksatsiyasi sifatida dunyoning lingvistik tasviri o'rtasida qiyinchiliklar mavjud. Dunyo tasvirini fazoviy (yuqoridaн pastga, chapdan o'ngga,

¹⁴ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание: Пер. с англ. – Москва: Русские словари, 1996. – 416 с.

¹⁵ Гирц К. Интерпритация культуры. – Москва, 2004. – С.6.

¹⁶ Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Политиздат, 1975. – 302 с.

sharq-g‘arbgan, yaqin-uzoqqa), vaqtinchalik (kunduz-tun, yoz-qish), miqdoriy, axloqiy va boshqa belgilar yordamida tasvirlash mumkin. Uning shakllanishiga til, urf-odatlar, tabiat va manzara, tarbiya, ta’lim va boshqa ijtimoiy omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoning til manzarasi uning boshqa qismlari manzaralari bilan mos kelmaydi (kimyoviy, fizikaviy), u boshqalarning barchasidan oldin turadi va ularni shakllantiradi, chunki inson atrofini o‘rab turgan dunyoni va o‘zini tilning barcha darajalarida uning xususiyligini belgilaydigan umuminsoniy borliqning jamoaviy-tarixiy tajribasini tasvirlaydigan til tufayligina tushuna oladi. Tilning so‘zlovchilar ongidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan olamning lisoniy manzarasi aniqlanadi, inson uning prizmasi orqali olamni idrok etadi¹⁷.

J.D.Apersyan dunyo tasvirining ilmiylikkacha bo‘lgan xarakterini ta’kidlab, uni “sodda” deb atagan edi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni, ayrim hollarda buzib (atom, nuqta, nur, issiqlik va h.k. so‘zlar), go‘yoki to‘ldiradi. So‘z semantikasini o‘rganayotib, dunyoning o‘ziga xos sodda manzarasini belgilovchi qardosh modellar spetsifikasini aniqlash mumkin. Dunyoni bilish adashishlardan xoli emas. Dunyoning anglashilgan manzarasi “yangidan chizilib” doimo o‘zgarishda olamning til manzarasi bu adashishlar izlarini uzoq vaqtgacha saqlab qoladi¹⁸.

V.B.Kasayevichning fikricha, olamning semantika vositalari bilan kodlangan manzarasi vaqt kelib qoloq, o‘tmish yodgorligi, yangi semantikani barpo etishga xizmat qiladigan eski material bo‘lib qolishi mumkin¹⁹. Boshqacha aytganda, tilning semantik va arxaik tizimlari hamda muayyan til jamoasi uchun haqiqat bo‘lgan, ular sabab tug‘iladigan matnlar va xulq atvorning qonuniyligida namoyon bo‘ladigan dolzarb mental model o‘rtasida tafovut mavjud.

Olamning lisoniy manzarasi insonga xos (tabiatga, hayvonlarga, dunyoviy hodisa sifatida o‘ziga) nisbatan munosabatlar turini shakllantiradi. U borliqdagi kishining axloq me’yorlarini tushuntirib, ularning dunyoga munosabatlarini

¹⁷ Хайдеггер М. Время и бытие // Разговор на проселочной дороге. – М.: Высшая школа, 1991.- С.80.

¹⁸ Апресян Ю.Д. Вид и словарь // Язык в движении. К 70-летию Л. П. Крысина. – М.: Языки славянской культуры, 2007. – С. 32.

¹⁹ Касаевич В.Б. К вопросу о современной картине мире // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – № 1. – С. 48.

belgilaydi. Har bir tabiiy til dunyoni qabul qilish va tashkillashtirish (konseptuallashtirish)ning muayyan vositasini aks ettiradi. Ular ifoda qiladigan ma'nolar ko'rinishlarning har bir til tashuvchisi uchun majburiy bo'lgan, jamoaviy falsafaga o'xshagan qandaydir yagona tizimiga birlashadi.

Bu borada tilning roli faqat axborot yetkazishdagina emas, eng avvalo, yuborilayotgan narsaning ichki tashkil etilishidadir. Allaqanday "ma'nolar hududi", boshqacha aytganda, konkret til jamoasining milliy-madaniy tajribasidan tarkib topgan tilda muhrlanadigan dunyo haqidagi bilimlar maydoni paydo bo'ladi (Leontev terminologiyasida). U mazkur tilda gapiradigan til tashuvchilari jamoasini shakllantiradi. Dunyoning leksika, frazeologiya, grammatikada muhrlangan barcha bilimlar jamlangan til manzarasi mavjud²⁰.

Dunyoning til manzarasiga bo'lgan qiziqishni V.fon Gumboldt asarlarida ham topish mumkin, u turli tillar turli xalqlar uchun o'ziga xoslik va idrok etish organlari bo'lib xizmat qiladi deb, yozgan edi²¹. XX asr oxirida til manzarasiga bag'ishlangan ko'plab ishlar paydo bo'ldi. G.A.Brutyan, S.A.Vasileva, G.K.Kolshanskogo, M.Bleka, D.Xayma va boshqalarning ishlari bu jihatdan xarakterlanadi. Ushbu muammoga bo'lgan yuqori darajali qiziqish geshtaltlar nazariyasini freymlar nazariyasi bilan bog'lashga uringan turdosh tadqiqotlar bilan bog'liq. Tillar namoyon bo'lishining bir nechta aspektlariga nisbatan geshtaltlar nazariyasi mavjud. Til darajasining yuza qismida aynan bir geshtalt turli ma'nolarda amalga oshishi mumkin, faqat maxsus tadqiqotgina ularning yagonaligini aniqlab beradi²². Shu o'rinda geshtalt o'zi nima degan savol tug'iladi. Geshtalt bu kognitiv tuzilishning yuqori darajada shakllangan turi bo'lib, unda hissiylik hamda ratsionallik bir butunlikni tashkil etadi. Geshtalt kommunikativ vaziyatni to'liq idrok etish natijasi, til chegaralaridan chiqmagan, shunday bo'lsada, til vositalari orqali qayta tiklangan bilim hisoblanadi. U orqali barcha – hissiy, aqliy, nutqiy faoliyatga bog'liq bo'lgan konseptual axborotlar majoziy, senariyli,

²⁰ Леонтьев Д.А. Пространство возможного как пространство свободы // Психологическая газета. 01.12.2021. URL: <https://psy.su/feed/9577/> (дата обращения: 26.08.2022).

²¹ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 102.

²² Ван Чжицян, Дашинимаева П.П. Фрейм, гештальт и образ: равнозначность или смежность категоризации? // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2022. – Т. 20. – № 2. – С. 36.

chegarali hamda tuzilmali kombinatsiyalarda birlashadi. J.Lakoff urush va bahs bir xil iborada ifodalanishi, ya’ni bir xil fikrlashlari, aynan bir geshtalt bilan aloqa qilinishini ko‘rsatib berdi. Geshtalt, o‘z mohiyatiga ko‘ra, insonning chuqr ruhiyatiga tegishli bo‘lgan, yaxlit holda tabiiy tilning kategorial doiralarida shakllanadigan universal tasavvurdir. Tilning aniq ma’lumotlari asosida qayta ishlangan geshtalt o‘ziga yaqin transsendent real substansial hajmlarni o‘zlashtiradi²³. Demak, geshtaltlar orqali borliq idrok qilinadi. Kognitsiya jarayonida milliy-madaniy akseomalar inson ongiga, nutqiga o‘rnasha boradi. Masalan, bola doimiy oziqlanadigan mahsulotlari, ularning tur xususiyatlari, nomlanishi, turkumlanishi haqidagi ma’lumotlarga ulg‘aygach, ya’ni olamni to‘laroq idrok qilgach bilib oladi. O‘zi yeb ko‘rmagan mahsuloti haqida esa bunday deya olmaymiz. Sababi, bunday mahsulotlar haqida nazariy ma’lumotlar kishi ongida shakllansa-da, uni tatib ko‘rmagunicha to‘liq kognitsiya amalga oshmaydi. O‘sha mahsulotni tatib ko‘rdi ham deylik, u bilan bog‘liq xotiralar (u ulg‘ayguniga qadar bunday mahsulotlardan tatib ko‘rmagan bo‘lsa, yoki u o‘sgan hududda bunday mahsulotlar iste’mol qilinmasa) bo‘lmasa ham yuqoridagi holat yuzaga keladi. Masalan, qo‘y yog‘idan osh deyilganda o‘zbek, qisqichbaqa deganda, asosan, xitoy, latdu deganda hind, Istiridye deganda fransuz, kimchi deganda koreys oshxonasi va shuning bilan birgalikda ularga xos madaniy bilimlar ham ongda gavdalanadi.

Bundan tashqari, V.fon Gumboldtning “til dunyoqarashi” deb nomlangan g‘oyasi zamonaviy neogumboltizmda taraqqiy topdi. Darhaqiqat, har bir xalq dunyoning ko‘pmanzaralilagini o‘zicha taqsimlaydi va nomlaydi. Olamning “tuzuvchi” kartinasining o‘ziga xosligi individual, guruhlangan hamda milliy (etnik) verbal va noverbal tajribalar orqali aniqlanadi. Dunyo til manzarasining milliy o‘ziga xosligiga neogumbaltlar tomonidan uzoq tarixiy taraqqiyot natijasi deb emas, balki tillarning berilgan asl sifati deb qaraladi. Ularning o‘ylashicha, odamlar o‘zlarini o‘rab turgan dunyodan farqlanadigan o‘z betakror dunyolarini

²³ Лакоф Дж. Лингвистические гештальты // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1981. – Вып. 10. – С. 355.

yaratadilar. So‘zlovchilar olamining manzarasi, haqiqatan ham, obyektiv xarakteristikalar, obyektlar, voqealar tafsilotidan sezilarli farq qiladi, zero, u “obyektiv dunyoning subyektiv obrazidir”. Biroq til dunyoning bu subyektiv manzarasini o‘z-o‘zidan yarata olmaydi²⁴. Har bir xalqning o‘ziga xos til manzarasi mavjud, ushbu manzara shu tilda so‘zlashuvchi insonning ongida muhrlangan bo‘ladi. U, asosan, badiiy adabiyot namunalarida yaqqol aks etadi. Masalan, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi haqiqiy o‘zbek bolasining kundalik turmushini turli xil tavsiflar orqali ochib beradi. Asarda shunday jumlalar bor: *Mahallamizning bir tomoni Tikonli mozor, bir tomoni Qo‘rg‘ontagi, Uzun ko‘chaning o‘ng, chap tomonidagi pastqam, tor ko‘chalarda o‘g‘il va qiz bolalar to‘planib, har xil o‘yinlar o‘ynaymiz. Kurash, “botmon-botmon”, “oq terakmi-ko‘k terak”, “qushim boshi”, “mindi-mindi”, “o‘g‘ri keldi”, “bekinmachoq” degan o‘yinlarimiz bor*²⁵. Birgina mana shu jumlalar orqali V.fon Gumboldtning fikrlarini asoslash imkonи paydo bo‘ladi. Hattoki joylarning nomlanishida, bolalar o‘yinlarining nomlari keltirilishida ham o‘zbekona madaniyatning ifodasini ko‘rish mumkin. Haqiqatdan ham olamning manzarasini inson subyektivlashtiradi. Misol uchun o‘zbek mentalitetidan xabarsiz kishi bu jumlalarni o‘qiganida uning tafakkur olamida haqiqiy olam obrazi gavdalanmaydi, chunki u “Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yinini o‘ynab ko‘rmagan va bu haqida to‘liq tasavvurga ega emas, biroq ushbu o‘yinlardan xabari bor, o‘ynab ko‘rgan inson ushbu jumlalarni o‘qiganida uning ongida o‘yining qoidalari, tuzilishi, o‘zi o‘ynash jarayonida his etgan emotsiya va shu kabilar obrazli gavdalanadi.

Dunyo haqidagi bilimlar deb ataladigan olam manzarasi individual va jamoaviy tafakkur asosida yotadi. Til axborot jarayonining talablarini bajaradi. Dunyoning konseptual manzarasi insonlarda, masalan, turli davr vakillarida, har xil ijtimoiy, yosh guruhlari, ilmiy bilimlarning rang-barang sohalaridagi shaxslar va hokazolarda bir xil emas. Turli tillarda gapiruvchi kishilar muayyan sharoitlarda dunyoning yaqin konseptual tasviriga ega bo‘lishi, bir tilda gapiruvchilarda esa

²⁴ Гумбольдт В. Избранные труды по языкоznанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 104.

²⁵ G‘afur G‘ulom. Shum bola./ Qissa. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.11.

boshqacha bo‘lishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, dunyoning konseptual manzarasida umuminsoniylik, milliylik va shaxsiylik tamoyillari o‘zaro ta’sir doirasini hosil qiladi.

Manzarali dunyo – bu shunchaki predmetlar, jarayonlar, hodisalar, xususiyatlar va hokazolarning “fotografiyasi” emas. U o‘zida nafaqat aks etgan obyektlarni, ularning akslangan holatini, bir-biriga bo‘lgan munosabatini, ayni daqiqada, o‘sha reallikda obyektlarning holatini ham, o‘zini ham mujassam etadi. Buning ustiga, dunyoning insonda akslanishi faol emas, passiv bo‘lgani bois predmetga nisbatan munosabat nafaqat mavjud obyektdan tug‘iladi, balki faoliyat orqali uni o‘zgartirish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, milliy til tizimi olamning lisoniy manzarasini qurishda ishtirok etadi. Olamning lisoniy manzarasi yaxlit va umumi odamlar ongidagi dunyoning mantiqiy aksiga muvofiq keladi. Lekin bu borada olamning lisoniy manzarasiga oid frazeologiyaga ham tegishli bo‘lgan ayrim alohida elementlari saqlanib qoladi (har bir tilning o‘z frazeologiyasi mavjud).

Frazeologiya dunyoning til manzarasi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. U “millat hayotining ko‘zgusi” sanaladi. Frazeologizmlar mohiyati so‘zlovchining bilimlari, hayotiy tajribasi, o‘z xalqining tarixiy-madaniy an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Dunyo manzarasi bilan fikran uyg‘unlashgan, uning barcha tasviriy holati matnni bildiradigan, uni baholaydigan, unga munosabatini ifodalaydigan buyumlar belgilarini frazeologizmlarga tegishli ekanini ta’kidlashadi. O‘zining semantikasiga ko‘ra frazeologizmlar bevosita inson faoliyati va fe’l-atvoriga yo‘naltiriladi.

Bir qator asosiy so‘z va frazeologizmlarning ma’nosи dunyoni antropotsentrik tushunish (masalan, shishaning bo‘g‘zi, kursining oyog‘i, qo‘lni sovuq suvga urmaslik va h.z) orqali shakllangan. Bu kabi nominativ birliklar hayot va axloq, insonlarning odatlari va fe’l-atvorlari, ularning dunyoga va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarida aks etadigan olamning milliy-madaniy manzarasini tashkil etadi. Ibora, maqol kabi frazeologik birliklar xalqning so‘zlashish madaniyatida, turmush tarzidan darak beradi. Misol keltiramiz: *Bir kuni Oqsoqol dadamga gapirib qoldi*:

– *Mana, malim, o’lmagan qul, sen je – men je kunlargayam yetdik. Endi sizga o’n ikki vassali uy qurib beramiz. Odamlarni hasharga aytib qo’ydim. Belda belbog‘i bori kelaveradi.*²⁶ Ushbu jumlada insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, g‘amxo‘rlik, o‘zbekona lutf sezilib turadi. Matnda qo‘llanilgan iboralar orqali o‘zbekona madaniyatning tilda nihoyatda mahorat bilan ifodalanganligining guvohi bo‘lamiz. “Sen je – men je” kunlar deyilganda xalqning turmush sharoitlari avvalgiga qaraganda anchayin yaxshilanganligi ifodalangan bo‘lsa, insonlarning bir-biriga beg‘araz, hech qanday manfaatsiz ko‘mak berishi erkak kishining oriyatli, g‘ururli ekanligi “belida belbog‘i bor” iborasi orqali ifodalangan. Kichikkina matnda o‘zbekona aksioligiyani ochib beruvchi *oqsoqol, hashar, o’lmagan qul* kabi leksemalarning qo‘llanilishi ham xalqimizga xos bo‘lgan olam manzarasining yaratilishiga asos bo‘ladi.

Olamning lisoniy manzarasi turli ranglardan tuziladi, bilishimizcha, nisbatan yorqinrog‘i, mifologema, obrazli-metaforik so‘z, konnotativ so‘z va boshqalardir. Dunyoqarash ko‘p hollarda olamning til manzarasi asiri bo‘ladi. Har bir konkret til o‘zida milliy, muayyan til tashuvchisining dunyoqarashini belgilaydigan va ularning dunyoviy tasvirini shakllantiradigan o‘ziga xos tizimni saqlaydi.

Tilning mazmun tarafida ba’zan –(grammatikada) aniq bir etnosning dunyoviy manzarasi namoyon bo‘ladi. Tegishli tahlillar olimlarga milliy madaniyatlar bir-biridan nimasi bilan farqlanishini va ular bir-birini qanday to‘ldirishini tushunishga imkon beradi. Agar barcha so‘zlar mazmuni madaniy jihatdan o‘ziga xos bo‘lganda edi, madaniy tafovutlarni tadqiq etishning iloji bo‘lmas edi. Shundan kelib chiqib, milliy-madaniy aspektlar bilan shug‘ullanar ekan, olimlar til birliklarining universal xususiyatlarini ham hisobga olishadi. Dunyoning sodda manzarasi inson amaliy talablariga javob sifatida shakllanadigan, uning dunyoga moslashishida tug‘ma asos bo‘ladigan tilda aks etadi. Egotsentrizm faoliyatni pragmatik strukturalaydi, zero u insonning anglash sferasini shakllantirishi mumkin. Inson bepoyon kengliklarni, mehnat va aqliy qobiliyatlarni o‘lchaydi, barcha narsani o‘ziga singdirib, atrofni o‘rab turgan dunyoga yoyib, hissiyotlarini

²⁶ O‘tkir Hoshimov Ikki eshik orasi: Roman.– Toshkent: “Sharq”, 2012 – B.57.

shaxsiy idrok etish prizmasi orqali baholaydi. Olamning lisoniy manzarasi shunday antropotsentrism modellarini saqlaydiki, inson nimanidir beqadr qiladi yoxud qadriyatlar ustuvorligini tanlaydi. Uning hayoti davomida boshqalardan ko‘ra ko‘proq uchraydigan ashyolar, hodisalar haqidagi obyektiv obrazli-ko‘rgazmali referent tasavvurlar voqelikning qandaydir lisoniy manzarasi aksini hosil qiladigandek tuyuladi. Sodda lingvistik sur’at sezilarli pragmatizm bilan ajralib turadi. Bu turdagи bilim mutlaq haqiqat deb da’vo qilgan holda, an’anaviy fan obyektiv haqiqat deb hisoblagan narsadan chetga chiqishi mumkin. Ilm-fanda mezon bu modelning yaxlitligi va universalligi, tajribani tizimlashtirish uchun tushuntirish matritsasi bo‘lib xizmat qilish qobiliyati emas, balki rasmiy-mantiqiy izchillikdir.

L.Vitgenshteyn “Tritata”da tilning tasvir nazariyasiga e’tibor qaratdi. U: “til haqiqatni, atrofdagi dunyoni aks ettiradi”, – deb yozgan²⁷. Tasvirlar nazariyasi so‘z va uning tashqi muhitda nimani anglatishi yoki gap, taklif va u nazarda tutgan voqeа yoki vaziyat o‘rtasidagi munosabatni tushuntirishdir. Olamning har bir lingvistik manzarasida tasodifiy, mantiqiy tushuntirib bo‘lmaydigan standart lakunalar bo‘lishi mumkin. Taqqoslash uchun asosni ko‘rsatmasdan me’yor sifatida yaxlit tasvirlardan foydalanganda, qoida tariqasida, nutq subyektining ma’lum bir narsaga ma’qullovchi yoki rad etuvchi hissiy munosabati birinchi o‘ringa chiqadi. Ikkilamchi sezgilar mexanizmi prizmasi orqali aks ettirilgan, metafora, taqqoslash, timsollarda mujassamlangan borliqning har qanday o‘ziga xos milliy til manzarasi universalligi va o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu munosabat bilan olamning rang-barang lingvistik manzaralarida umuminsoniy omil va milliy o‘ziga xoslik o‘rtasidagi farq muhim holatdir. Genetik mexanizm – bu tana sezgilarini baholash, shuning uchun ham umuminsoniy, ham milliy xususiyatga ega bo‘lgan inson faoliyati bilan bog‘liq, u doimo tipologik, umumiyl va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan olamning lisoniy manzarasini yaratishga olib keladi. Bu xususiyatlar uning o‘ziga xosligi va universalligini belgilaydi. Oddiy ongdagi voqelikning yaxlit shakli, birinchi navbatda, empirik

²⁷ Винтгенштейн Л. Логико-Философский трактат. – М., 2022. – С.160.

amaliyot va ramziy olamning takrorlanuvchi tasvirlarini o‘z ichiga oladi. Madaniyatning har bir turi o‘ziga xos ramziy tilni va “borliq manzarasini” yaratadi, bu esa ularga lingvistik elementlarning ma’nolarini beradi. O.Spengler madaniyatni fazoviy miqyosda tavsiflash uchun hatto “parasimvol” atamasini taklif qildi²⁸. Dunyoning sodda tasvirida standartlar va belgilarni tanlash aslida turkidir. Ushbu undash butun konseptual tizimning xususiyatlariga bog‘liq va dunyoning lingvistik tasviri bir qator holatlarida o‘zini namoyon qilishi mumkin. Frazeologizmlar, V.N.Telianing fikricha, olamning lisoniy manzarasi me’yorlari, stereotiplari sifatida harakat qilishi yoki ularning ramziy xususiyatini ko‘rsatishi va madaniy belgilar rolini o‘ynashi mumkin. Idrokning obyektiv usuli ustunlik qiladigan tartibli ong dunyosining sodda surati talqin qiluvchi xususiyatga ega²⁹. Til jamoaviy stereotip-referensial tasavvurlarni o‘rnatib, inson ongingin talqin qilish faoliyatini obyektivlashtiradi va o‘rganish uchun ochiq qiladi. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni tushuntiruvchi eng qiziqarli tushunchalardan biri V.Gumboltga tegishli bo‘lib, u madaniyatning milliy xarakteri tilda dunyoga alohida qarash orqali namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi. Til va madaniyat mutlaqo mustaqil hodisa bo‘lib, til va madaniyatning ontologik birligini ta’minlaydigan lingvistik belgilar ma’nolari bilan bog‘lanadi³⁰.

XX asr oxirida til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammolari zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanganda lingvokulturologik tadqiqotlar jadal sur’atlarda o‘sdi. So‘nggi o‘n yil ichida deyarli har bir Yevropa mamlakatida lingvokulturologik konferensiyalar bo‘lib o‘tdi va sohaga oid materiallar maqolalar to‘plamlarida nashr etildi. So‘nggi o‘n yillikda tilshunoslik tilni inson bilan yaqin munosabatlarda o‘rganish paradigmasi asosida ish ko‘ra boshladи. Bu esa tilshunoslikdagi antropologik tamoyilni belgilab berdi. Antropologik tilshunoslik, eng avvalo, tildagi inson omilini o‘rganishni anglatadi. Ikkiti muammolar majmuasi diqqat markazida: insonning tilga qanday ta’sir

²⁸ Шпенглер О. Пруссачество и социализм. — М.: Праксис, 2002. — 240 с.

²⁹ Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, pragmaticеский и лингвокультурологический аспекты. — М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. — 288 с.

³⁰ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984. — С. 100.

qilishini aniqlash; tilning insonga, uning tafakkuriga, madaniyatiga qanday ta'sir qilishini aniqlash bu borada maydonga chiqadi. Shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini va uning dunyo bilan munosabatini ifodalovchi fundamental tushunchalar qatoriga dunyoning tasviri tushunchasi kiradi. Olam tasviri – bu insonning barcha ma'naviy faoliyatidan o'sib chiqadigan dunyoning yaxlit tasviridir. U insonda borliqni qayta ko'rib chiqishga qaratilgan subyektiv-amaliy faoliyat jarayonida paydo bo'ladi. U dunyoni his qiladi, tafakkur qiladi, tushunadi, taniydi, talqin qiladi, aks ettiradi, unda yashaydi.

Shundan kelib chiqib, dunyo qiyofasi turli xil munosabat va dunyoqarash harakatlarida – atrofdagi olamda sodir bo'layotgan voqealarning yaxlit tajribasi aktlarida paydo bo'ladi. Mezon sifatida qabul qilingan asoslarga qarab, olam manzaralari tipologiyasi yaratilishi mumkin. Jumladan, bilim predmetiga qarab kattalar va bolalar tamaddunlashgan jamiyat dunyosi va olamning arxaik tasviri mavjud. Obyektga qarab dunyoning global va mahalliy (xususiy-ilmiy) suratlari farqlanadi. Olamning mukammal manzaralariga misol sifatida borliqning umumiyl-falsafiy, umumiyl-ilmiy, diniy manzaralari kiradi. Olamning sotsiologik, informatsion, jismoniy, badiiy tasvirlari esa mahalliy manzara sifatida namoyon bo'ladi.

Olamning hozirgi holatidagi ilmiy manzarasi idrok paradigmasi o'zgarib, tushuncha va nazariyalarning qayta ko'rib chiqilishi bilan doimo o'zgarib turadigan idealdir. Majoziy ma'noda, bu rassomning tugallangan tasviri emas, balki "harakatlanuvchi mozaika" bo'lib, uning bir-biriga bog'liq bo'limgan elementlarini turli xil kombinatsiyalarda qayta yig'ish mumkin. Har bir madaniyatda tez-tez qo'llaniladigan, frazeologik birliklar va maqollar tarkibiga kiruvchi kalit so'zlar mavjud. Binobarin, har bir o'ziga xos milliy til o'z so'zlovchilarining ongida iz qoldiradigan va dunyo haqidagi o'ziga xos manzarani shakllantiradigan tizimdir.

Demak, xalq ma'naviyatining asoslarini, uning tevarak-atrofdagi moddiy olamni idrok etishini aks ettiruvchi til milliy xususiyatlarning namoyon bo'lishining xarakterli ko'rsatkichidir. Madaniyat va til o'zaro bog'liq bo'lib,

milliy o‘ziga xoslikni aks ettiradi. Til – madaniyat sohalaridan biri bo‘lib, u muayyan jamiyat nima bilan shug‘ullanishi va nimani o‘ylashini bilish imkonini beradi hamda jamiyatning tafakkur tarzini ko‘rsatadi. Inson dunyoni o‘zi tegishli bo‘lgan jamiyatda umumiy bo‘lgan til me’yorlariga muvofiq tushunadi. Milliy madaniyatlardagi farqlar bevosita lisoniy farqlarga bog‘liq.

1.2-§. Madaniyat semiosferaning bir qismi sifatida

So‘nggi yillarda tilshunoslik o‘zining keng tadqiq doirasiga ega bo‘lib kelmoqda. Ularning tadqiqot obyektlari o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan tuzilmalar, birliklarni tashkil etadi. Lingvistikada turli belgilar tizimini o‘rganadigan alohida yo‘nalish semiotika deb ataladi. Semiotika o‘zaro kommunikatsiya jarayonlarini, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli axborotlarning ramziy timsollarini aks ettiradi.

Til, san’at, aksiologik birliklar, turli xil marosimlar, mifologiya, urf-odatlar o‘z kodlariga ega bo‘lgan umumiy ramziy tizim hisoblanadi. Ular yordamida madaniyatni aks ettiruvchi ma’nolar o‘ziga xos tarzda shifrlanadi. Ular madaniy kodlar deb ataladi. Ularni o‘rganish uchun ma’lum tilga tegishli bo‘lgan madaniy tizimni, shajarani aniqlash lozim bo‘ladi. Aytish joizki, madaniy kodlash jarayoni o‘ta murakkab sanaladi.

Semiotikaning asosiy birliklaridan biri semiosferadir. Shu o‘rinda madaniyat semiosferaning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi deyilar ekan, avvalo, mazkur tushunchaning mazmunini ochiqroq ifodalash ehtiyoji tug‘iladi.

Semiosfera – bu semiotik makon bo‘lib, mazmun jihatdan madaniyatga tenglashtiriladi. U til va madaniyat orasidagi aloqaning zaruriy shartlaridan biridir. So‘zlovchi va tinglovchi hamda ular o‘rtasidagi muloqot semiosferasiz mavjud bo‘lmaydi. Aytish mumkinki, har ikkalasi ham ma’lum darajada madaniy semiotik tajribaga ega bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Demak, til semiotik voqelikning xiralashgan chegaralari hamda bo‘shliqlarining jamlanmasi sanaladi. Xiralashgan chegara deyilganda biri uchun belgi ifodalagan xabar, boshqasi uchun xabar ham belgi ham

bo‘la olmaydi, masalan, xabar berilayotgan tilni bilmaslik natijasida ushbu holat yuzaga kelishi mumkin.

1980-yillarning oxirida taniqli olimlar adabiy, ijtimoiy va madaniy tadqiqotlarda keng qamrovli burilishlar sodir bo‘layotganini e’lon qilishdi³¹. 1991-yilda F.Djeymison zamon paradigmasi makon paradigmasisiga almashganini e’lon qilib, davomli makon burilishini modernizmdan postmodernizmga o‘tadigan burilish bilan bog‘ladi³².

Semiosferaning keng tadqiqi hamda ta’rifi Y.M.Lotman tomonidan berilgan bo‘lib, uning tadqiqotlarida mazkur tushuncha madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi lingvistik atama sifatida qaralgan. Y.M.Lotmannning semiosfera nazariyası “Веселенна́я разум” kitobining ikkinchi qismida taqdim etilgan bo‘lib, ikki paradigma o‘rtasidagi chegaralar konsepsiyasini o‘z ichiga oladi³³. Nisbatan oldingi, 1984-yildagi³⁴. “О семиосфера” esesi, boshqa tillarga tarjima qilinganiga qaramay³⁵, ingliz tilida faqat 2005-yilda nashr etildi. M.Fleysher uning asosiy g‘oyalarini batafsil bayon etgan³⁶.

Adabiyotning dastlabki makon interpretatsiyasini Y.M.Lotmannning 1965-yilgi “О понимании географического пространства в русских средневековых текстах”³⁷ maqolasida va keyin uning “Структура божественного текста” (1970-y.³⁸) asarida uchratish mumkin.

Y.M.Lotmannning semiosfera va adabiy makonlar haqidagi ishi dastlabki qat’iy struktural fazadan semiotikaning nisbatan o‘suvchan va qisman

³¹ Döring, J. and Thielmann, T. Spatial Turn: Das Raumparadigma in den Kultur- und Sozialwissenschaften. – Bielefeld: Transcript, 2008. – P. 34.

³² Jameson, F. Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism. – London: Verso, 1991. – P. 154.

³³ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P.150-390.

³⁴ Waldstein, M. The Soviet Empire of Signs: A History of the Tartu School of Semiotics. – Saarbrücken: VDM Müller, 2008. – P. 146.

³⁵ Cáceres Sánchez, M. Iuri M. Lotman y la escuela semiótica de Tartu-Moscú: Bibliografía en español, francés, inglés, italiano, portugués y alemán. – Signa: Revista de la Asociación Española de Semiótica. – 1995. – No 4. –P. 45-76.

³⁶ Fleischer, M. Die sowjetische Semiotik: Theoretische Grundlagen der Moskauer und Tartuer Schule. – Tübingen: Stauffenburg, 1989. – P.146-156.

³⁷ Лотман Ю.М. Статьи по семиотике культуры и искусства. – СПб.: Академический проект, 2002. – C. 382-408.

³⁸ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – C. 384.

poststruktural fazasiga izchil hududiy burilishni ifodalaydi³⁹. Ushbu burilish makoniy burilishda ustunlikka erishgan g‘arb madaniy tadqiqotlaridan mustaqil ravishda, ularga tayanmasdan sodir bo‘ldi. Avvaliga, olim madaniy tadqiqotlarning yangi paradigmasi doirasida unga kamroq e’tibor qaratdi. Semiotikaning Tartus maktabi asoschisi mashhurligi, ko‘p hollarda, uning strukturalistik paradigmalar doirasidagi dastlabki tadqiqotlari bilan chegaralanardi, natijada u G‘arbda, 1960-yil⁴⁰ oxirlarida mashhur bo‘ladi. A.Shenle va Dj.Shayn Lotmanning xalqaro obro‘yi uning strukturalistik semiotikani yoygani bilan bog‘liqligi, natijada uning keyingi ishlari o‘zlariga munosib bo‘lgan auditoriyani topmaganligi haqida yozishadi⁴¹. Shu munosabat bilan olimlar makoniy burilish paradigmasida ish olib borar ekanlar, madaniyatning poststrukturalistik modeliga Y.M.Lotman semiosferasi sifatida e’tibor qarata boshladilar⁴².

Y.M.Lotman “semiosfera” atamasini analogiya bo‘yicha va V.I.Vernadskiyning biosfera konsepsiyasini kengaytirish doirasida olib kirdi⁴³. Agar biosfera tirik materianing qo‘shilishi va organik yaxlitligini o‘zida mujassam etsa, shuningdek, hayot davomiyligi sharti bo‘lsa, semiosfera tillarning mavjudligi va faoliyati uchun zarur bo‘lgan semiotik makonni ifodalaydi. Bu “oldindan mavjud bo‘lgan va tillar bilan muntazam o‘zaro aloqada bo‘lgan” makondir⁴⁴.

“Semiosfera” Y.M.Lotman qalamiga mansub, tarkibida “semiotik hudud”, sarhadlarni tushunish” haqidagi boblar hamda semiosfera, o‘rta asrlarga oid rus matnlaridagi geografik hudud, Sankt-Peterburg simvolikasiga o‘xhash ramzlar bo‘lgan “Универсума разума” kitobining ikkinchi qismidir.

³⁹ Ebert, C. Kultursemiotik am Scheideweg: Leistungen und Grenzen des dualistischen Kulturmodells von Lotman / Uspenskij // Forum für osteuropäische Ideen- und Zeitgeschichte. –2002. – No 6(2). – P. 34-47.

⁴⁰ Kristeva J On Yury Lotman // PLMA: Publications of the Modern Language Association. – 1994. – No 109(3). – P.375–376.

⁴¹ Schönle A., Shine, J. Introduction. In: Schönle A (ed.) Lotman and Cultural Studies: Encounters and Extensions. – Madison: University of Wisconsin Press, 2006. –P. 13–14.

⁴² Hess-Lüttich, E.W.B. Spatial turn: on the concept of space in cultural geography and literary theory. Meta – carto – semiotics // Journal for Theoretical Cartography. – 2012. – No 5. – P. 19; Nöth, W. Yuri Lotman on metaphors and culture as self-referential semiospheres // Semiotica. –2006. – No 161. – P. 249–250.; Ruhe, C. La Cité des poètes: Interkulturalität und urbaner Raum. – Würzburg: Königshausen, 2004. – P. 10-33.

⁴³ Вернадский В.И. Биосфера. I-II. – Л.: Научное химико-техническое издательство. Научно-технический отдел В.С.Н.Х, 1926. – С. 628.

⁴⁴ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 178.

Mavzuning kengligi uning muqarrar ko‘p ma’noliligidan guvohlik beradi. Semiosfera xuddi Sankt-Peterburg kabi real jug‘rofiy tipologiyali konkret hudud bo‘lishi mumkin, biroq tipologiyasi afsonaning bosh qahramonlari, *qahramon*, *raqib*, *yordamchi*, *ota*, *o‘g‘il*, *qiz* va hokazo “sujet hududi” personajlaridan tarkib topgan majoziy hudud bo‘lishi ham mumkin.

“Semiosfera”, “semiotik makon” va “madaniyat” iboralari o‘zaro munosabatlarda keskin chegaraga ega emas. Bir tomondan olib qaraganda, madaniyatlar, semiotik makon va semiosferalar xuddi markazlar, periferiyalar, ichki va tashqi chegaralar singari bir xil tipologik tavsiflarga ega. Boshqa tarafdan esa “semiosfera madaniyat rivojining natijasi va shartidir”. Natijada, paydo bo‘lgan ikki ma’noliliklar analitik tafovutning yo‘qligi bilan bog‘liq emasligi, ular semiosferaning samorefleksivlik nazariyasida o‘z izohini topishi aniq bo‘ladi.

Y.M.Lotmanning semiotik makon sifatidagi madaniyat modeli kulturologiyadagi hududiy burilishning boshqa ko‘plab vakillari modellaridan farq qiladi. Keyingilari asosan qit’alar, manzaralar, shaharlar, adabiyotdagi, kartinalardagi, filmlardagi yoki xaritadagi qishloq yoki shahar hududlari singari real joy va makonni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan bir vaqtida, Y.M.Lotmanning semiosferasi nisbatan abstrakt va ko‘pincha jug‘rofiy jihatdan aniqlanmagan mental makonlarni o‘zida aks ettiradi. Shu tariqa, o‘quvchida Lotmanning semiosferasi “majoziy makon”⁴⁵ degan tasavvur uyg‘onadi, shunga qaramay, muallif quyidagilarni ta’kidlar ekan, o‘z semiosfera konsepsiyasini majoziy izohlashni rad etadi:

“Semiosfera makoni mavhum xarakterga ega. Biroq, bu makon tushunchasi aslo ushbu o‘rinda majoziy ma’noda qo‘llanganligini bildirmaydi. Biz belgilarga ega, yopiq makonga mansub bo‘lgan o‘ziga xos sferani nazarda tutyapmiz. Faqat ana shunday makondagina aloqa jarayonlari va yangi axborotlarni yaratish mumkin bo‘ladi”⁴⁶.

⁴⁵ Nöth, W. Yuri Lotman on metaphors and culture as self-referential semiospheres // Semiotica. –2006. – No 161. – P. 151.

⁴⁶ Лотман Ю.М. О семиосфере // Труды по знаковым системам. – 1984. – № 17. – С. 18.

Ehtimol, Y.M.Lotman modellar va majozlar o‘rtasidan aniq chegara o‘tkazib, semiosferaning semiotik hududi – “oddiy majoz” emas, balki model (Tartus-Moskva semiotika maktabining kalit iborasi) ekanligi haqidagi tezisni asoslashni rejalashtirgan bo‘lsa kerak. Y.M.Lotman buning teskarisini ta’kidlaganiga qaramay, uning semiosferaga bergen ta’rifida ko‘plab hududiy majozlar mavjud. Semiosfera – bu biz gapirganda yoki muloqot qilganda “g‘arq bo‘ladigan” makondir⁴⁷. Ko‘pincha, jug‘rofiy nomlanmagan chegaralar bilan o‘ralgan makon nazarda tutiladi, zero, ushbu sarhad do‘srlar va dushmanlar, boylar va kambag‘allar, shuningdek, ertakdagi uylar, o‘rmonlar o‘rtasidan o‘tgan xayoliy chegara bo‘lishi mumkin⁴⁸. Semiosfera ichkarisidagi joy jug‘rofiy makondagi madaniy qadriyatlarning majoziy aks tasviri natijasi bo‘ladi. Joy va yo‘nalishlari axloqiy qadriyatlarga to‘la rus o‘rta asr adabiyoti buning tipik namunasidir. O‘ng va Sharq odillikni, duoni va tabarruklikni bildirsa, chap va G‘arb gunoh, axloqsizlik va azob orqali eslanadi⁴⁹. Shu munosabat bilan “axloqiy qadriyat va mahalliylik tushunchalari bir butun bo‘lib qo‘shilib ketadi, ya’ni joy axloqiy ahamiyat, axloq esa mahalliy ahamiyat kasb etadi, jug‘rofiya o‘ziga xos etikaga aylanadi”⁵⁰.

Semiosfera xayolot sultanati, ertakmonand koinot, milliy madaniyat, adabiyot tarixidagi muayyan bir davr va yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Y.M.Lotman Dantening “Ilohiy komediya” ertagini, Gogol nasri va M.Bulgakovning “Usta va Margarita” asarlarini misol tariqasida keltiradi. Y.M.Lotman semiosferada bayon etgan markaz va markazdan ayro joylar (periferiya), o‘ng va chap yoxud yuqorigi va pastki singari hududiy bo‘laklanishlar makонни anglash uchun zarur sanalgan joylar-lokuslardir. Unda mazmunan qarama-qarshilik shaklidagi ijtimoiy, madaniy yoki diniy hayotdagi fundamental dunyoviy qadriyatlар teng darajada o‘z aksini topadi. “Baland-past”, “chap-o‘ng”, “yaqin-yiroq”, “ochiq-yopiq”,

⁴⁷ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 182.

⁴⁸ Лотман Ю.М. Миф – имя – культура // Труды по знаковым системам. – 1973. – № 6. – С. 289.

⁴⁹ Shukman, A. Literature and Semiotics: A Study of the Writings of Yu. M. Lotman. – Amsterdam: North Holland Publications, 1977. – P. 88.

⁵⁰ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 179.

“chegaralangan-chegaralanmagan” va “to‘xtab-to‘xtab-beto‘xtov” tushunchalari makondan mutlaq holi madaniyat modelini yaratish uchun material bo‘ladi va “qadrli-qadrsiz”, “yaxshi-yomon”, “o‘zimizniki-begona”, “amalga oshadigan-amalga oshmaydigan”, “o‘limga mahkum-abadiy” va hokazo deb atala boshlandi⁵¹. Y.M.Lotman madaniyat to‘g‘risida gapirib, mana shunday iboralarni ishlatsa, o‘zining misollari hatto Yevropa adabiyotining konkret davrlaridan olingan bo‘lsada, u hamisha yaxlit madaniyatni nazarda tutadi. Aniq madaniy jug‘rofiy manzara o‘rniga u, ko‘pincha, ijtimoiy-madaniy hayotning majoziy makon bilan sharhlanadigan umumiyligi modelini tasavvur etadi. O‘zbek badiiy adabiyotida ham shunday o‘rinlar mavjud: *Bizning mahallamiz kichkinagina bo‘lsa ham gavjum. Karim qori degan gazlamafurush, Yoqub qovoq degan mumfurush, Abdullaxo ‘ja degan bo‘yoqfurush boylarni hisobga olmaganda, qolganlari bosmaxona va qandolatxona (konditerskiy) ishchilari edi. Mahallamizda ikkita machit, bitta choyxona, ikkita baqqollik bor. Samovarchi — Qodir aka degan yalangto ‘sh kishi. Machitning bittasi Tikonli mozorda, ikkinchisi — Yettimachit — Qo‘rg‘ontagida. Har ikki machitning ham yonida maktab bor. Mahalla imomlari o‘z navbatida o‘qituvchi. Tikonli mozor machitida Shamsi domla muallim, Qo‘rg‘ontagida Hasanboy domla o‘qitadi.*⁵² Yozuvchi G‘afur G‘ulomning mashhur qahramoni Qoravoy tilidan keltirilgan parchada umumiyligi makondan alohida ajralib chiqqan madaniyatning tasviri keltirilgan. Aniq madaniy jug‘rofiy manzarani berish barobarida ijtimoiy-madaniy hayotning umumiyligi modelini ham ifodalab bergen.

Y.M.Lotmanning fikriga ko‘ra madaniyatdagi hududiy o‘zini tasvirlash universal belgidir: “O‘z madaniy hududiga cho‘mgan insoniyat hamisha atrofida tashkiliy-hududiy sferani barpo etadi, bu sfera tarkibida g‘oyani ham, semiotik modelni ham, odamlarning ijodiy faoliyatini ham jamlaydi”⁵³. Y.M.Lotman ko‘rsatib o‘tadiki, madaniy tizimlar namoyishidagi hududiy modellarning universalligi insondagi anglash hududiy mental modelining universalligidan

⁵¹ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 218.

⁵² G‘afur G‘ulom. Shum bola./ Qissa. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 10.

⁵³ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 203.

dalolatdir: “Insoniy vizual idrokning o‘ziga xosligi shundaki, ko‘rinadigan makoniy obyektlar, aksariyat hollarda, so‘z belgilarining denotati, ya’ni, ifodalovchi predmeti bo‘lib xizmat qiladi.

Qandaydir o‘ta umumlashgan, har qanday konkret belgilardan holi bo‘lgan biror tushunchani tasavvur etib, uning belgilarini o‘zimiz uchun aniqlab olishga urinib ko‘ramiz. Ko‘pchilik odamlar uchun bu chizgilar hududiy xarakter kasb etishiga ishonch hosil etish qiyin bo‘lmaydi: “cheksizlik” – bu qandaydir o‘ta ulkan narsaning shunchaki ma’nodoshi. Umumiylit tushunchasining o‘zi mavhum-hududiy xarakterga ega”⁵⁴.

Xususan, narrativ (qissaxonlik) adabiyotida adabiy hudud sujetlardan iborat. “Hududiy munosabatlar tizimi, xayoliy mavzu (topos) strukturasi yuzaga kelib, ular matndagi boshqa, bevosita munosabatlar tili sifatida maydonga chiqadi” va o‘zлari paydo etgan voqeadiagi bosh qahramonlar hamda ularning agentlari joyining o‘zgarishiga olib keladigan harakat sifatida taqdim etiladi: “Matndagi voqea shaxslarning semantik maydon chegaralari orqali aralashuvlidir”⁵⁵. Shunday qilib, semiosfera semiotik makon, universumning ikonik modelidir: “Shu tariqa matnning hududiy strukturasi universumning hududiy strukturasiga aylanadi, matn ichidagi elementlarning ichki sintagmatikasi esa hududiy modellashtirish tili bo‘lib qoladi”⁵⁶.

Madaniyatning hududiy konsepsiyasini harfma-harf izohlash kerakligi haqidagi Y.M.Lotman tezisi haqiqatday tuyuladi, qachonki, olimning shaxsiy intellektual tarjimayi holi va sho‘rolar saltanati bir chetidagi, U Tartu universitetidagi karyerasini hisobga olsak. Madaniyatning markazini aniq jug‘rofiy ma’noda belgilash mumkinligi haqidagi qarash ham Yevropa, Moskva, Sankt-Peterburg va Londondagi tarixiy-madaniy markazlarni qarab chiqilganda asoslanganday ko‘rinadi, biroq markaz modeli jug‘rofiy real makon sifatida qachondir semiosferada XVIII va XIX asrlardagi Germaniya yoki ko‘p sonli

⁵⁴ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 219.

⁵⁵ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 200.

⁵⁶ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 215.

jug‘rofiy madaniy markazlari bo‘lgan Italiyaga nisbatan qo‘llanilishi dargumon. Gyote va Shiller, shubhasiz, nemis madaniy hayoti markazlarida, XIX asrda Veymarda va Yenda yashaganlari yo‘q va bunday markaz jug‘rofiy jihatdan qayerda joylashganini aniq belgilash mushkul. Zamonaviy globallashuv davrida Y.M.Lotmanning madaniy markazlar nomajoziyligi to‘g‘risidagi nazariyasi butunlay haqiqatdan uzoq bo‘lib qoldi. Bugungi semiosferalar endi yopiq tizimlarga, hatto majoziy markazlarga ham e’tibor qaratmaydi, shuningdek, semiosferalar chegaralari harakatchan, Z.Bauman iborasi bilan aytganda, “suyuq”⁵⁷ bo‘lib qoldi.

Y.M.Lotman o‘z ishida yangi mediaga ham e’tibor qaratdi, shu bois u yaratgan madaniyatning semiotik nazariyasi kibermakon va veb-madaniyat tadqiqoti uchun asosni shakllantirdi, zero, u XXI asrning yangi mediasini tushunish uchun foydali tadbirlarni taklif etadi. Shubhasiz, kibermakon o‘zining aloqadorlik, harakatchanlik va har yerda hozirlik xarakteristikasi bilan, semiosfera sanaladi⁵⁸. Biroq Y.M.Lotman o‘z tadqiqotidagi adabiy va madaniy matnlarda semiosferaga mansub barcha xususiyatlarga egami, unda markaz, chekka joylar va chegara mavjudmi, bu jiddiy simmetrik buzilishlar hududimi – ana shularni tushunish muhimdir. I.Ibrus o‘zining global tarmoqqa oid semiotik tadqiqotida ta’kidlashicha, “tarmoq semiosferasi”, “hukmronlik assimetriyasi” hamda “markaz va periferiya dinamikasi” bilan belgilanadigan makondir⁵⁹. Ushbu semiotik makonning markazida olim “birgalikda veb-kontentning shaklini belgilaydigan” qudratli “infratuzilma vositasi”ni ko‘radi. Mazkur pozitsiya to‘la ehtimolga yaqin, ammo agar nufuzli provayderlar bu tarmoqning markazini barpo etsalar, uning chekka hududlardagi agentlarini bilish, shuningdek, nisbatan mavqeyi pastroq boshqa provayderlarni va ularning xizmatidan foydalanadigan mijozlarni bilish muhimdir. Agar nufuzli provayderlarni markaz sifatida qaraydigan bo‘lsak, unda chekka hududlardagi provayderlarni kibersemiosferaning “qaynoq nuqtalari” deb

⁵⁷ Bauman, Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – P. 87.

⁵⁸ Santaella, L. A ecologia pluralista da comunicação: conectividade, mobilidade, ubiqüidade. – São Paulo: Paulus, 2010. – P. 152.

⁵⁹ Ibrus, I. Evolutionary Dynamics of New Media Forms: The Case of the Open Mobile Web. PhD Thesis, London School of Economics and Political Science, 2010. –P. 90.

qabul qilish mumkin. Ular istiqbolda “semiosferaning yangi hukmron yadrosi sifatida paydo bo‘lishi mumkin, natijada, biz jamiyatdagi hokimiyat assimetriyasida muntazam o‘zgarishlar ro‘y beruvchi tizimga ega bo‘lamiz, bu esa Y.M.Lotmanning “madaniyat periferiyasi markaz bilan aralashadi, markaz esa chekka hududlarga siqiladi” degan bashoratiga to‘la mos keladi⁶⁰.

Agar provayderlar o‘rtasidagi chegara ontogenistik iqtisodiy manfaatlarni himoya qiluvchi qonunlar va shartnomalar bilan shartlab qo‘yilgan bo‘lsa, Internet tarmog‘i foydalanuvchilar orasidagi chegara bir maromga solinmagan bo‘ladi. Foydalanuvchilarni bilim, axborot va ko‘ngilxushliklar markazining soxta hukmronligiga bo‘ysundirish oson emas, zero, ularning o‘zlari bilim va ijodning ishlab chiqaruvchilaridirlar, shu ma’noda internet jamoaviy bilimning o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi hududi, jamoaviy ong ishlab chiqaruvchi nomarkazlashgan va avtonom agentdir⁶¹. Y.M. Lotman fikriga asoslanib, shunday xulosaga kelamizki, veb-makon boshqa semiotik hududlar bilan “ko‘p sonli chegaralar kesishuvi” xarakteristikasini baham ko‘radi, bu –ko‘plab ko‘psonli chegaralar va periferiyalar tarkibida ko‘plab markazlar mavjud bo‘ladi⁶². Lekin kibermadaniyat semiosferasi, xuddi o‘rashga intilayotgan hudud singari, o‘tmishga aylandi⁶³. Bu yangi semiotik ssenariy Y.M.Lotmanning markazli, periferiyali va chegarali semiotik makon borasidagi konversiyasi tipografiyasidan farqlanadi.

Biroq Y.M.Lotman semiosferaga taalluqli deb bilgan semiotik dinamika kibermakondagi semiozisga ham xos bo‘lgan dinamikadir. Boshqa har qanday semiosfera⁶⁴ bilan o‘xshashligi bois kibermakon o‘z-o‘zini tashkil qilish, o‘z-o‘zini yozish va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan semiotik sferadir. Ular o‘z-o‘zini muntazam transformatsiya qilish jarayonida boshqa semiosferalar bilan to‘xtovsiz almashinib turadi, bular esa belgilar va madaniyatning qonuniy oshishiga olib keladi.

⁶⁰ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 141.

⁶¹ Santaella, L. Linguagens líquidas na era da mobilidade. – São Paulo: Paulus, 2007. – P. 182.

⁶² Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 143.

⁶³ Santaella, L. Linguagens líquidas na era da mobilidade. – São Paulo: Paulus, 2007. – P. 184.

⁶⁴ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 148.

1990-yilda Y.M.Lotman semiosferaning xususiyatini ta’riflab aytgan so‘zlarni bugun kibermadaniyat nazariyasi, kibermakonda sodir bo‘layotgan hodisalarining dohiyona sharhi deyish mumkin. “Semiosfera energiyasi xuddi quyosh kabi alanga oladi, faollik o‘choqlari turli joylarda, chuqurlikda va yuzada, o‘zining ulkan quvvati bilan nisbatan tinch hududlarni nurlantirib, qaynaydi. Biroq quyosh energiyasidan farqli o‘laroq, semiosfera energiyasi axborot, fikr energiyasidir”⁶⁵.

Shu tariqa, Y.M.Lotman taklif etgan nazariyaga ko‘ra, semiosfera – madaniy universumning “markaz-chekka hudud” munosabatlari tarqalgan semiotik makonning alohida majmuaviy ierarxiyasidir. Madaniyat sotsiumdagi “matnlar spektri”ni nazarda tutadi. Semiosfera mifologiyani, ilmiy taqdimotni, badiiy obrazlar va kundalik hayotni o‘z ichiga oladi. U to‘plangan madaniy merosni avloddan avlodga yetkazish va uni zamonaviy haqiqatlarni hisobga olgan holda dolzarblashtirish imkonini beradi. Madaniyat semiotikasi madaniy merosiylilik mexanizmlarini belgilash, tillarning shartlilik-ramziylik xususiyatini tushunish va shu asosda madaniyatlararo aloqani rivojlantirishga imkon yaratadi.

Fikrlarni xulosalagan holda aytish mumkinki, semiosfera Y.M.Lotman tomonidan fanga kiritilgan tildagi aloqalarning mavjudligini ta’minlab beruvchi makon hisoblanadi. Mazmuniy bo‘shliq tilda ma’lum to‘plam shaklida namoyon bo‘ladi. Demak, semiotik an’anaga asoslangan semiosfera XIX asrda paydo bo‘lgan, har qanday semiotik tizimning asosi hisoblangan belgini muhim element deb biladigan jarayondir. Belgilar esa inson ongida madaniy xoslangan tarzda paydo bo‘ladi. Inson miyasi atrofda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisa hamda jarayonlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qiladi, songra analiz-sintez qilib, uni idrok etadi. Mazkur jarayondan hosil bo‘lgan xulosa bilim hisoblanadi. Fan tilida kognitsiya deb ataladigan jarayon ayni olamni idrok qilish jarayonidan olingan bilimlar majmuidir. Har bir bilim madaniylikka asoslanadi. Til belgilar tizimidan iborat ekan, ushbu belgilar semiosfera shaklida aktuallashadi. Bundan kelib chiqib semiosfera madaniyatni o‘z tarkibiga qamrab oladi deyish mumkin.


⁶⁵ Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 145.

1.3-§. “Til” va “madaniyat” tushunchalarining mutanosibligi

Ma’lumki, til nutqning eng muhim elementi sifatida insoniyat jamiyatini tomonidan to‘plangan tajriba va bilimlarni keyingi kelajak avlodga yetkazish sifatida eng katta ijtimoiy vazifani bajaradigan hodisa sanaladi. Til madaniyat shakli sifatida fikrlash natijalari va madaniy qadriyatlarni zamon va makonda abadiylashtiradi, ular doimo bir-birini taqozo qiladi, o‘zaro mavjudlik va rivojlanishga yordam beradi. Fikrlash faqat insonga xosdir. U odamlarning mehnati va nutq faoliyati bilan birgalikda mavjud. Fikrlash nutq orqali namoyon bo‘ladi va uning natijasi sifatida tilda kodlanadi.

Til millat ruhining ko‘zgusidir. U san’at, adabiyot, tarix, urf-odatlar, dunyoqarash, intilishlar, millatning vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘zida aks ettiradi. Har bir so‘z hamda uning har qanday shakli fikrlash va his qilish natijasidir. Til yordamida Vatan va xalqning o‘ziga xos xususiyatlari ifodalanadi. Ona tilini hurmat qilish va uning bebaho imkoniyatlaridan munosib foydalanish, aniq va samarali so‘zlash hamda yozish qobiliyati, nutq savodxonligiga erishish jamiyatda birinchi o‘rinda turadi.

Til bir vaqtning o‘zida ma’lum xalqqa tegishli bo‘lgan ko‘plab unsurlarni o‘zida aks ettiradi. Bu orqali shu xalqning madaniy turmush tarzi, insonlarning xarakter-xususiyatlari hamda shu millatga tegishli qadriyatlarni ham ochib beradi.



Madaniyat tushunchasi ham o‘z navbatida ko‘plab jamiyatshunoslar, lingvistlar, psixologlar tomonidan tez-tez tilga olinadigan hodisalardan biri bo‘lib, til orqali yuzaga chiqadi, til esa jamiyat madaniyatini idrok etish vazifasi bilan xarakterlanadi. Antropologiya sohasida madaniyat, lingvistikada til ramzlar tizimini tashkil etadi. Ular orqali olamni bilish, tashkil etish, aqliy tuzilish xususiyatlari o‘zlashtiriladi. Antropologik jihatdan madaniyat to‘rt xil jihatdan talqin qilinadi:

1-jadval

Tushunchalar	Aloqalar	Qadriyatlar	Qoidalar
<p>Madaniyat, asosan, til orqali namoyon bo‘ladi.</p> <p>Ba’zan madaniyat yordamida kishilar nutqini soddalashtirish mumkin bo‘ladi. O‘zbekona madaniyatda birgina so‘z bir qancha tushunchalarni ifodalashi mumki, masalan, <i>aka</i> so‘zi bir vaqtning o‘zida tug‘ishgan akaga, otaning ukasiga, otaga, qo‘shniga, hamkasbga, xullas, o‘zidan Yoshi katta erkak kishiga nisbatan qo‘llaniladi. Boshqa tillarda bunday umumiylitka ega bo‘lgan tushuncha mavjud</p>	<p>Madaniyatlar xalqlararo farqlanadi, biroq zamon va nuqtayi nazaridan ayrim inkor qilinmaydigan tushunchalar-da kesishadi.</p>	<p>Barcha mavjud madaniyatlar o‘ziga xos qadriyatlar tuzilmasidan iborat. Ularsiz madaniyatni tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbek xalqi milliy taomlari, to‘yhashamlari, o‘zaro hurmat atrofida aylanishi kabi.</p>	<p>Har bir jamiyatning o‘ziga xos qonun-qoidalari bo‘ladi. Ular kishilar xattiharakatlarini ma’lum bir madaniyat qadriyatlariga mos tarzda tartibga soladi. Masalan, bizning Qonunchiligimizda o‘lim jazosi ta’qilangan. Bu esa qonunlarning insonparvarlik g‘oyalari asosida tuzilganligidan dalolat beradi.</p>

bo‘lmasligi ham mumkin.		ega.	
-------------------------	--	------	--

Demak, til madaniyatni o‘zida aks ettirar ekan, ular ham lingvistik ham sotsiologik kategoriya sifatida mushtarak tarzda tadqiq qilib kelinmoqda. Quyida ularga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Til inson madaniy hayotining tashqi qismi bo‘lmish o‘zaro munosabatlar muammolarini tavsiflaydi, shu bois XIX asrdan boshlab (I.Grimm, R.Raek, V.fon Gumboldt, A.A.Potebnya) va hozirga qadar til va madaniyatning o‘zaro munosabati lingvistikadagi asosiy markazlardan biri hisoblanadi⁶⁶.

Til va madaniyatning o‘zaro mutanosibligini o‘rganishga bo‘lgan ilk urinishlar V.fon Gumboldt ishlarida (1985-y.) amalga oshirilgan edi. Olimning konsepsiyasida til va madaniyatga doir asosiy tamoyillar quyidagicha izohlanadi:

- 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda aks etadi;
- 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda, dunyoga o‘zgacha qarash vositasida namoyon bo‘ladi, dunyo manzarasining ichki spetsifikasi har bir tilga xosdir;
- 3) til “xalqning ruhi”ni, uning madaniyatini ifodalashdir;
- 4) til inson va uni o‘rab turuvchi dunyo o‘rtasidagi vositachi halqadir⁶⁷.

V.fon Gumboldt konsepsiysi A.A.Potebnyaning “Мысль и язык”⁶⁸, shuningdek, Sh.Balli, Z.Vandrizi, Boduen de Kurtene, R.O.Yakobson va boshqa tadqiqotchilar asarlarida o‘zining go‘zal talqinini topgan.

XIX asrning eng yaxshi bilimdonlari (V.fon Gumboldt, A.A.Potebnya) tilni ma’naviy kuch sifatida talqin qilishgan. Til – insonni o‘rab turgan shunday bir borliqliki, usiz va uning ishtirokisiz biz yashay olmaymiz. V.fon Gumboldt yozganidek: “Til – tashqi dunyo va inson ichki olami o‘rtasida yotuvchi boshqa bir dunyodir”. Bundan kelib chiqadiki, inson umrguzaronlik qiladigan muhit o‘laroq,

⁶⁶ Попкова Е.А. «Культура-язык» vs «язык-культура»: к проблеме теоретического рассмотрения понятий // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 5-1. – С. 149.

⁶⁷ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 73-74.

⁶⁸ Потебня А.А. Слово и миф. М.: Правда, 1989 – С. 320.

til obyektiv borliq sifatida undan tashqarida yashay olmaydi, til uning o‘zida, tafakkurida, xotirasida yashaydi, u fikrning har bir harakati, har bir olijanob rol bilan barobar o‘z ko‘rinishini o‘zgartiradi⁶⁹.

E.Sapir va B.Uorf maktabi hamda neogumboltchilar maktabi taklif etgan boshqa yondashuv doirasida mazkur muammoni tadqiq etishning lingvistik nisbiyligi gipotezasi mavjud. Gipoteza asosida odamlar dunyoni boshqacha, o‘z ona tillari prizmasi orqali ko‘radilar degan ishonch yotadi. Uning tarafdorlari uchun real dunyo tilda qanchalik aks etgan bo‘lsa, shunchalik mavjud, biroq har qaysi til reallikni faqat o‘ziga xos usulda aks ettirsa, unda tillar “olamning lisoniy manzarasi” bilan farqlanadilar⁷⁰.

E.Sapir va B.Uorf bu ma’lumotlarni ranglarning obyektiv, tabiiy ravishda aniqlangan haqiqat segmentlari emasligini ko‘rsatadigan tarzda izohladilar. Boshqacha qilib aytganda, biz ko‘rgan ranglar madaniyatimiz bizni ko‘rishga tayyorlaydigan narsalar bilan oldindan belgilanadi. Sapir-Uorf gipotezasini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanilgan bu misol 1960-yillarda obyektiv sinovdan o‘tgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, olimlar haddan tashqari uzoqqa ketishgan, chunki barcha oddiy odamlar, rang terminologiyasidagi farqlarga qaramay, bir tildan ikkinchisiga o‘tishda rangni bir xil hissiy idrok etishadi. Ko‘zlarimiz fiziologiyasi deyarli bir xil. Butun dunyodagi odamlar ranglarning nozik gradatsiyalarini ko‘rishlari va ko‘rinadigan yorug‘lik spektrini bo‘lishning boshqa usullarini tushunishlari mumkin. Biroq jamiyatning iqtisodiyoti va texnologiyasi murakkablashgani sayin, rang atamalari soni ham ortadi. Boshqacha qilib aytganda, ko‘rinadigan yorug‘lik spektri ko‘proq toifalarga bo‘linadi. Atrof-muhit o‘zgarganda, madaniyat va til, odatda, uni tasvirlash uchun yangi atamalarni yaratish orqali reaksiyaga kirishadi. Sepir-Uorf gipotezasida quyidagi asosiy qoidalar ajratiladi: 1) til unda so‘zlashuvchi kishilarning fikrlash tarzini belgilaydi; 2) real dunyoni bilish yo‘li odamlarning qaysi tilda fikr yuritishiga bog‘liq. Inson o‘zi gapiradigan tilga mos ravishda olam haqidagi individual tasavvurini

⁶⁹ Гумбольдт В. Избранные труды по языкоznанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 102.

⁷⁰ Лысак М.С. Гипотеза Сепира – Уорфа: история, суть и влияние на науку // Молодой ученый. – № 40 (330). – С. 242.

shakllantiradi, atrof olamdagи ba'zi hodisalar va ularning turlarini ajratib ko'rsatadi, ular aksiomatik bo'lgani uchun emas, aksincha, olam insonga kaleydoskop sifatida ko'rindi. Uning ongida tartibga solinishi kerak bo'lgan taassurotlar oqimi, ya'ni til tizimi uning ongida saqlanadi. Inson dunyoni qismlarga ajratadi, uni tushunchalarda tartibga soladi va qadriyatlarni o'ziga xos tarzda taqsimlaydi, chunki u, asosan, o'zi gapiradigan jamiyatda qabul qilingan ma'lum bir tartibning ishtirokchisidir. Ushbu tartib til jamoalarida amal qiladi va tilning modellar tizimiga mustahkamlangan.

Mazkur gipoteza L.Veysgerberning keyingi asarlaridagi qayta ishlashlarda ham qo'llab-quvvatlandi, uning konsepsiyasiga ko'ra til obyektiv voqelik va ong o'rtasidagi "oraliq dunyo" bo'lishdan to'xtaydi. Uning fikricha, til ma'naviy hayotning barcha sohalarida yaratuvchi kuch sifatida harakat qiladi⁷¹. Qator mualliflarning tadqiqotlarida lingvistik nisbiylik nazariyasi zamonaviy dolzarb ohang oldi. Eng avvalo, gap D.Olfrd, J.Kerrols, D.Xayms va boshqa mualliflarning Sepir-Uorf nazariyasi konsepsiyasini sezilarli to'ldiradigan ishlari haqida boryapti. Xususan, tillarning funksional nisbiyligiga doir yana bir uslubni kiritdiki, unga ko'ra tillar orasidagi farq ularning kommunikativ faoliyatlaridadir⁷². Sepir-Uorf gipotezasini D.Dodd, G.V.Kolshanskiy, R.M.Uayt, R.M.Frumkina va E.Xollenshteynlar salbiy baholaganlar.

Og'zaki illyuziyalar ijtimoiy stereotiplarni yaratishda katta rol o'ynaydi, masalan, milliy xurofotlarni shakllantiradigan "nemislar", "chukchilar", "kavkazliklar" milliy stereotiplari. Odamlar ongiga dunyoni to'g'ri rangga bo'yaydigan og'zaki shtamplar kiritilmoqda: yorqin kelajak, xalqlarning buzilmas do'stligi, buyuk yutuqlar va boshqalar. Ijtimoiy va madaniy munosabatlarni nazariy jihatdan aniqlashning ko'plab usullari mavjud. Biz ko'rib chiqayotgan kontekstda biz faqat butun ijtimoiy hayotga madaniyat prizmasi orqali qarash mumkinligini ta'kidlaymiz. Ijtimoiy hayotning tahlili, odatda, faoliyat, muassasa va tuzilmalarning munosabat, vaqt va fazoviy jihatlari bilan bog'liq bo'lsa,

⁷¹ Вайсгербер Л. Родной язык и формирование духа. – М.: Наука, 1993. С. 78.

⁷² Головко Ж.С. Культура и язык: аспекты взаимодействия // Научные ведомости. – 2008. – № 5 (52). – С. 174.

madaniy hayot tahlili an'anaviy ravishda turli voqeliklarning ma'nolari va tasvirlarini ishlab chiqarish va takrorlash bilan bog'liq. Bu ikki jihatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Barcha ijtimoiy hayot ma'noga ega hamda ma'nolarning barcha almashinushi va muhokamalari o'zgaruvchan ijtimoiy tuzilmalar, hokimiyat munosabatlariga kiritilgan⁷³.

Agar tilni mazmunni shakllantiruvchi vosita sifatida qaraydigan bo'lsak, unda yuqorida taqdim etilgan ijtimoiy-lingvistik yondashuvdan sezilarli farq qiladigan intellektual an'analar yuzaga chiqadi. Konkret tillar va muayyan madaniyatlar o'rtasidagi qalin aloqa, nemis milliy romantizmi davrini ham hisobga olgan holda, XVIII asr oxirida Yevropadagi milliy qurilish jarayonining fundamental mavzusi edilar. Xorijiy tillarning tadqiqotchilari XIX asrdan boshlab ushbu fikrning ulkan ta'siri ostida bo'ldilar va endigina milliy paradigmaga shubha bilan qarab, til, adabiyot va madaniyatni o'rganishni konseptuallizatsiyalashning muqobil usullarini izlay boshlashmoqda⁷⁴.

Ayni zamonda til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni qarab chiqishning tipik va oddiy uslubi – ushbu munosabatlar murakkab ekanligini, bu ko'p ma'noli masala yechimi bilan bog'liq mashaqqatlarni chuqurlashtirishini tasdiqlashdir. Ushbu masalaga doir fikrlarni shakllantiruvchi olimlarni bir-biriga zid bo'lgan ikki qarashdan birini yoqlovchilar sifatida tavsiflash mumkin. Bu borada A.Fliyer quyidagi fikrlarni keltirganligining guvohi bo'lamiz. Til va madaniyat bo'linmasdir hamda ular o'zaro bog'liq holda o'rganilishi kerak. Til va madaniyat alohida qarab chiqilishi lozim⁷⁵.

Birinchi pozitsiya 1980-yillardan boshlab tilshunoslikdagi madaniy burilish bilan bog'liq va lingvistik antropologiya, tarjimashunoslik va madaniyatlararo aloqalarni o'rganish kabi tadqiqot fanlarida turli shakllarda qo'llab-quvvatlanadi. Bu, albatta, turli mamlakatlarda keng tarqalgan, ammo Yevropada milliy davlatlarning yirik ittifoqqa siyosiy integratsiyalashuvining zamonaviy jarayonida

⁷³ Севрюгина Н.И. Культура и социальное взаимодействие // Интерактивная наука. – 2021. – № 4. – С. 22.

⁷⁴ Алексеев Д.И. История лингвистических учений. Лекции по спецкурсу. – Самара: Изд-во Самарского университета, 1998. – С. 61.

⁷⁵ Флиер А.Я. Культурология как система познания // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. – 2019. – №2 (46). – С. 49.

– oxirgi o‘rinda emas. Ikkinci pozitsiya ko‘proq ingliz tilini xalqaro til sifatida o‘rganish bilan bog‘liq. Bunday holda, tillar va ayniqsa, ingliz tili, asosan, dunyoning istalgan nuqtasida istalgan mavzu sohasida foydalanishi mumkin bo‘lgan moslashuvchan aloqa vositalari sifatida qaralishi kerakligi ta’kidlanadi⁷⁶.

Shunday bo‘lsa-da, bu yondashuvlarning birortasi haqiqatga mos kelmaydi. Birinchi yondashuvga ko‘ra til madaniyat bilan bog‘liq va u til, xalq, madaniyat, tarix, zehniyat va yerning yopiq koinoti haqidagi konsepsiyaga yaqinroq. Bu yondashuv tilga bo‘lgan ijtimoiy va transmilliy qarashlarga butunlay ziddir. Ikkinci yondashuvga ko‘ra til madaniy jihatdan neytraldir. Til kod sifatida qaraladi va u til avtonomligining klassik strukturalistik konsepsiyasini rekonstruksiya qilishga yaqinroq. Biroq, ta’kidlash joizki, birorta til ham madaniy tomondan xoli emas. Barcha tabiiy tillar (ularning tashuvchilari) doimiy ravishda madaniyat (fikrlar)ni hosil qiladi va qayta ishlab chiqadi.

Ko‘plab odamlar uchun til nafaqat madaniy vosita, balki madaniyatning bir qismi ham hisoblanadi. Immigrantlar aksariyat hollarda o‘zlarining oldingi odatlarini saqlab qolib, garchi qatnashchilarning barchasi o‘zlar kelgan yurt tilida erkin so‘zlashsa-da, o‘z milliy diasporalarida, o‘z milliy tillarida so‘zlashadilar. Bu - immigrantlar o‘zida nafaqat odat va an’analarni, balki tilni ham jo qilgan xususiy merosni asrash uchun jon kuydirishlari bois sodir bo‘ladi.

Bu hol ko‘plab yahudiy jamoalarida ham, ayniqsa, keksalar o‘rtasida kuzatiladi, “ular odatda idish tilida gapirishadi, chunki, u yahudiy madaniyatining bir qismi sifatida qaraladi”⁷⁷.

Tillardagi tafovutlar, ko‘pincha, boshqa madaniyatning belgisi sifatida qaraladi va qo‘shti xalqlar yoki bir xalqning turli guruhlari o‘rtasida tez-tez kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, bu hol Kanadada, Kvebekdag‘i fransuz tilli aholining inglizcha gapiradigan boshqa ko‘plab aholi bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bu kabi ixtiloflar ko‘plab qabilalararo urushlar

⁷⁶ Савушкина Л.В. Межкультурная коммуникация как предмет исследования в современной системе образования // ИТС. – 2012. – №4. – С. 88.

⁷⁷ Хашимова Г.А. Особенности социокультурного развития народов Европы // Научный журнал. – 2021. – № 5(60). – С. 80.

bo‘lib turadigan hududlarda keng tarqalgan. Mazkur muammoning AQSHda ham o‘rni bor, zero, ingliz tilining standart amerikancha gapiruvchilari, yuqori darajadagi ma’lumotli oq tanlilar kam sonli bo‘lishgani uchun ingliz tili tashuvchilarining o‘sib boruvchi miqdori – qora tanlilarni doim kuzatib turishadi. “Ebonik”dan maktablarda foydalanishning to‘g‘ri-noto‘g‘riliги borasidagi bahslar odatiy holga aylangan, bir vaqtning o‘zida uning tashuvchilari dialekt “qora madaniyat”ning fundamental qismi ekanligini ta’kidlashda davom etishadi⁷⁸.

I.M.Nekipelova va E.G.Zarifullinalarning hisoblashlaricha, til va voqelik strukturaviy jihatdan o‘xshashdir va til qurilishi borliq strukturasiga tenglashtirilishi yoki uning buzilgan aksi sifatida qaralishi mumkin⁷⁹. E.F.Tarasov ta’kidlashicha, til madaniyatga belgi “vujudi”(mazmun) – til va insonning aloqaviy qobiliyati namoyon bo‘ladigan madaniyat predmeti sifatida kiradi, belgining ahamiyati ham faqat inson faoliyati davomida paydo bo‘ladigan madaniy bilimdir. O‘xhash tarzda madaniyat ham til zamiriga kiradi, zero, u matnda aks etadi⁸⁰.

Shu bilan birga, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, turli semiotik tizimlar ekanligini hisobga olib, juda diqqat bilan o‘rganilishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, ular semiotik tizimlar bo‘lganligi uchun juda ko‘p umumiyligini xususiyatlarga ega:

- 1) madaniyat ham til kabi insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridir;
- 2) madaniyat va til bir-biri bilan muloqotda mavjud;
- 3) madaniyat va tilning subyekti hamisha shaxs (inson) yoki jamiyatdir;
- 4) me’yor til va madaniy yo‘nalish uchun umumiyyidir;
- 5) tarixiylik madaniyat va tilning ajralmas xususiyatlaridan biridir;
- 6) “dinamik-statik” tilga ham, madaniyatga ham xosdir.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini quyidagi hodisalar orqali aniqlash mumki:

⁷⁸ Соловьева А.Н. Культура «Своя» и «Чужая»: проблемы объективации в научном и политическом дискурсах // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. – Серия: Гуманитарные и социальные науки. – 2018. – №3. – С. 71.

⁷⁹ Некипелова И.М., Зарифуллина Э.Г. Языковая система как естественная многоуровневая классификация высокой степени надёжности // Russian Journal of Education and Psychology. – 2020. – №6 (26). – С. 25.

⁸⁰ Келли Дж. Соотношения языка и культуры: психология личных конструктов. – СПб.: Речь, 2000. – С. 62.

- 1) muloqot jarayonlarida;
- 2) ontogenetika (insonning til qobiliyatlarini shakllantirish);
- 3) filogenetika (generik, jamoat shaxsining shakllanishi).

Bu hodisalar quyidagilar bilan farqlanadi:

- 1) tilni ommaviy adresatga hodisa sifatida belgilash, madaniyatda esa elitizm hukmronlik qiladi;
- 2) madaniyat ishora tizimi (til kabi) bo‘lishiga qaramay, u o‘zini o‘zi anglay olmaydi;
- 3) til va madaniyat turli semiotik tizimlardir. Yuqoridagilarni hisobga olsak, madaniyat izomorf emas, til uchun gomomorf degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, madaniyat to‘liq mos kelmaydi, faqat tuzilish jihatidan tilga o‘xshaydi. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadigan manzara nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali. Ko‘plab faylasuflar, jumladan, S.A.Atanovskiy, G.A.Brutiana, E.I.Kukushkina va E.S.Markarianlar uni o‘rganish bilan shug‘llandilar. Ular til va madaniyat munosabatlarida bir yo‘nalishdagi harakat bor, degan xulosaga keldilar. Til voqelikni aks ettirgani, madaniyat esa inson voqelining ajralmas qismi ekanligi sababli til madaniyatning oddiy in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Voqelik o‘zgarganda madaniy va milliy qoliplar, til o‘zgaradi. Madaniyatlarning alohida bo‘laklari (sohalari)ning til faoliyatiga ta’siri haqidagi savolga javob berishga urinishlardan biri Praga maktabi va zamonaviy ijtimoiy lingvistikaning funksional uslubida tuzilgan⁸¹.

Shunday qilib, agar madaniyatning tilga ta’siri juda aniq bo‘lsa, unda tilning madaniyatga teskari ta’siri masalasi hali ham bahsli. Til va madaniyat hodisalarida bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘plab jihatlar mavjud. Ikkala hodisa ham odamlarga xosdir va shuning uchun keng qamrovli antropologik, ijtimoiy va lingvokulturologik tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Til, albatta, madaniyat bilan belgilanadi, ammo bugungi kunda profil tadqiqotlari davom etmoqda. Buning teskarisi ham ma’lum darajada to‘g‘ri: madaniyat til bilan (ikkalasini ham yaratgan

⁸¹ Ань Цзюньи. Язык в системе межкультурной коммуникации // Молодой ученый. – 2017. – № 21 (155). – С. 76.

replikatorlar – memlar tomonidan) belgilanadi. Antropolog J.Rayan Amerika hindularining turli qabilalariga eksperiment uchun ranglar namunalarini taqdim etib, bu ranglarni nomlashni so‘rab tadqiqot o‘tkazdi. Olim shunday xulosaga keldiki, inson “yashil”, “sariq” kabi ko‘radigan spektr butunlay o‘zboshimchalik bilan bo‘linib, har bir madaniyat spektrni o‘ziga xos tarzda ajratadi⁸². Uning gipotezasiga ko‘ra, ranglar orasidagi farqlar inson o‘rganadigan tilning oqibati bo‘lib, tabiiy dunyodagi farqlarga mos kelmaydi. Shunga o‘xhash farazni qor ma’nosini anglatuvchi eskimoslar so‘zlarining juda mashhur memlari tasdiqlaydi, bu so‘zlearning soni ellikdan ikki yuzgacha o‘zgaradi. Ushbu turdagи nihoyatda ekstremal madaniy relativizm bugungi kunda mutloq rad etildi. Eskimoslar qor ma’nosini ifodalash uchun o‘n ikki xilga yaqin so‘zdan foydalanishadi, bu ingliz tilida so‘zlashuvchilar uchun unchalik ham ko‘p emas, chunki ular sovuq iqlimda yashaydilar. Ranglarning nisbiyligi haqidagi gipoteza endi batafsilroq va tizimli tadqiqotlar bilan butunlay rad etildi, bu turli madaniyatlarning spektrni bo‘lish usullari o‘rtasidagi hayratlanarli o‘xhashlikni ko‘rsatadi. Albatta, madaniyat tilni, hech bo‘lmaganda, uning ba’zi jihatlarini aniqlaydigan usullar mavjud. Xususan, qadimgi rimliklarda radio, televizor yoki kompyuter so‘zлari bo‘lmagan, chunki bu narsalar ularga xizmat qilmagan, shuning uchun ular madaniy kontekstda ham yo‘q edi. Xuddi shunday Rim imperiyasi davrida Yevropada yashagan madaniyatsiz qabilalar tribunalar, pretorlar yoki Rim hukmronligining boshqa atributlarini anglatuvchi so‘zlarga ega bo‘lmay, Rim huquqi ular madaniyatining bir qismi emas edi⁸³.

Ba’zida madaniyat ona tilida samarali o‘ylash mumkin bo‘lgan narsalarni chegaralab qo‘yadi. Xususan, ayrim tillarda ranglarning qora, oq va qizil ekanligini ifodalovchi uchta belgi mavjud, bu tilda so‘zlovchiga “binafsharang” degan tushunchani ifodalash qiyin kechadi. Ular bilan qiyoslaganda ayrim tillarning imkonи nisbatan kengroq. Xususan, idish tili lingvistik lider ekanligi umum

⁸² Ryan, J.B. Listening to Native Americans // Listening: Journal of Religion and Culture. – Vol. 31. – No 1. – Winter 1996. – P. 27.

⁸³ Ромах Н.И. Культурогенность Древнего Рима // Аналитика культурологии. – 2020. – №7. – С. 42.

tomonidan e'tirof etilgan, chunki, unda "sodda" ma'nosini beruvchi eng ko'p so'zlar mavjud.

Yana bir yondashuvda til madaniyat fakti ekanligi nazarda tutiladi, zero:

- 1) bu ajdodlardan meros qolgan madaniyatning tarkibiy qismi;
- 2) til – bu madaniyatni egallahsga ko'maklashuvchi asosiy qurol;
- 3) agar inson madaniyatning mohiyatini – fan, din, adabiyotni tushunishga chog'lansa, til bu borada madaniy hodisalar ichidagi eng muhim uni kodlar, ishlab chiqilgan modellar sifatida qarab chiqish zarur. Bundan chiqdiki, madaniyat haqida fikr yuritish tushunchasi faqat tabiiy til tufayligina sodir bo'ladi⁸⁴.

Tilda so'zlashuvchi har bir kishi bir vaqtning o'zida madaniyat va til tashuvchisi sanaladi, shu bois lingvistik belgilar madaniyat belgilarini ifodalash funksiyasini bajarish qobiliyatiga ham ega, shuning uchun madaniyatning asosiy o'rnatmalarini namoyon etish vositasi bo'lib qoladi.

Shu munosabat bilan til o'z tashuvchisining madaniy-milliy zehniyatini aks ettirish qobiliyatiga ega. Madaniyat til bilan makon tushunchasi orqali mutanosiblashadi. Til – bu madaniyatning tarkibiy qismi, uning quroli esa inson ma'naviyatining haqqoniyligi, madaniyatning chehrasi, u milliy zehniyatning o'ziga xos chizgilarini ifodalaydi. Til – bu inson oldida tafakkur olamini ochgan mexanizmdir⁸⁵.

Shunday qilib, til – milliy madaniyatning o'ziga xos noyob fenomenidir. Til va madaniyat o'zaro bog'langan va shartlangan. Ularning bir-biriga ta'siri ikki yoqlama xarakterli, shu sabab ular ajralmas va bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi. Til va madaniyatning mutanosibligi olimlar tomonidan turlicha baholanadi, ammo ko'pchilik til xalqning rang-barangligini, dunyon qabul qilish va uni tushunish spetsifikasini aks ettiradi, shuningdek, madaniyatning asosini tashkil etadi degan fikrda yakdildirlar.

⁸⁴ Беляев А.Н. О взаимоотношении языка и культуры // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2016. – №10-2 (64). – С. 61.

⁸⁵ Куссе Х., Чернявская В.Е. Культура: объяснительные возможности понятия в дискурсивной лингвистике. Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2019. № 16(3). С. 452.


Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, tilni faqat tashqi tomondan yoki leksik-grammatik tarkib nuqtayi nazaridan o‘rganish va o‘rgatish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bunday o‘qitish bilan ma’lum tildagi so‘zlarni hamda ayrim qoidalarni yod olishlari mumkin bo‘ladi. Biroq, unutmaslik kerakki, tilni to‘liq o‘zlashtirish masalasida bular yetarli bo‘lmaydi. Asosiy muammo tilni shunchaki tashqi tomondan o‘rganishning odat tusiga aylanganligidir. Qachonki, biror tilni yaxshi o‘rganish uchun tegishli til mamlakatiga xos madaniyatni, shu tilda so‘zlashuvchi aholi bilan real muloqot qilsa, shunda kutilgan natijaga erishiladi. Demak, “til-madaniyat” juftligining batafsil asoslariga to‘xtalish, ularni hamohanglikda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyidagi jadvalda “til” va “madaniyat” tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi:

2-jadval

Til	Madaniyat
Til madaniyatni ifodalovchi reallikning eng yaxshi isboti bo‘lib, chunki u “tasavvur” va “munosabat”ning tarixan uzatilgan tizimi hisoblanadi.	Til umumiyligi toifadagi madaniy shakllarning kichik sinfini tashkil qiladi.
Ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan so‘z, urf-odatlar tilda o‘z aksini topadi.	Madaniy shakl ijtimoiy guruh a’zolari tomonidan o‘zaro bir-biriga bog‘liq tushunchalar, e’tiqodlar va kelishuvlar to‘plami sanaladi.
Til madaniyatga nisbatan o‘zgaruvchan hodisa sanaladi.	Madaniyat, madaniy an’ana, ong va tilning asosini tashkil etuvchi etnik jamiyatning barcha a’zolariga o‘xshash, barqaror yoki vaqt o‘tishi bilan juda sekin o‘zgarib turadigan hodisa.
Til orqali boshqa madaniyatlar hamda kishilar bilan tanishiladi.	Ma’lum bir guruh a’zolarining xattiharakatlariga ta’sir qiladi yoki

	o‘zgartiradi.
Til tuzilish jihatda fikrlash tuzilishini belgilaydi.	Madaniyat so‘zlarning ma’nolarida qayd etiladi va odamlar ongida haqiqat tasviri shaklida saqlanadi.
Til kundalik hayotda odamlarning turli xil faoliyatlariga ta’sirini o‘tkazadi.	So‘zlarning ma’nolari sotsializatsiya jarayonida ma’lum bir madaniyatga mansub kishilarning bиргаликдаги faoliyati natijasida bir avloddan ikkinchisiga, bir kishidan boshqasiga o’tadi.
Til odamlarning tafakkuri, dunyoqarashi va xatti-harakatlariga ta’sir qiladi.	“Madaniyat” tushunchasi madaniyatshunoslikda shaxs obyekti orqali ko‘rib chiqiladi
Til madaniyatga nisbatan asosiy hisoblanadi	ijitimoiy psixologiya doirasida madaniyat universal hodisa sifatida talqin qilinadi.

Mazkur tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Yuqorida ularning alohida xususiyatlariga to‘xtaldik, quyida til va madaniyatni birlashtirib turuvchi xususiyatlariga to‘xtalamiz.



Ma'lum bo'ladiki, til va madaniyat nafaqat tarixiy va kommunikativ, balki evolyutsion darajada ham bog'liqdir. Chunki til madaniyatning oddiy aksi sanaladi.

“Til” va “madaniyat” tushunchalari lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik, ijtimoiy psixologiya kabi fan sohalariga xos kategoriyalardir. Har bir yo'naliшhda ularning ma'lum xususiyatlari yuzaga chiqadi. Chunki til – bu etnik madaniyatdir. Tilga nisbatan “ona tili” deb ta'rif-u tavsif beriladi, xuddi shuningdek, madaniyatga nisbatan ham “ona” nisbatini qo'llash mumkin. Chunki har qanday til, dastavval, ona madaniyatiga xos jarayonlarni aks ettiradi va tartibga soladi. Til belgilari tizimidan iborat ekanligi haqida bir necha bor to'xtaldik, ana shu belgililar asosida madaniyat hodisalari yotadi. Har bir tilda mavjud so'zning zamiriga o'ziga xos mazmun, mohiyat, milliy-madaniy qarashlar mustahkamlangan bo'ladi. Ushbu bilim va ma'noni anglash uchun madaniy hodisalarga murojaat qilish talab etiladi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida uzluksiz harakatda va o'zgarishda bo'ladi, biroq bu o'zgarishlar tezlikda sezilmaydi, ularni asrlar osha sezish mumkin. Tarixga nazar tashlansa, tilning shakl xususiyatida katta o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'ramiz. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar ham uzoq asrlik tarixga ega.

Zamonaviy tilshunoslikda esa bu masala munozarali bo‘lib qolmoqda. Ba’zi olimlar til madnaiyatni butunning qismi sifatida anglatishini aytsa, ba’zilari til faqatgina madnaiyatni ifoda etish shakli ekanligini, ayrimlar esa til shakl ham, madnaiyat elementi ham emas degan xulosani berishadi.

Umuman olganda, madnaiyat ma’lum kishilarning nimani bajarayotgani, uning ustida bosh qotirayotgani bo‘lsa, til shu xalqning qanday fikrlash darajasiga ega ekanlidir. Madnaiyat butun, til esa uning bir qismi sifatida xalq og‘zaki ijodi namunalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek folklorining ajoyib namunasi hisoblangan “Alpomish” dostonida shunday jumlalar bor: *Ana endi o‘n olti urug’ Qo‘ng‘irot elida bir chufuron to‘y bo‘ldi. Xaloyiqlarni, elatiyalarni to‘yga xabar qildi. Shu to‘yga barcha xaloyiqlar yig‘ildi. Biylar ham to‘yga keldi. To‘ydagi kattalar ilgarigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi*⁸⁶. Qisqagina jumlalardan o‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlari, insonlarning dunyoqarashi, an’analaridan bir qanchasini bilib olish mumkin. Ya’ni o‘zbekona marosimlardan biri bo‘lgan sunnat to‘y (chufuron), unga 16 urug‘ning barchasi taklif qilinishi azal-azaldan xalqimizda to‘y-marosimlarni ko‘pchilik bilan o‘tkazish, odamlar orasida mehr-oqibatning kuchli ekanligi, farzandli bo‘lish har qanday insonga baxt ekanligi, unga g‘urur bag‘ishlashi, farzandsizlik esa kishining qaddini bukishi, eldan ajralib qolishiga olib kelish holatlari tasvirlangan. Mana shunday madnaiy hodisalar til vositasi orqali yuzaga chiqmoqda. Demak, til madnaiyatga nisbatan avtonom bo‘lsa-da, ular o‘zaro teng hodisalar hisoblanadi, u o‘zida so‘zlashuvchilarning milliy-madniy mentalitetini aks ettiradi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Milliy o‘ziga xoslik namoyon bo‘lishining eng nozik ko‘rsatkichi til bo‘lib, V.fon Gumboldt fikricha, u o‘z ildizlari orqali xalq ruhi bilan bog‘langan. Madnaiyat va til umuminsoniy-tipologik yaxlitlik va uning o‘ziga xos milliy

⁸⁶ Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. / Айтувчи: Фозил Йўлдош Ўғли; Ёзив олувчи: Махмуд Зарифов; Нашрга тайёрловчилар: Ходи Зариф ва Тўра Мирзаев. – Тошкент: «Шарқ» нашириёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1998. – Б. 14.

ko‘rinishi sifatida bog‘lanadi. Til - madaniyatning borliq sohalaridan biri, uning ontologik xususiyatlari.

2. Tilshunos Sepir Uorf to‘g‘ri ta’kidlagan ediki, madaniyat muayyan jamiyatning nima qilishi va nimani o‘ylashi, til esa ularning qanday fikrlashidir. Haqiqiy dunyo ongsiz ravishda ushbu guruhning lingvistik me’yorlari asosida qurilgan. Jamiyatdagi til me’yorlari ma’lum bir ifoda shaklini nazarda tutganligi bilan bog‘liq holda, inson, asosan, muayyan hodisalarni ma’lum bir tarzda ko‘radi, eshitadi va idrok etadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, milliy madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlar lingvistik farqlarga bog‘liq bo‘lib, bir madaniyatga mansub shaxsni tushunishning muqarrar chegarasi aynan o‘zga madaniyat tili tomonidan yaratilgan ayrim voqeliklarni ifodalaydigan belgilar uchun atamalarning muayyan tilda yo‘qligidadir.

3. Y.M.Lotman konsepsiyasiga muvofiq madaniyat semiotik fazolarning murakkab ierarxiyasi yoki madaniy olamning “markaz-chekka” munosabati bo‘lgan semiosferaning bir qismidir. Madaniyat ijtimoiy makonni to‘ldiradigan “matnlar spektri” sifatida ifodalanishi mumkin. Bu yondashuv madaniyatshunoslikda, jumladan, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, semiotika va gumanitar bilimlarning boshqa sohalarida innovatsion yo‘nalish yaratish imkonini berdi. Semiosfera mifologik tasvirlarni ham, ilmiy modellashtirishni ham, badiiy tasvirlarni ham, kundalik hayotni ham o‘z ichiga oladi. Natijada, madaniy merosni tarjima qilish jarayonini, uning zamonaviylikka organik qo‘shilishini belgilovchi murakkab semiotik mexanizm yaratiladi. Madaniyat semiotikasi madaniyatshunoslikning asosiy yo‘nalishi bo‘lib, madaniy matnlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, madaniy davomiylik mexanizmlarini ochadi, madaniy tillarning ishora-ramz xususiyatini namoyon etadi, turli mamlakatlar va xalqlar madaniyati muloqotiga yordam beradi.

4. Til ko‘p qirrali va o‘ziga xos madaniy hodisadir. Til va madaniyat o‘zaro mutanosib va uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari, til va madaniyat ikki tomonlama vektorlar munosabatida bo‘ladi, til madaniyatdan tashqarida bo‘lolmaydi va tilsiz madaniyat mavjud emas. Fanda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish

turli yondashuv va nazariyalar doirasida amalga oshiriladi. Ular til xalqning o‘ziga xosligini, dunyoga nisbatan milliy qarashlarini o‘zida mujassamlashtirganini, unga xos madaniyatning asosi ekanligini ko‘rsatdi. Lingvistik va madaniy determinizm nazariyalarining ahamiyatini alohida ta’kidlash joiz.

II BOB. MADANIYATLARARO ALOQA ULARNING O‘ZARO

HARAKATI VA TA’SIRI SIFATIDA

2.1-§. Madaniyat aloqa tizimi sifatida

Kishilarning fikr almashishi, bir-birini o‘rganishi kommunikatsiya jarayoni hisoblanadi. Kommunikatsiya – bu aloqa-aratashuv bo‘lib, turli madaniyatlardagi shaxslar u orqali bir-birlarini qabul qiladi, o‘rganishadi va tarbiyalanadi. Avvalgi boblarda ta’kidlanganidek, madaniyat – bu kishilar orasidagi aloqa shakli, unda kommunikativ tabiat ustuvor bo‘ladi. Kishilar o‘zi shakllangan madaniyat asosida fikrlaydi, unga moslashadi, o‘zlarini shunga moslab harakatlanishadi. Shaxslar o‘rtasidagi muloqot jarayoni ham, bevosita ijtimoiy xulq-atvor, ichki va tashqi madaniy muhitga moslanadi va o‘ziga xos qadriyatlar, e’tiqodlar bilan chegaralanadi.

Muloqot hodisasini o‘rganish uning subyekti (kommunikator) kim ekanligi, aloqa qanday va qay maqsadda sodir bo‘lishi haqidagi savollarga javob izlashni o‘z ichiga oladi. Mohiyatan, aloqa axborot va ma’no almashishdir. Muloqot har doim turli kontekstlarda sodir bo‘ladi, masalan, bu shaxslararo muloqot, turli madaniy guruhlar yoki kichik guruhlar bilan muloqot (madaniyatlарaro muloqot) yoki katta auditoriya (ommaviy aloqa) va boshqalar bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, muloqot hodisasini tushunish uning madaniyatdagi o‘rnini bilishni talab qiladi. Madaniyat atama sifatida ham akademik, ham kundalik nutqda keng qo‘llaniladi, u turli atama va tushunchalarni anglatadi. Bu atama dastlab qadimgi yunon va Rim madaniyatlariiga taalluqli bo‘lsa-da, hozirda u har bir sohada, xususan, antropologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya tadqiqotlari bo‘yicha keng ko‘lamli ehtiyojlarga asoslangan turli o‘lchamlarga ega. Kommunikativ tadqiqotlar bilan bog‘liq holda, madaniyat fenomeni o‘zaro ta’sir orqali bir guruh shaxslar tomonidan baham ko‘rilgan, o‘rganilgan xatti-harakatlar to‘plami sifatida belgilanishi mumkin. Madaniyat qat’iy, monolit mavjudot emas, u o‘zgaruvchan, har doim o‘z a’zolarining tajribasi yoki boshqa madaniyatlар bilan o‘zaro munosabati kabi turli ta’sirlarga javob beradi. Biroq ma’lum bir madaniyat

tashuvchilari uchun artefaktlar, madaniy xatti-harakatlar va kodlarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rinmas bo‘lib qolishi mumkin.

Madaniyat jamiyatning asosiy madaniy doirasida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos submadaniyatlarga ega bo‘lishi mumkin, lekin uni asosiy oqimdan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlar yoki modalliklar mavjud. Ushbu submadaniyatlar ko‘p yillar davomida yoki faqat qisqa vaqt ichida mavjud bo‘lib, ular nobud bo‘lishi yoki madaniy evolyutsiya jarayonida asosiy oqimning bir qismiga aylanish ehtimoli bor. Madaniyatlar o‘rtasida ba’zi farqlar mavjud bo‘lsa-da, madaniyatlar bir qator umumiy xususiyatlarni birlashtiradi, xusan, umumiy til yoki lingvistik belgi, to‘g‘ri va noto‘g‘ri xulq-atvorning ta’rifi, qarindoshlik va ijtimoiy munosabatlar tushunchasi, san’at va madaniyat tushunchasi, yetakchilikni tushunish va qaror qabul qilish jarayonlari. Madaniyat va jamiyat bir vaqtning o‘zida juda ko‘p o‘xshashlik va farqlarga ega. Madaniyat odamlarning barqaror xulq-atvori va dunyoqarashi bilan belgilanadi. Jamiyatni eng soddalashtirilgan shaklda o‘zaro ta’sir qiluvchi shaxslar guruhlari sifatida tasvirlash mumkin. Biroq aynan shu o‘zaro ta’sir orqali shaxslar rivojlanadi va madaniy belgilarni keyingi avlodlarga o‘tkazadi, shuning uchun insoniyat jamiyatlarida “madaniyat” va “jamiyat” tushunchalarini ajratish juda qiyin. Madaniyatdagi muloqotning roliga qaytsak, shuni ta’kidlaymizki, madaniyat g‘oyasi jamiyatni birlashtiruvchi hodisa. Bu esa uning muloqot bilan o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning barcha shakl va ko‘rinishlariga xos tafsilotlarini tushunish zarurligini anglatadi. Muloqot madaniyatning tarqalishi va ko‘payishiga yordam beradi. Aloqa va ommaviy axborot vositalari umumiy aloqa jarayoni tomonidan ta’minlangan takrorlanuvchi o‘zaro ta’sirlar va almashinuvlar orqali madaniyat qadriyatlari va chizgilarini targ‘ib qiladi.

Madaniyat tasodifiy hodisa, u birgina muloqotda emas, takrorlanuvchan axborot almashinushi va unda jam bo‘lgan, muayyan lahzalarda yetkaziladigan g‘oyalar hamda qadriyatlar natijasida shakllanishiga e’tibor qarataylik. Mazkur o‘zaro murakkab harakatni mulohaza qilib ko‘rishning usullaridan biri P.dyu Gey

va boshqa olimlar ishlarida qarab chiqilgan madaniyatning aylanish tushunchasiga murojaat bo‘lishi mumkin⁸⁷.

Madaniyatning shakli ushbu madaniyatning bir qator aspektlari harakat qiladigan va unga ta’sir o‘tkazadigan madaniyat mahsulotini murakkab obyekt sifatida tadqiq etish uslubidir. Muloqot sharoitida madaniyatni tadqiq qilishda qo‘llaniladigan besh usulning har birini qisqacha talqin etish muhimdir:

1. Auditoriyaga, foydalanuvchiga yoki kommunikantga maxsus belgilar, moduslar va diskurslar orqali informatsion (faktik) va ijtimoiy fikr sifatida taqdim etiladigan namoyish. Xususan, bu konkret madaniyat kontekstida qirmizi rangni ifodalash mumkin.

2. Axborot oluvchi yoki auditoriyaning fikrni ma’lum bir tarzda o‘zlashtirishini nazarda tutadigan o‘xshashlik. Jamiyatning o‘xshashligi uning madaniyati orqali shakllanadi, bu madaniyat o‘xshashlikning munosabat hamda madaniy qadriyatlar almashinuvi orqali taqdim etiladigan, belgilanadigan va qayta ko‘rib chiqiladigan qator hayotiy qobiliyatli va hayotiy qobiliyatsiz variantlarini yaratadi, muayyan kommunikativ matnlar va strategiyalarni istifoda etib va namoyish qilaroq, jamiyat bir vaqtning o‘zida o‘xshashlikning bir yondashuvini ma’qullab, boshqasini inkor etadi.

3. Fikrni ishlab chiqarish. Fikr bir qator usullar bilan hosil qilinishi va qayta ishlab chiqarilishi mumkin. Inson o‘zi haqida fikr yaratishi mumkin, masalan, u qanday kiyinishi to‘g‘risida. *Apple™* kompaniya *iPhone™* ni qanday loyihalashi va ishlab chiqarishi haqidagi fikrni yaratishi mumkin, jamoat tashkiloti o‘z faoliyati haqidagi axborotni ishlab chiqib, uni *Youtube* dagi tegishli roliklarga joylashtirish yo‘li bilan tarqatishi mumkin. Fikrlarni ishlab chiqarishning bu akti ustuvor madaniyatning bir qismi bo‘lishi va gegemonlikni qo‘llashga, muayyan kodlar va qadriyatlar mavqeyini saqlab qolishga ko‘maklashishi mumkin. Biroq ular muqobil bo‘lishlari va jamiyatda hukmron bo‘lgan ishonchlar, qarashlar yoxud qadriyatlarni kurash maydoniga taklif etishi ham mumkin. Xususan, pop-

⁸⁷ Du Gay, P. et al. Doing Cultural Studies: The story of the Sony Walkman Milton Keynes: Open University; Thousand Oaks. – CA: Sage, 1997. – P. 374.

madaniyatda Ledi Gagining dastlabki ijodi ig‘vogarona va qoliplarni sindiruvchan edi, bu ham yetmaganday, u sahna faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishilar liboslari mansub bo‘lgan mavjud madaniy paradigmaldan sezilarli chetga og‘adigan kiyinish uslubiga moyil edi.

4. Iste’mol qilish. Ishlab chiqarishning ikkinchi tomoni iste’moldir. Qo‘sinq matni, kiyinish uslubi, gapirish uslubi yoki estrada qo’shiqlarini iste’mol qilish madaniy qadriyatlar va umidlarni aks ettiradi. Qadriyatlar va umidlarga moslashish muammosiz iste’molga olib keladi, chunki u kutilgan talab va belgilangan madaniy me’yorlarga mos keladi. Ushbu tizimga to‘g‘ri kelmaydigan matnlar rad etish, e’tiroz va hatto jamiyatda shokni keltirib chiqarishi mumkin. Shu munosabat bilan biz sahnadagi xatti-harakatlari bilan jamiyatni hayratda qoldirib, yangi madaniy yo‘nalishlarni shakllantirgan (“The Beatles”, “Queen”, “Rammstein” va boshqalar) qo’shiqchilar va musiqachilarining ko‘plab misollariga yana murojaat qilishimiz mumkin.

5. Matnlarni ishlab chiqarish, tarqatish va iste’mol qilishni cheklovchi mexanizmlarni nazarda tutuvchi tartibga solish. Ushbu mexanizmlar qonuniy yoki axloqiy bo‘lishi mumkin, masalan, teleradiokompaniyalarning xulq-atvor kodeksida lakkus testi: “Siz buni onangizning huzurida aytasizmi?”. Kommunikativ vaziyatda madaniyatni o‘rganishning ushbu beshta o‘zgaruvchisi o‘zaro bog‘liq va P.dyu Gay yozganidek, bu o‘zgaruvchilar juda muhim, shuning uchun ularni alohida ko‘rib chiqish mumkin emas. Madaniy kontekstda muloqotni ko‘rib chiqayotganda, matn va ma’noning yaratilishiga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar mavjudligini yodda tutish kerak. Bu omillar matnni qo’llab-quvvatlashi, madaniy pozitsiyani mustahkamlashi yoki aksincha, madaniyatga qarshi chiqishi yoki unga qarshi turishi mumkin. P.dyu Gay modeli bir xil madaniy vaziyat doirasidagi muloqot va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilish uchun muntazam ravishda qo’llaniladi. Biroq ommaviy axborot vositalari va kommunikativ landshaftning globallashuvi sharoitida madaniyatlararo

muloqotning xususiyatlari haqida fikr yuritish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda⁸⁸.

Garchi barcha madaniyatlar mahalliy bo'lsa-da, muloqot globaldir. Bu konsepsiya bugungi misli ko'rilmagan texnologik inqilobning mustahkam poydevorini o'zida mujassam etgan. Inqilob mahalliy xalqlar madaniyatiga ommaviy axborot vositalarining ta'sirini kuchaytirdi. Ilmiy adabiyotlarda ommaviy axborot vositalarining tijorat faoliyati natijasida yoshlar uchun madaniyat va umuman ijtimoiy muhitga salbiy va zararli ta'siri ko'rsatilgan. Bugungi global media muhitida ommaviy axborot vositalari "kuchli pozitsiya"ni egallab, ijtimoiy va madaniy voqelikni o'zgartirish yoki yaratishga qodir. Madaniy gomogenlashtirish texnologik jihatdan boy ommaviy axborot vositalarining, ayniqsa, Internet va konvergent ommaviy axborot vositalari kabi yangi ommaviy axborot vositalarining mahsulidir, shu bilan birga, Xantington o'zining mashhur "Tamaddunlar to'qashuv" asarida nazarda tutgan sivilizatsiyalar bo'linishining kuchayishi ham ilg'or ommaviy axborot vositalarining natijasi bo'lib ko'rinadi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan ta'kidlangan va kristallangan sivilizatsiyalardagi farqlar dunyoni juda xilma-xil tamaddunlarga ega bo'lgan ko'plab bloklarga ajratadi. Biroq, madaniy farqlar yo'qolib ketishga yaqin. Xusan, Uzoq Sharq, Fors ko'rfazi, Lotin Amerikasi va Osiyoning ko'p qismidagi uy xo'jaligi hamda umumi turmush tarzi G'arbiy Yevropada qabul qilinganlar bilan deyarli bir xil va ularni "boshqa", "oq va oq bo'lmaganlar", "biz va ular" deb ajratish, shunga o'xhash farqli ma'nolar bugungi kunda ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatlarda ommaviy axborot vositalarining roli ortib borayotganligi sababli, aloqa vositalari "virtual yoki ramziy madaniyat" tarzida harakat qiladi, uni tarqatadi, bu esa ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatayotgan madaniy muhitga mutloq o'xshamaydi. Bu rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar boshdan kechirayotgan madaniy ziddiyatga o'xshaydi. Shu munosabat bilan, bu davlatlar madaniy hukmronlikning potensial xavf-xatarlarini, ularning madaniy

⁸⁸ Du Gay, P. et al. Doing Cultural Studies: The story of the Sony Walkman Milton Keynes: Open University; Thousand Oaks. – CA: Sage, 1997. – P. 98.

siyosati, madaniy sohalari (kino, drama, she’riyat va boshqalar) va hayotining boshqa mental tarmoqlari uchun oqibatlarini tan olish, ekstrapolyatsiya qilish vaqtiga keldi. Shunday qilib, kultrologiyada madaniyat aloqalar tizimi sifatidagi g‘oyalar rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi.

Madaniyatning kommunikativ shakli quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- 1) madaniyat nafaqat avloddan avlodga, balki bir davrdan ikkinchisiga ham axborot tashiydi;
- 2) madaniyat nafaqat uning voqeliklarini bilishni, balki ularni turli darajada tushunishni ham talab qiladi: mentalitet, qadriyatlar, me’yorlar, ma’nolar va boshqalar;
- 3) eng muhim kategoriya – madaniyat tili kommunikativ tizim sifatida, u turli darajadagi muloqot darajasida: mentalitet, an’anaviy qadriyatlar, belgi shakllanishi va ramz shakllanishida madaniyat tashuvchilarning o‘zaro tushunishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, aloqa dialog orqali yuzaga chiqadi. Ikki kishi bir-birini tinglaydi, tushunishga harakat qiladi. Shu jarayonda adresat adresantning o‘ziga xos madaniy xususiyatini o‘rganadi. Bu uchun tinglash jarayoni muhim. Dialog orqali o‘z va boshqa ongler dialektik qarama-qarshilikka ham uchrashi mumkin. Chunki bunday ongler bir-biridan alohida mavjud bo‘lib, aloqa jarayonida bir-birini tushunishga intiladi.

Bir-biriga yod madaniyatlar kommunikatsiya jarayonida, dastlab, o‘zaro “tanib olish” va “boshqasini o‘zlashtirish” bilan boshlanadi. Samarali muloqotga erishish uchun samimiyat, iltifot, o‘zaro hurmat, bir-biriga muvofiqlik, moyillik xislatlari zarur bo‘ladi. Kishilar o‘zaro kommunikativ aloqaga kirishganlarida bir-biriga aksilogik nuqtayi nazardan yaqinlashadi, hamrohiga nisbatan harakatni, dinamikani, har biridan kelayotgan to‘lqinlarni his qilishadi. Xullas, kishilar orasidagi munosabatlar, yaqinlik, qarashlarning mushtarakligi ochiq muloqot orqali shakllanadi. Keltirilgan sabablar asosida dialog nutqiy va madaniy aloqa jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi: aloqa – birlamchi vazifa bo‘lib, turli madaniyat vakillari til vositasida aloqaga kirishish jarayonida bir-birlarining

madaniy qadriyatlarini o‘zlashtiradi. Bu jarayon kognitsiya hamda tafakkur qilish natijasida amalga oshiriladi; ijodkorlik – ko‘zguga o‘xshaydi, ya’ni boshqa madaniyat egasi orqali o‘zini tahlil qiladi va anglaydi; o‘zaro tushunish – o‘zlashtirilayotgan madaniyat bilan birlashish; haqiqatni murakkab muammoning turli ko‘rinishi sifatida aniqlash.

O‘zaro aloqaga kirishish natijasida madaniyat aloqa egalari uchun reallashib boradi. Madaniyatning rivojlanishi ongning ijodiy fikrlashiga bog‘liq. Ikki kishi birgalikda faoliyat jarayonida bir-biri bilan o‘z g‘oyalari, qiziqishlari, kayfiyati, his-tuyg‘ularini almashishadi. Keyingi aloqalarda esa ular bir-birini oson va qulay his eta boshlashadi. Madaniyatning aloqa vositasi ekanligi ham shunda namoyon bo‘ladi. Ikki kishi suhbatlashayotganda o‘z kayfiyatini tinglovchiga yuqtiradi, axborot almashish jarayonida o‘z g‘oyalarni singdiradi. Bu jarayon faqatgina axborot berish jarayoniga emas, balki uni qabul qilish jarayoniga ham bog‘liq, chunki ma’lumot uzatilayotganda aniqlashtiriladi, shakllanadi va rivojlanadi.


Aytib o‘tilganidek, kommunikatsiya ikki kishining o‘zaro munosabatlari asosida amalga oshadi va ularning har biri kommunikant sifatida aloqa subyekti hisoblanadi. Aloqa subyektlari bir-birini xabardor qilish vazifasini bajarish mobaynida yo‘llayotgan xabarning kelib chiqishi, sabablari, aniqlik darajasini hisobga oladi. Chunki nutqiy aloqaga kirishishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – bu murojaat qilishdir. Bu holatni subyektlararo jarayon sifatida baholash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, uzatilgan axborotlarga javoban yangi ma’lumotlar olinadi, o‘zlashtiriladi.

Aloqa jarayonida ma’lumotlar shunchaki uzatilmaydi, balki bu jarayonda aloqa subyektlarining faol harakati talab etilib, bu har ikkala tomon uchun ham muhim hisoblanadi. Demak, insonlar nafaqat ma’nolarni almashishadi, balki ularga intilishadi ham. Kishilar o‘zaro ma’lumot almashishda belgilar tizimi orqali hamkorlik jarayonida bir-biriga ta’sir o‘tkazadi va sheringining xatti-harakatiga o‘zgartirish kiritishi ham mumkin. Bundan kelib chiqadiki, belgilar ma’lum maqsadlarga yo‘nalgan bo‘lib, kommunikantlarning holatlarini o‘zgartiradi. Bu esa

kommunikativ ta'sir deb yuritiladi. U qanchalik muvaffaqiyatli bo'lsa, aloqa samaradorligi ham yaxshi bo'ladi. Bu o'z-o'zidan psixologik jarayon bilan bog'liq.

Aloqa jarayonida ma'lumotni yo'naltiruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (adresant) shaxs o'rtasida bir xil yoki o'xshash dekodlash tizimi yaratiladi va bu tizim ularning o'zigagina tushunarli bo'ladi. Bir-birini tushunishda hamma bir xilda so'zlash shartiga asoslanish yuqori samara bermaydi. Chunki inson har qanaqa axborotni o'zaro almashishi mumkin va bu aloqa subyektlarining barchasiga aniq bo'ladi. Biroq faqat qadriyatlar tizimini o'zaro almashish natijasida esa sheriklar bir-birlarining hayot tarzi va xarakter-xususiyatlarini ham o'zlashtiradi va yanada yaxshi tushunish imkonini paydo bo'ladi.

O'zaro kommunikativ aloqa jarayonida aloqa to'siqlari ham paydo bo'lishi mumkin. Bu holat ham bevosita psixologik xarakter kasb etadi.



Bizningcha, aloqa to'siqlari ikki xil bo'ladi:

1.Individual to'siqlar ikki aloqaga kirishuvchi sheriklarning shaxsiy munosabatlari (bir-biriga yoqmaslik, tashqi ko'rishishning ma'qul kelmasligi, ovozning, gapirish ohangining, nigoohlari va shu kabilalar) o'zaro mos kelmasligi natijasida hosil bo'ladi.

2.Etnotipik to'siqlar millatlararo madaniyat, an'ana, qadriyatlarning o'zaro mos kelmasligi natijasida paydo bo'ladi.

Demak, aloqaning samaradorligi faqatgina nutqiy tajribaga emas, balki mental tuzilish, madaniy kelib chiqish bilan ham bog'liq ekan.

Madaniy aloqalarning ikki turi mavjud: Verbal va noverbal aloqa. **Verbal** (og'zaki) aloqa inson omili ta'sirida og'zaki nutq, nutq tovushlari, fonetik belgilari

tizimi, leksik va sintaktik birliklar tamoyillari asosida amalga oshadi. Bu jarayonda nutq eng muhim omil bo‘lib, xabar uzatishda reallik saqlanishi bilan xarakterlanadi. Bir turdag'i madaniyatni aloqa yo‘nalishiga uzatishda xabar shaklida haqqoniy yetkazish muhim hisoblanadi. Chunki har bir madaniyat o‘zining tarixi, ichki tuzilishiga ega bo‘ladi. Nutqiy modelda madaniy matnlardan foydalanish nutq samaradorligini oshiradi, bir qarashda ularni aniqlab bo‘lmasa-da, sekinlik bilan o‘zgarish namoyon bo‘ladi.

Axborotga singdirilgan madaniyat, odatda, harakatchan, ya’ni dinamik xususiyat kasb etadi. Ma’naviy faoliyat esa madaniy faoliyatga nisbatan kam dinamik hodisa sanaladi. Ular yordamida matnlar ham son, ham mohiyat jihatdan boyiydi. Masalan, XIX asr O‘rta Osiyo madaniyatini misol tariqasida oladigan bo‘lsak, uning tarkibiga O‘rta Osiyo xalqlarining umummiliy xususiyatlari, turmush sharoitlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, adabiyot, san’at va shu kabi ko‘plab yo‘nalishlardagi xabarlar bu turdag'i matnlar sonining ortishiga sabab bo‘ladi.

Lebdovaning tadqiqotlarida og‘zaki aloqaning to‘rt me’ yori belgilab berilgan:

- 1) Tog‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita;
- 2) Badiiy va qisqa;
- 3) Shaxsiy va vaziyatga xos;
- 4) Instrumental va ta’sirchan⁸⁹.

Noverbal (og‘zaki bo‘lmagan) aloqa ham o‘z navbatida bir nechta tizimlardan tashkil topadi:

1) Optik-kinetik noverbal aloqada imo-isholarlar, yuz ifodasi, pantomimalar orqali amalga oshadi. Mazkur tizimda inson tana a’zolaridan ko‘zlar, yuz, lab, qo‘llar faol ishtirok etadi, ular orqali mavjud madaniy borliqni to‘laroq anglash imkonи tug‘iladi. Optik-kinetik tizim nutq vositalarisiz qo‘llanilganda mohiyat noaniq bo‘ladi, bunday holatlar, ko‘pincha turli madaniyat vakillarining aloqa jarayonida hosil bo‘ladi.

⁸⁹ Лебедева Н. М. Этническая и кросс-культурная психология. Москва, 2011. Большая российская энциклопедия (bigenc.ru)

2) Juftlik va ekstralinguistik noverbal aloqada, asosan, og‘zaki shaklda amalga oshiriladi. Unda vokalizatsiya, intonatsiya, tovush tembri ritmi, ohangi, nutqiy pauzalar, qolaversa, yig‘lash, xo‘rsinish, yo‘talish, tabassum qilish nutqiy aloqaning mukammalligini ta’minlaydi. Ular nutqqa yaqin usullar bo‘lib, uzatilayotgan madaniy axborotning semantik boyishiga xizmat qiladi.

3) Makon va zamonni tashkil etish kommunikativ vaziyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Unda axborot qabul qiluvchining diqqatini tarqoq holga keltiruvchi holatlarni tartiblash tushuniladi. Masalan, nutq so‘zlayotganda kimningdir baland poshna kiygan holatdagi qadam tovushlari, sahna ortidagi shovqinlar ham samarali aloqaga putur yetkazadi. Jamoada ikki kishini bir-biriga qarshilantirish natijasida ham aloqa hosil qilish mumkin. Bunday holatlar eksperimental natija keltirib chiqaradi.

4)Vizual noverbal aloqa ham o‘ziga xos belgilar tizimi bo‘lib, kommunikatsiya jarayonida ko‘z bilan aloqa qilish tushuniladi. Bu bevosita psixologiya sohasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, vizual idrok yordamida yuzaga chiqadi. Og‘zaki muloqotni mukammallashtirishda ko‘z qarashlari, uning harakat chastotasi, davomiyligi, statika va dinamikasi muhim hisoblanadi. Bu orqali aloqani davom ettirish yoki to‘xtatishga undash mumkin. Qolaversa, aloqa jarayonida axborot uzatayotgan subyektning rost yoki yolg‘on ma’lumot berayotganligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, madaniyat kommunikatsiya jarayonining bir bo‘lagi bo‘lib, u orqali aloqa ishtirokchilari o‘zaro qadriyatlar silsilasini almashishadi, nutqiy ko‘nikmalarini, hayotiy tajribalarini orttirishadi.

2.2-§. Suhbat madaniyatning mavjudlik shakli sifatida

Inson bir vaqtning o‘zida madaniyat subyekti va mahsuli bo‘lib, atrof-muhit va uni tashkil qiluvchilar bilan ko‘p darajali muloqotda bo‘ladi. Mazkur muloqotlarning aksariyati suhbat shaklida kichadi. Suhbat kundalik kommunikatsiyaning ko‘rinishi, uning asosiy xususiyati rasmiy va norasmiy xarakter ifodalashidadir. Norasmiy suhbat boshqa bir subyekt bilan shunchaki fikr

almashish, birga vaqt o‘tkazishdan iborat bo‘lgan jarayondir. U, odatda, yengil va bir makonga moslashgan bo‘ladi. Rasmiy suhbatda esa zamon va makon to‘g‘ri tanlangan, ijobiy natijalarga yo‘naltirilgan va ma’lum jarayonda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxslar bilan o‘tkaziladigan jarayon sanaladi. Quyida suhbatning ikki turiga xos bo‘lgan xususiyatlar keltiriladi:

Norasmiy suhbat

Norasmiy subat kichik suhbat, mehmon bilan suhbat, ko‘ngilochar suhbat, hazil suhbat, tahdidli suhbat ko‘rinishlarida bo‘ladi. Unda qat’iy chegara ko‘zga tashlanmaydi. Shunday bo‘lsada odob-axloq qoidalariga amal qilish yaxshi samara beradi. Bunday suhbatlar, odatda, yaqin tanishlar orasida amalga oshadi



Rasmiy suhbat

Rasmiy suhbatda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, aloqa mavzularining betarafligi va ularning barcha kommunikatorlar uchun dolzarbliji, muloqotning ijobiy hissiy munosabati va natijada suhbatda ziddiyatli mavzularining taqylanishi kabi xususiyatlar muhim sanaladi.



Suhbat orqali kommunikant yoqimli munosabatlар о‘rnатишга erishish, о‘yinkulgi, suhbatning estetik imkoniyatlari orqali o‘z so‘zini tasdiqlash, dunyoqarashlari bilan o‘rtoqlashish, jamoatda o‘zini namoyon qilish hamda suhbat jarayonidan zavqlanish kabi maqsadlarga erishadi.

Muloqot jarayonida amalga oshirilgan nutqni tavsiflash uning o‘zaro ta’sir kuchini boshqalaridan saralashda suhbat bir nechta tamoyillarga tayanadi:

Kommunikativ maqsadda sherik bilan yoqimli vaqt o‘tkazish, o‘zaro estetik zavq ulashish, o‘z qadriyatlarini so‘z bilan namoyon etish istagi yuqori bo‘ladi;

Makon va zamonda suhbat amalga oshirilayotgan vaqt va joyning to‘g‘ri tanlanishi, suhbat matni yoki mavzusi nutq so‘zlanib turgan vaziyatga yoki mohiyatga mos bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi;

Kommunikativ vaziyatda suhbat ishtirokchilarining tarki, ularning kayfiyati, o‘zaro munosabatlari, xarakter-xususiyatlari sinchiklab o‘rganiladi. Agar kommunikativ vaziyat noto‘g‘ri tanlansa, nutqiy samaraga erishilmaydi.

Nutq odobi bilan bog‘liq belgilar. Bunday belgilarga yuqori nutq madaniyati, og‘zaki nutq shaklining emotsionallik darajasi, nutq ohangi, muloqot subyektlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabilar kiradi.

Repertuar ijtimoiy jihatdan tartibga solingan, muloqotning polilogik shakli umumiy xususiyati ajratiladi, sababi suhbatdan ko‘zlangan maqsad aloqa ishtirokchilarini maksimal darajada muloqotga jalb qilish, ularning ko‘zlagan maqsadiga erishishiga ko‘maklashish talab etiladi, qolaversa, kommunikatorlarning xatti-harakatlari belgilangan umumiy qonun-qoidalarga tayanadi.

Barchaga ma’lumki, ommaviy axborot vositalari xalqimizda norasmiy hokimiyat deb yuritiladi. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, unda insonlarni ishontirish, ergashtirish, boshqarish tizimi davlat hokimiyatni amalga oshirgan jarayonlardan qolishmaydi. Qolaversa, OAV orqali xalqning madaniy hayoti, turmush sharoitlari, milliy-madaniy qadriyatlari boshqa madaniyatlar e’tiboriga havola qilinadi.

Bekorga jumlalar OAV bilan boshlanmadidi, suhbat madaniyatning amaldagi ifodasi ekan, rasmiy holatda OAV orqali omma e’tiboriga uzatiladi. Ommaviy axborot vositalarida madaniy soxtakorlik va maqsadlardan holi bo‘lgan, hokimiyatga foydali hukmronlik g‘oyasini targ‘ib qilmaydigan matnlar, xabarlar, signallar va obrazlar yo‘q. OAVning bisoti, yangiliklar, ko‘ngilochishlar va reklamalar imtiyozan klassik, gender, irqiy soxtalashtirish yoki faktlar va ijtimoiy segmentatsiyani buzishga asoslanadi. Shu bilan birga ko‘ngilochar dasturlar, ayniqsa, madaniy soxtalashtirish va shtamplar bilan kuchli sug‘orilgan, ularning maqsadli auditoriyasi, asosan, yoshlar hisoblanadi. Ushbu media-bisot siyosiy qarashlarga ta’sir o‘tkazadi, madaniy chizgilarni shakllantiradi yoki o‘zgartiradi, sig‘inish uchun sanamlar va ikonalarni yaratadi yoki taklif etadi, ijtimoiy

tartiblarga ta’sir o’tkazadi, ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartiradi.

OAVning rivoyatlar to‘qish, yangilash, kuchaytirish va ustuvor madaniyatni o‘rnatishga bo‘lgan mavjud moyillikni kengaytiradigan, alohida qobiliyatini asoslaydigan, OAV bilan madaniyatning aloqalariga bag‘ishlangan yaqin yilda yaratilgan ko‘plab tadqiqotlar mavjud⁹⁰. Tadqiqot ishimizda OAVning madaniyatga ta’sirining turli aspektlarini qarab chiqamiz. Ommaviy axborot vositalari va madaniyat o‘zaro aloqador ekanligini nazarda tutib, turli ilmiy maktablarning o‘rnini qarab chiqish va ularning ommaviy axborot vositalari hamda madaniyatga zamonaviy ta’sirini belgilash maqsadga muvofiqdir. Biroq ommaviy axborot vositalari va madaniyatning o‘zaro aloqalari haqidagi bahsni boshlashdan oldin “madaniyat” tushunchasi zamirida nimalar mavjudligi va mazkur fenomen ilmiy adabiyotlarda qanday belgilanishini tushunish muhimdir.

Tinchlikda umrguzaronlik qilish uchun odamlar jamiyatda murosasozlik, muloyimlik va tinchliksevarlik fazilatlarini namoyon etib yashashlari kerak. Jamiyatning barcha a’zolari ko‘plab qiyinchiliklar, muammolar va haqiqatlar bilan to‘qnashishiga to‘g‘ri keladi (xususan, ularga boshpana va yegulik zarur). Ular o‘zlarida bor narsalarni kelgusi avlodlarga yetkazadilar. To‘planib qolgan muammolar, ularni hal etish usullari, turfa yuksak yutuqlar va jiddiy majburiyatlarni kelajak nasllarga shu tarzda qoldirish “madaniyat” deb tavsiflanadi. Aynan shuning uchun ham madaniyat dunyoda ijtimoiy meros sifatida ma’lum. Birorta mamlakat yoki xalq madaniyatdan holi emas, undan tashqarida mavjud bo‘lmaydi, zero, madaniyat jamiyatning asosi sanaladi. Jamiyat hayotiy faoliyatining barcha turlarini belgilash uchun madaniyatdan foydalilanadi. Madaniyatning moddiy komponentlariga binolar, mebel, musiqa asboblari va boshqa moddiy ashyolar kiradi. Madaniyat barcha moddiy va nomoddiy narsalar, jumladan, san’at va hunarmandchilik, odatlar va an’analar, g‘oyalar, qadriyatlar, ijtimoiy va siyosiy normalar hamda boshqalarning qiymati sifatida taqdim etiladi.

⁹⁰ Curran, J., Gurevitch, M., Woollacott, J. The study of the media: theoretical approaches. Part I. Class, Ideology and the Media in Gurevitch, M., Bennett, T., Curran, J. & Woollacott, J. Culture, Society and Media. – London: Methuen, 1982. – P. 49.

Texnologiya va taraqqiyot ham madaniyatning komponentlaridir. Bu ikki konsepsiya bir vaqtning o‘zida bir-birlari uchun sabab va oqibat bo‘lib, madaniyatni an’anaviy, bir maromdagi jamiyatdan zamonaviysiga o‘tkazishda hayotiy muhim rol o‘ynaydi. Mazkur transformatsiya madaniy industriya tufayli sodir bo‘ladi va OAV orqali yetkaziladi.

Madaniyat insoniy muhitdir, inson qiladigan yoki ongli ravishda o‘zini tiygan ishlarni o‘z harakati bilan yo‘naltirib, boshqarib turadi va ularga mazmun bag‘ishlaydi. Madaniyatning ildizlari lotincha «colere», ya’ni «qurish, o‘stirish, rivojlantirish» so‘zlariga taqaladi⁹¹. Lotin tilidagi so‘zning ma’nosи, “madaniyat” ma’lum ma’noda “tabiat”ga qarshi qo‘yiladi, zero, “madaniyat” yaratiladi va shakllantiriladi, “tabiat” esa ichki qiymatga ega. Boshqacha aytganda, “madaniyat” yo‘qdan bor qilinadi, “tabiat” tug‘madir, jamiyat esa “madaniyat” va “tabiat”ning qo‘shilushi asosida rivojlanadi. Inson o‘z tabiatiga ko‘ra madaniy jonzotdir, u o‘zini boshqa muhitlar va ijtimoiy guruhlardan ajratib turuvchi belgilarga ega bo‘lgan jamiyatda yashashni ma’qul ko‘radi⁹². Jamiyatning yuksak dunyoqarashi uning madaniyati bilan asoslanadi. Inson o‘zini va atrof-muhitni muttasil o‘zgartirib turgani bois, inson tabiatining dinamikasi uning madaniyatini doimiy o‘zgarishda ushlab turadi. Bu quyidagi fakt bilan tasdiqlanadi: inson endi temir asridagi ibtidoiy jonzot emas, sun’iy yo‘ldoshning yaratuvchisi va kosmik era taraqqiyotining subyektidir. Tamaddunlar taraqqiyotining butun tarixi davomida insonning barcha kuch-g‘ayrati o‘z hayotini va uni o‘rab turgan olamni mukammallashtirishga yo‘naltirildi, shu sababli inson ko‘plab yangiliklarni kashf etdi va ularni o‘z turmush tarziga kiritdi.

Mazkur kuch-g‘ayratning natijasi insonni tartibli yashashga va o‘z hayotini tillar, bilimlar, g‘oyalar, udumlar, odatlar, dinlar, axloq, qadriyatlar, musiqa, san’at, me’morchilik va boshqa artefaktlar bilan bezashga o‘rgatgan jamiyatning barpo etilishi bo‘ldi. Ushbu faoliyatlarning yuz ko‘rsatishi va taraqqiy topishi “madaniyat” degan nom ostida birlashadi. K.E.Rozengren ta’kidlashicha,

⁹¹ Dhal, S. Communications and Cultural Transformation: Cultural Diversity, Globalization and Cultural Convergence. – London: ECE, 2000. – P. 39.

⁹² Jalibi, J. Pakistan: The Identity of Culture. – Karachi: Royal Book Company, 1984. – P. 14.

madaniyat – bu anglab yetilgan va baholangan struktura bo‘lib, odamlar uning doirasida harakatlanadilar va his qiladilar⁹³.

J.Uotson o‘z mulohazalarida nisbatan kengroq qarashlarni taqdim etib, madaniyat tildan, tarixdan, an’analardan, iqlimdan, jug‘rofiyadan, san’atdan, ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlardan tarkib topishini, har qanday millat o‘zining ayni damdagi rivojini o‘z madaniyatining tabiatini bilan o‘lchashini ko‘rsatib o‘tdi⁹⁴. Uning mazkur konseptni tushunishi, jamiyat madaniyatini o‘rnatishda o‘ziga xoslikka – madaniyatning, o‘xshashlikning boy berilishiga olib keladi.

Madaniyat jamiyat a’zolarining tafakkuri va odatlarida mavjuddir. U inson atvorida ko‘rinmaydi, chunki u ish yuritishning ijtimoiy o‘zlashtirilgan turli shakllari bilan shug‘ullanadi. Odamlar nima qilayotganliklari va buni qanday amalga oshirayotganliklarini anglamasliklari mumkin, lekin ularning o‘zini tutishi jamiyatning ijtimoiy ma’qullangan ko‘nikmalari bilan tartibga solib boriladi. Demakki, og‘ishlar va kognitiv ohang buzilishlari yo‘q. U.Reddi mazkur fikrni qo‘llab-quvvatlab, madaniyat insonlarning hayot tarzi, tarixiy va dolzarb an’analar, e’tiqod, qadriyatlar va ijtimoiy axloqning har bir uslubida o‘z aksini topadigan amaliyot uyg‘unligi ekaniga e’tibor qaratadi⁹⁵.

Antropologlar, odatda, madaniyatni odamlar guruhlarda yashashi natijasida qo‘lga kiritadigan voqelikni yaratishning tizimli usuli deb belgilashadi⁹⁶. Sotsiologlar fikricha, madaniyat guruhlari mahsuli⁹⁷ va taraqqiyot hamda yutuqlarning jamlangan vositasidir⁹⁸.

B.Gess va E.V.Markson madaniyatning a’zolari hududni taqsimlab oladigan va bir-birlari uchun mas’uliyat his etadigan guruhdagi hayotning koordinatlar

⁹³ Rosengren, K.E. Time and Cultural Development in a Swedish Literary Frame of Reference in Mass Communication Review Yearbook. – California: Sage Publications, 1983. – Vol. 4. – P. 319.

⁹⁴ Watson, J. The Global Arena: Issues of Dominance and Control in Media Communication: An Introduction to Theory and Process. – New York: Palgrave, 2003. – P. 40.

⁹⁵ Reddi, U. Media and Culture in Indian Society: Conflict or Co-operation? In Media, Culture and Society. – London: Sage Publications, 1989. – Vol. 11. – P. 395.

⁹⁶ Red, R.M. Mass Mediated Culture. – New Jersey: Prentice Hall Inc. 1977. – P. 10.

⁹⁷ Jerzy, W. Cultural Pluralism and National Identity, Cultures. – Paris: The UNESCO Press and La Baconniere, 1977. – P. 58.

⁹⁸ Layer, M. Introduction to Sociology. – New York: MacMillan Publishing Company, 1978. – P. 64.

tizimi tarzida belgilashadi⁹⁹. D.Popenoe¹⁰⁰, R.Stark¹⁰¹ va Dj.Vander¹⁰² madaniyat jamiyatning “mavjudligini” hamda “o’rganishini” ta’minlaydi, u “hayotning murakkab modeli”, moddiy va nomoddiy narsalar majmuyi degan pozitsiyani yoqlashadi. Madaniyat inson borlig’ining nisbatan fundamental va universal aspektlaridan biridir. Uning tabiatni nihoyatda murakkab va tushunish uchun nozik bo’lishiga qaramay, ma’lum bo’lishicha, uning umume’tirof etgan belgisi yo‘q, uning ta’siri qamrab oluvchi xarakterga ega. Yuqoridagilar shundan dalolat beradiki, madaniyat qadriyatlarning dinamik tizimi sifatida belgilanishi mumkin, bu tizim taxminlar, shartlilik, maslaklar hamda guruh a’zolariga bir-birlari hamda dunyo bilan o’zaro aloqa qilish, muloqotda bo’lish, o’zining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, uning potensialini ta’minlash imkonini beruvchi qoidalardan tarkib topadi. Aynan madaniyat odamlarni guruhlarga birlashtiradi, ularning o’zaro differensiyalashuviga ko’maklashadi, bu esa jamiyatda tenglik va o’ziga xoslik kabi fenomenlarning paydo bo’lishiga olib keladi. Ishlab chiqilgan va boshqa aloqador ta’riflarga asoslanib xulosa chiqaradigan bo’lsak, madaniyat:

- ijtimoiy o’zaro hamkorlik mahsuli;
- odamlarning biologik va ijtimoiy ehtiyojlari uchun ijtimoiy ma’qullangan namunalarni taklif etadi;
- ayni jamiyatdagi avloddan avlodga o’tuvchi ijtimoiy meros;
- har bir induvid tomonidan uning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiylashuv jarayonida o’zlashtiriladi;
- shaxsiyatning asosiy belgilovchilaridan biri;
- mavjudligi jamiyatning beto’xtov faoliyat yuritishi bilan bog’liq, birorta induvidium yoki guruhga qaram emas.

M.Uoters globallashuvni ijtimoiy va madaniy mexanizmlarning jug’rofiy chegaralanishi bo’lmagan va odamlar orqaga ketishayotganlarini tobora chuqurroq

⁹⁹ Hess, B., Marleson, E.W. Sociology. New York: MacMillan Publishing Company, 1988. – P. 67.

¹⁰⁰ Popenoe, D. Sociology. New Jersey: Englewood Cliffs Publishing, 1980. – P. 102.

¹⁰¹ Stark, R. Sociology. California: Wordsworth Publishing Company, 1987. – P. 320.

¹⁰² Vander, J. The Sociological Experience: An Introduction to Sociology. New York: Media Communication, 1989. – P. 52.

anglayotgan jarayon sifatida belgilaydi¹⁰³. Ushbu ta’rifdan kelib chiqilsa, globallashuv mamlakatning milliy va mahalliy madaniyatiga ziyon yetkazadi. Biroq ayrim olimlar globallashuvni “amerikalashtirish” va “vesternlashtirish”ning sinonimi sifatida qarashadi, boshqacha aytganda, bu “mahalliy turmush tarzini vayron etuvchi g‘arbona madaniyat, qadriyatlar hamda turmush tarzining zo‘rlab tiqishtirilishidir”¹⁰⁴. Globallashtirish “madaniy rang-baranglik” hamda “madaniy ta’b”ning ziddi bo‘lib, uning maqsadi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalarning gegemonligini ta’minlashdir. Mazkur jarayonning yakuni, M.Uoters ta’kidlaganidek, aniq madaniy tenglikning yo‘qolishi va individualizmning chekinishidir¹⁰⁵. Bu, shubhasiz, gegemonlashtirishdir, biroq unda madaniyat yuborayotganlarning qadriyatlari madaniyat olayotganlarning qadriyatlari ustidan hukmronligi tendensiyasini kuzatish mumkin. Ammo globallashuv jarayoni millatchilik va etnotsentrizmning paydo bo‘lishiga olib keladigan va jamiyatni texnologik rivojlanishning asosiy jarayonida ishtirok etishdan ajratib qo‘yishi mumkin bo‘lgan “kulturofil” ta’sir kabi ekstremalga aylanishi mumkin. Xususan, SSSR ijtimoiy-madaniy rivojlanishning asosiy oqimidan, hatto texnologik taraqqiyotdan ma’lum darajada uzoqlashishga intildi. Bu G‘arbgan nisbatan postsoviet makonida texnologiyalarning rivojlanishidagi zamonaviy kechikishning sabablaridan biridir. (ammo asosiysi emas). Bunday izolyatsiya nafaqat kapitalizmga qarshi kurash, balki ko‘p jihatdan tarixning ma’lum bir davrida avtonom rivojlanish uchun juda qulay bo‘lgan kommunizm ijtimoiy-siyosiy mafkurasining tarqalishi bilan bog‘liq edi. Globallashuv tovarlarning transmilliy oqimlari, siyosiy tushunchalar, madaniy kodlar va mahsulotlar kabi ko‘plab xususiyatlarga ega. Bu sifatlar transmilliy tashkilotlardan nafaqat iqtisodiy import-eksport, balki tegishli siyosiy va madaniy falsafani ishlab chiqishni ham talab qiladi. Bunday sharoitda milliy davlatlar suverenlikdan to‘xtaydi, lekin o‘ziga xos geografik joylashuvi va jahon iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lgan global shaharlar toifasiga o‘tadi. Iqtisodiy va madaniy avtonomiya qudratli transmilliy

¹⁰³ Waters, M. A world of difference in Globalization. – London: Routledge, 1995. – P. 3.

¹⁰⁴ Dahal, M.K. Impact of Globalization in Nepal. – Kathmandu: NEFAS & FES, 2005. – P. 57.

¹⁰⁵ Waters, M. A world of difference in Globalization. – London: Routledge, 1995. – P. 4.

korporatsiyalarning paydo bo‘lishi bilan tahdid qiladi. Boshqacha aytganda, globallashuv mahalliylashtirilganlikning xalqarolashuv jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan. Natijada madaniy o‘zgarishlar “madaniy globallashuv” deb ataladi. Ommaviy axborot vositalari butun dunyodagi odamlarning ongiga cheksiz ta’sir ko‘rsatishi orqali “madaniy globallashuv”ni tezlashtirmoqda. Axborot makonida madaniyatlar aralashmasi mavjud bo‘lib, uning natijasida avval madaniyatlarning duragaylanishi ro‘y berib, so‘ngra g‘arb madaniyatining global hukmronligi ta’minlanadi. Xalqaro media-magnatlar joylashgan rivojlangan mamlakatlar o‘z madaniyatini rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarga tarqatadilar, shuning uchun g‘arb madaniyati kirib kelgan mamlakatning madaniyati uni asta-sekin idrok etadi va milliy munosabatlar darajasiga bog‘liq bo‘lgan katta yoki kichik intensivlik bilan o‘z voqeliklariga moslashtiradi. Shu tarzda madaniy globallashuv jarayonining umumiyligi rivojlanishiga hissa qo‘sadi, bir xil ta’sirlami keltirib chiqaradi, jarayonning barcha ishtirokchilarini birlashtiradi, madaniyatlar mafkuralardagi farqlarni tekislaydi va mavjud tengsizliklarni yashiradi. Yuqori texnologiyalar zamonaviy dunyoning markazida bo‘lib, kommunikatsiya texnologiyalarini madaniy o‘zgarishlarning epitsentriga aylanmoqda. Shu boisdan ommaviy axborot vositalari dunyo miqyosida madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini ta’minlash uchun foydalanadigan kommunikatsiya texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladi. Qolaversa, ular nafaqat madaniyatni o‘zgartirishga, balki turli ijtimoiy tizimlarda mutlaqo yangi madaniyatni o‘ylab topish va targ‘ib qilish imkoniyatiga ham egadirlar.

Shu munosabat bilan OAVni monopoliyachi texnologik institutlar deb qarash mumkin, N.Postman ularni «texnopoliyalar» deb atagan edi¹⁰⁶. Ommaviy axborot vositalari ko‘p asrlik milliy madaniyatlarni globallashuv jarayonida o‘zlarini yaratgan madaniyat bilan almashtirganiga, madaniyatning asosiy komponentlaridan biri bo‘lgan ko‘plab qadimiy tillar (masalan, Janubiy Amerikada arxi tili va Kanada xalqlarining bir qator ko‘hna tillari) yo‘qolib ketganiga ko‘plab

¹⁰⁶ Postman, N. Technopoly. – New York: Knopf, 1992. – P. 56.

misollar keltirsa bo‘ladi. Madaniy sohalarda ommaviy axborot vositalari va texnologik yutuqlar ta’sir qilgan yana bir jihat – vaqt, makon va inson munosabatlari tushunchalari. “Just-in-time” (Ayni o‘z vaqtida) texnologiyalari (JIT) yoki axborot oqimlari real vaqtida translyatsiya yangiliklarining “yangiligi” haqidagi tasavvurni o‘zgartirdi. Geografik masofalar zamonaviy aloqa tizimlarida uzoq vaqtdan beri ahamiyatsiz bo‘lib kelgan, shunga o‘xshash vaziyat shartnomaviy va shaxsiy bo‘lmagan odamlar munosabatlarida shakllangan. Ommaviy axborot vositalari sonining ko‘payishi va ularning xilma-xilligini ta’minlash odamlar o‘rtasidagi bevosita muloqotning qisqarishiga olib keldi. Qadimgi davrlarda muloqot jarayonida til, masofa va kontekst muhim masalalar hisoblangan, ammo tezkor yoki sekin aloqa vositalaridan zamonaviy foydalanish va ularning xilma-xilligi insonning ongida hal qiluvchi omil bo‘lib, uning muloqotida asosiy rolni o‘ynaydi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari madaniy o‘zgarishlarning yakuniy natijasi bo‘lgan globallashuv jarayonida katta rol o‘ynaydi. Frankfurt maktabi vakili bo‘lgan ommaviy axborot vositalari, madaniyat sohalari globallashuv jarayonining tarqalishiga va uning maqsadlariga erishishga, mavjud milliy madaniyatlarni o‘zgartirishga yoki tubdan yangi madaniyatni joriy etishga hissa qo‘sadigan madaniyatni ishlab chiqaradi. Qadriyatlar madaniyatning belgilovchi elementi, uning o‘zagidir. Madaniyat qadriyat nuqtayi nazaridan jamiyatdagi qadriyatlarni ochib beruvchi, tartibga soluvchi, saqlovchi va uzatuvchi o‘ziga xos ijtimoiy mexanizm turidir. Madaniyatning yaxlitligi doimo umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatning sintezini o‘z ichiga oladi. Madaniyatning eng hayratlanarli xususiyatlaridan biri shundaki, u har qanday umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishdagi har qanday taraqqiyot bilan birga rivojlanib, o‘zining milliy o‘ziga xosligini saqlab qolishi mumkin. Zamonaviy integratsiya jarayonlari sharoitida xristian diniga asoslangan G‘arb madaniyatiga islom, sharq madaniyati va boshqalar kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy dunyo madaniy tizimlarning ochiqligi, ularning xilma-xilligi bilan

tavsiflanadi. Bunday dunyoda hayot yanada qiziqarli va qiyinchiliklarga javob topish qulayroq bo‘ladi¹⁰⁷.

Zamonaviy jamiyat madaniyati madaniyatning eng xilma-xil qatlamlari yig‘indisidir, boshqacha aytganda, u hukmron madaniyat va submadaniyatlardan, hattoki qarshi madaniyatdan iborat. XX asr xalqlar va madaniyatlarning “ekumenik uchrashuvi” asri deb atalgan. Bitta madaniyatning qadriyatlari umumbashariylikni da’vo qila olmaydi. Madaniy farqlar global, umuminsoniy muammolarni hal qilishda ma’lum psixologik, iqtisodiy va siyosiy to‘sqliarni keltirib chiqaradi. Madaniyatlar muloqoti potensial va haqiqiy qarama-qarshiliklarni yengishga yordam beradi. Madaniy muhit tez o‘zgarib, tobora ko‘p jinsli bo‘lib bormoqda.

Madaniy xilma-xillik insoniy jamiyatning transchegaraviy migratsiyalar, milliy va boshqa ozchiliklarning alohida madaniy o‘ziga xosligi, globallashuv oqibati, dunyoning barcha hududlarida o‘zaro aloqalarning o‘sishi va axborot sohasidagi yutuqlar hamda aloqa vositalarining rivojlanishi natijasida yuzaga chiqqan muhim shartidir.

Borgan sari aksariyat odamlar “ko‘p madaniyatli” me’yorda yashaydilar va o‘zlarining bir qancha madaniy o‘ziga xosliklarini boshqarishga majbur bo‘lishadi. Madaniy xilma-xillik rivojlanishi va to‘g‘ri boshqarilishi kerak bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy foyda keltiradi. Boshqa tomondan, o‘sib borayotgan madaniy xilma-xillik yangi ijtimoiy va siyosiy muammolarni, ko‘pincha, qo‘rquv va inkor etishni keltirib chiqaradi. Stereotiplar, irqchilik, ksenofobiya, murosasizlik, kamsitish va zo‘ravonlik mahalliy va milliy hamjamiyatlarning tinchligi, mohiyatiga tahdid solishi mumkin.

Madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot demokratik muloqotning eng qadimiy va asosiy usuli sifatida chetlanish, zo‘ravonlikni yengishga yordam beradi. Bu ko‘p madaniyatli dunyoda tinch va konstruktiv hamkorlik qilish hamda jamiyat va daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirish imkonini beradi. Siyosiy ma’noda “madaniyatlararo muloqot” atamasi haligacha aniq ta’rifni olgani yo‘q, biroq u

¹⁰⁷ Буряк Н.Ю. Культура языковой личности в поликультурной среде ВУЗа. Дисс... на соиск. степени к. культурологии. КГУКИ. – Краснодар, 2012. – С. 124.

tamaddunning izchil rivojlanishiga, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni yengib o‘tishga xizmat qilishi yaqqol ko‘rinib turibdi. Umumiy ma’noda madaniyatlararo muloqotning maqsadi ko‘p madaniyatli dunyoda tinch va konstruktiv hayotni ta’minlash, jamiyat va dahldorlik tuyg‘usini rivojlantirishdan iborat. Madaniyatlararo muloqot inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligiga hurmatni kuchaytirish orqali nizolarning oldini olish, hal qilish vositasi ham bo‘lishi mumkin. Xususan, ilmiy adabiyotlarda madaniyatlararo muloqotning quyidagi maqsadlari keltirilgan:

- dunyo haqida fikr almashish, atrofdagi dunyoga boshqa nuqtayi nazardan qaraydiganlarning munosabatini tushunish;
- turli xalqlarning madaniy an’analari va g‘oyalari o‘rtasidagi o‘xhashlik va farqlarni aniqlash;
- nizolarni zo‘ravonlik bilan hal qilmaslik to‘g‘risida konsensusga erishish;
- madaniy xilma-xillikni demokratik yo‘l bilan boshqarishga ko‘maklashish, mavjud ijtimoiy va siyosiy mexanizmlarning barcha turlariga zarur tuzatishlar kiritish;
- xilma-xillikni tahdid sifatida qabul qiladiganlar va uni afzallik deb biluvchilar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish;
- ilg‘or tajriba almashish, ayniqsa, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy xilma-xillikni demokratik boshqarish va ijtimoiy hamjihatlikni rag‘batlantirish;
- turli madaniyat vakillari tomonidan yangi loyihalarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish.

“Madaniyatlararo muloqot” atamasining ta’rifi bilan solishtirganda, uni tavsiflovchi shart-sharoitlar, “qulay omillar” ni tavsiflash ancha oson. Ilmiy tadqiqotlarning to‘plangan tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dastlab, bajarilishi yoki jarayonda erishilishi kerak bo‘lgan kamida oltita muhim shart mavjud:

- muloqotda ixtiyoriy ishtirok etish;
- barcha ishtirokchilarning teng qadr-qimmati;
- ochiqlik, qiziquvchanlik va sodiqlik, muloqotda “g‘alaba qozonish” istagi yo‘qligi bilan tavsiflangan munosabat (har ikki tomonda);

- madaniy o‘xshashlik va farqlarni hisobga olishga tayyorlik;
- o‘ziga xos va “begona” madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarning minimal darjasи;
- madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilish uchun umumiy til topish qobiliyati.

Yevropa Ittifoqi madaniyatlararo muloqot belgilarini juda kam keltiradi, ammo uni 2003-yildagi “Opatiy deklaratsiyasi”dan topish mumkin¹⁰⁸. “Madaniyatlararo dialog bo‘yicha oq kitob” haqidagi konsultatsiya jarayoni maqsadida Yevropa Ittifoqi quyidagi taxminiy ifodalashlarni taklif etadi: madaniyatlararo dialog turli madaniyatlarga mansub bo‘lgan insonlar va guruhi o‘rtasidagi, boshqalarni global tushunishni yanada chuqurlashtirishga olib keladigan ochiq va hurmatga sazovor fikrlar almashinuvidir¹⁰⁹. Bu yerda “ochiq va hurmatga loyiq” ta’rifi “qadriyatlar tengligiga asoslangan sheriklar” ma’nosini, “fikrlar almashinushi” madaniy o‘ziga xoslikni ochib beruvchi har qanday o‘zaro harakatni, “guruhi” o‘z vakillari orqali harakat qiladigan turli jamoa (oila, jamoat, assotsiatsiya, xalq)ni anglatadi. “Madaniyat” hayot tarzi, odatlar, e’tiqodlar va avloddan avlodga yetkaziladigan barcha narsalarni, shuningdek, badiiy ijodning turli shakllarini o‘zida jamlaydi, “dunyon qabul qilish” qadriyatlar va fikrlash usullarini ifodalaydi.

Madaniyatlar muloqoti ularning o‘zaro qiymatlarining o‘zgarishiga va aqliy hamda moddiy mehnatlari natijalarini o‘zaro boyitishga olib keladi. Madaniyatlar muloqoti turli darajalarda amalga oshiriladigan hamkorlikka asoslanadi:

- 1) shaxslararo (turli madaniyatlarga mansub odamlar uchrashuvi);
- 2) professional (turli kasb vakillarining xizmat safarlari);
- 3) an’anaviy (etnoslar, katta va kichik xalqlarning aloqalari);
- 4) davlatga xos (davlat va siyosiy qurilmalarning hamkorligi);

¹⁰⁸ Межкультурный диалог как элемент сближения стран и народов Совет Европы о развитии межкультурного диалога // Аналитическое управление Совета Федерации Федерального Собрания Российской Федерации. – 21.09.2013. – URL: <https://refdb.ru/look/2353388.html> (дата обращения: 24.08.2022).

¹⁰⁹ Белая книга Совета Европы по межкультурному диалогу. Жить вместе в равном достоинстве. Утверждена министрами иностранных дел стран-членов Совета Европы на 118-й сессии Комитета министров Страсбург, 7 мая 2008 года // Совет Европы. – Июнь 2009 г. – URL: <https://www.coe.int/ru/web/moscow/belaa-kniga> (дата обращения: 24.08.2022).

5) xalqaro (xalqaro tashkilotlarning faoliyatları).

Muloqot jamiyat madaniy merosining erkin va ochiq almashinuvi sifatida tavsiflanadi. Bunday almashinuv faqat tinchlik sharoitida, zo‘ravonlik, harbiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa bosimlarni inkor etadigan vaziyatlardagina sodir bo‘lishi mumkin. Birorta madaniyat qobig‘iga o‘ralib rivojiana olmaydi. Madaniyatining o‘ziga xosligini saqlab qolish va boshqalarning ovozini go‘yoki dunyoga o‘zgacha bir nigoh sifatida his etmoq uchun boshqa madaniyatlarni qabul etmoq va tushunmoq zarur. Bu o‘rinda muloqot barcha narsani qamrovchi va universal xarakter kasb etadi¹¹⁰. Suhbat sheriklarni boyitadi, chunki har bir kishi bunda o‘z imkoniyatlari chegarasini emas, balki cheksiz potensial kengayishini ko‘radi. Madaniyatlarning har biri boshqa madaniyatlar tajribasini nafaqat ekvivalent, balki o‘z madaniyatini boyitish sifatida ham qabul qilishi kerak. Qolaversa, har bir madaniyat o‘zining xususiyatlari va farqlari bilan qiziqarli va qimmatlidir.

Har qaysi madaniyat ma’lum ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga muqobililikni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, madaniyatlar muloqoti turli xalqlar vakillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishning soddalashishiga va turli dunyoqarashlar asosida ular o‘rtasidagi ziddiyat darajasining pasayishiga olib keladi. Bu barchaga boshqa madaniyatlarning aniqlangan farqlarini o‘z madaniyatiga qabul qilish imkonini beradi. Tomonlarning o‘zaro hurmatisiz madaniyatlar muloqoti mavjud bo‘la olmaydi, chunki bir-biriga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishgina elatlararo va millatlararo munosabatlarda barqarorlik, tinchlik, xavfsizlikni mustahkamlashni ta’minlaydi. Ideal holda, globallashuv va yuqori texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida madaniyatlararo muloqot insoniyat tamaddunining izchil rivojlanishi uchun madaniyatlararo qadriyatlarni butunicha shakllantirishi kerak.

¹¹⁰ Буряк Н.Ю. Лингвопедагогическая культура: учебное пособие для студентов направления подготовки бакалавриата. – Краснодар: Издательский дом «ХОРС», 2020. – С. 218.

2.3-§. Globallashuv davrida madaniyatlararo aloqa tizimidagi madaniy o‘ziga xoslik

Rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv jarayoni turli davlatlar, xalqlar va madaniyatlarning o‘zaro aloqalari va bog‘liqliklari kengayishiga olib keladi. Hozirgi vaqtida boshqa xalqlar madaniyati ta’sirida bo‘lmagan madaniyatlarni topish mumkin emas. Siyosat, iqtisodiyot va madaniyatdagi global o‘zgarishlar madaniyatlar va xalqlarning jiddiy tarqoqligi bilan birga keladi, shuning uchun alohida xalqlar madaniy o‘zini namoyon qilishga va o‘zlarining madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga intilishadi. Amerika madaniyati va millati shakllanishining asosiy shart-sharoit va omillarini o‘rgangan E.A.Usovskaya millatlararo munosabatlarning bir-biriga zid xarakterini ko‘rsatib, shunga e’tiborni qaratdiki, “erituvchan qozon” ta’limoti o‘rniga kelgan multikulturalizm milliy tenglik muammosining o‘tkirlashuviga sabab bo‘ldi¹¹¹.

Zamonaviy fanda tez-tez ishlatiladigan “o‘ziga xoslik” tushunchasini ko‘rib chiqaylik. O‘ziga xoslik – bu shaxsning unga ijtimoiy-madaniy makonda o‘z o‘rnini aniqlash va uni o‘rab turgan dunyoda erkin harakat qilish imkonini beruvchi ma’lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini anglashidir. Har bir shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy va madaniy jamoalarning a’zosi bo‘lishi mumkin, shuning uchun guruhga a’zolik turiga qarab, ilmiy adabiyotlarda o‘ziga xoslikning quyidagi turlari ajratiladi: milliy, fuqarolik, etnik, madaniy, kasbiy, diniy, siyosiy. Madaniyatshunoslik va madaniyatlararo muloqotda o‘ziga xoslik milliy va madaniy o‘ziga xoslikning asosi, boshqasidan farqli o‘laroq, o‘ziga xoslik ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan, madaniyatlararo muloqot kommunikantlarning o‘zaro ta’siri sodir bo‘lganda, qarama-qarshi o‘ziga xosliklarning munosabati sifatida qaralishi kerak. A.P.Sadoxinning so‘zlariga ko‘ra, madaniy o‘ziga xoslik – bu shaxsning o‘ziga,

¹¹¹ Усовская Э.А. Третий российский культурологический конгресс с международным участием «Креативность в пространстве традиции и инновации»: тезисы докладов и сообщений. – СПб.: Эйдос, 2010. – С. 224.

boshqa odamlarga, jamiyatga va butun dunyoga nisbatan qadriyatli munosabatini shakllantiradigan ma'lum bir madaniyat yoki madaniy guruhga mansubligi¹¹².

Madaniy o'ziga xoslikni kommunikativ jarayonga ta'sir o'tkazuvchi ahamiyatli uskuna sifatida qarash muhimdir, qolaversa, madaniy rang-baranglik davrida boshqa madaniyatlarni bilmay turib, madaniy o'z-o'zini namoyon etish imkonsiz. Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, madaniy o'ziga xoslikning mohiyati undan foydalanuvchi individ tomonidan tegishli madaniy normalar, namunali xulqlarni, qadriyatlar yo'nalishi va tilni tushunib turib qabul qilishda, o'z "men"ini muayyan jamiyatda qabul qilingan xarakteristika va haqiqatlarni tushunishda yuz ko'rsatadi.

J.A.Verxovskayaning fikricha, madaniyatlararo aloqa jarayonida har bir kishi bir vaqtning o'zida ikkita asosiy muammoni hal qiladi: madaniy o'ziga xosligini saqlab qoladi va boshqa madaniyatga qo'shiladi¹¹³. Turli madaniyat vakillarining "o'zimizniki" va "begona"ga bo'linish xususiyatini madaniyatlararo aloqada madaniy o'ziga xosliklar paydo bo'lishi bilan bog'liq muammolar doirasi belgilaydi. Olimning ta'kidlashicha, madaniyatlararo aloqada "o'zimizniki" va "begona" o'rtasidagi chegara masalasi yuzaga chiqishi muqarrardir. "O'zimizniki" sifatida kishi kelib chiqqan, u yashaydigan va tarbiyalanadigan, tilida gapiradigan va o'ylaydigan, an'analarini xotirasida asraydigan, o'z fe'l-atvoriga singdiradigan madaniyat nazarda tutiladi. O'zimizniki va begona madaniyat o'rtasidagi chegara, bir tomondan insonga bog'liq bo'limgan sharoit bilan, ikkinchi tomondan esa, uning erkin tanlovi bilan belgilanishini V.M.Mejuyev odilona ko'rsatib o'tgan¹¹⁴. Mazkur chegarani aniqlash oson emas.

K.Levi-Stross ibtidoiy jamoalar hayotiy faoliyatini tashkil qilish prinsipida "o'zimizniki" – "begona" dixotomiyasiga asoslanib, ular uchun xarakterli bo'lgan sodda etnotsentrizmning orqa tomoni – "o'zimizniki" va "begona" o'rtasidagi

¹¹² Садохин А.П. Межкультурная коммуникация. – М.: Мысль, 2004. – С. 57.

¹¹³ Куропятник А.И. Мультикультурализм. Нация. Идентичность (перспективы мультикультурного развития России) // Глобализация и культура: аналитический подход. – СПб., 2003. – С. 128.

¹¹⁴ Межев В.М. Философия культуры в системе современного знания // Личность. Культура. Общество. – 2020. – Вып. 2 (22). – С. 143.

masofani o‘rnatishga urinish ekanligiga e’tibor qaratdi¹¹⁵. Olimning taxminicha, insoniy madaniyatning rang-barangligi uning tashuvchilari ihotalanganligi bilan kamdan kam hollarda belgilanadi, aksariyat hollarda, ularni birlashtiradigan aloqalar bilan shartlanadi.

Endi “milliy o‘ziga xoslik” tushunchasining xususiyatlarini qarab chiqamiz. Bu iborani tushunishga bir necha yondashuvlar mavjud. A.I.Kuropyatnik milliy o‘ziga xoslikni shakllantirish va aniqlash uchun yagona belgilar to‘plami yo‘qligi haqida yozadi¹¹⁶. X.Seton-Uotson taxminicha, milliy o‘ziga xoslik jamiyatning katta qismi unga ishongandagina paydo bo‘ladi¹¹⁷. F.Bart milliy o‘ziga xoslikning quyidagi belgilarini ko‘rsatdi: o‘zini jilovlash, siqish va biologik qayta ishlay olish qobiliyati, umumiy fundamental madaniy qadriyatlar mavjudligi, o‘zaro aloqa maydonini yaratish, boshqa jamoatlar va guruhning o‘z a’zolari tomonidan alohida guruh sifatida belgilanish¹¹⁸. Biroq ayrim olimlar bu yondashuvga qo‘shilmaydilar. Xususan, Y.E.Lane va S.Erssonlarning taxmin qilishlaricha, boshqa madaniyat vakillarining katta miqdordagi jamiyatiga qo‘shilgan holatda ham o‘ziga xoslikni saqlab qolsa bo‘ladi¹¹⁹. M.Billig milliy o‘ziga xoslik, birinchi navbatda, kognitiv va sotsiologik fenomen ekanligi borasida yozadi¹²⁰.

Milliy o‘ziga xoslikni etnomadaniyatga taalluqlilikka asoslanib belgilaydigan olimlar farazicha, u eng avvalo, tarixiy ildizlar hamda din, til va butun milliy me’morchilik orqali ishlab chiqariladigan ramziy shakllarning spetsifikasi bilan shartlangan. Ayrim olimlar milliy o‘ziga xoslikni siyosiy (fuqaroviy va hududiy) belgilar bilan aniqlashga moyil. E.Smit fikriga ko‘ra, milliy o‘ziga xoslik etnik va siyosiy-hududiy komponentlarni o‘zida, albatta, birlashtiradi.¹²¹

Zamonaviy dunyoda o‘zaro madaniyatlararo ta’sir odatiy holga aylandi. Oldingi vaqtarda turli xalqlarning tanlangan vakillarigina bir-birlari bilan

¹¹⁵ Levy-Strauss, C. Race et histoire. – Meditations, 1973. – P. 21.

¹¹⁶ Куропятник А.И. Мультикультурализм. Нация. Идентичность (перспективы мультикультурного развития России) // Глобализация и культура: аналитический подход. – СПб., 2003. – С. 143.

¹¹⁷ Seton-Watson, H. Nations and States. – L., 1977. – P. 58.

¹¹⁸ Barth, F. Introduction // Ethnic Groups and Boundaries: The Social Organization of Cultural Difference / ed. By F. Barth. – Bergen; Oslo; L., 1969. – P. 35.

¹¹⁹ Ersson, S. Culture and Politics: A comparative Approach. – Aldershot, 2005. – P. 76.

¹²⁰ Billig, M. Social Psychology and Intergroup Relations. – L., 1976. – P. 90.

¹²¹ Smith, A.D. National Identity. – L., 1991. – P. 21.

uchrashib, muloqotda bo‘lishar edi, ammo bugun madaniyatlararo uchrashuvlar qariyb hamma joyda – ishda, maktabda va hatto supermarketda ham sodir bo‘ladi. Ayrim olimlar boshqalar ham xuddi ulardek o‘yaydi, o‘zini tutadi va atrofdagi dunyoni qabul qiladi deb taxmin qilishadi (psevdokonfliktlar nazariyasi)¹²². Shu bilan birga, ko‘pchilik olimlar fikricha, odamlar ayrim xabarlarning muayyan ahamiyatini nazarda tutishlari mumkin, biroq ularning muxoliflari unga boshqa ma’no berishlari va bu real ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan tushunmovchilikka olib kelish ehtimoli bor. Madaniyat ana shunday tushunmovchilik va ziddiyatlarning sabablaridan biri bo‘lishi mumkin, chunki u odamlar tevarakdagi dunyoni qay tarzda qabul qilishlari, unga qanday ma’no berishlari va qabul qilinganlarga qanday munosabat bildirishlariga sezilarli ta’sir o‘tkazadi¹²³.

Madaniyat insoniy muloqotlarga ma’lum darajada ta’sir o‘tkazishiga qaramay, u muloqtning barcha qirralarini tushuntira olmaydi, chunki odamlarning bir-birlari bilan o‘zaro muloqot qilishlari va ziddiyatlarni bartaraf etishlari ularning individual o‘ziga xosliklariga bog‘liq. Mazkur individual xarakteristikalar ularning kimligi, qayerda tug‘ilganligi, atrofdagi olamni qanday qabul qilishlari, tengqurlari va OAVning qanday xabarlarini o‘zlashtishlari, o‘zgalarga qanday munosabat bildirishlari, ularning fikricha, boshqalar ularni qanday qabul qilayotganligiga, ular o‘zaro qanday harakat va muloqot qilishlariga asoslanadi¹²⁴.

¹²² Bruner, J.S. & Tagiuri, R. The perception of people. In G. Lindzey (Ed.). Handbook of social psychology Vol. 1. – Cambridge, MA: Addison-Wesley, 1954. – P. 541; Krippendorff, K. & Bermejo, F. On communicating. – New York, NY: Routledge, 2021. – P. 83.

¹²³ Jandt, F.E. An introduction to intercultural communication; Identities in a global community (7th ed.). – Thousand Oaks, CA: Sage, 2013. – P. 71; Klopff, D.W. Intercultural encounters: The fundamentals of intercultural communication (4th ed.). – Englewood, CO: Morton Publishing Company, 1998. – P. 72; Lustig, M.W. & Koester, J. Intercultural competence: Interpersonal communication across cultures. – Boston, MA: Pearson, 2013. – P. 64; Oetzel, J.G. Intercultural communication: A layered approach. – New York, NY: Vango Books, 2009. – P. 53; Samovar, L.A. & Porter, R.E. Communication between cultures (8th ed.). – Boston, MA: Wadsworth Cengage Learning, 2020. – P. 49.

¹²⁴ Adler, R.B., Rodman, G. & du Pré, A. Understanding human communication (12h ed.). – New York, NY: Oxford University Press, 2013. – P. 46; DeVito, J.A. The interpersonal communication book (14th ed.). – Boston, MA: Pearson, 2015. – P. 61; Doise, W. Levels of explanation in social psychology. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 90; Gamble, T.K. & Gamble, M. Communication works (11th ed.). – New York, NY: McGraw-Hill, 2021. – P. 77.

O‘z tabiatiga ko‘ra, madaniyatlararo butunlay tushunmaslik¹²⁵ va ziddiyatlar¹²⁶ murakkab hodisadir. Ular madaniyatni, idrok etishni, o‘ziga xoslikni, etnotsentrizmni, ishonchli munosabatlarni ta’minlash muammosini, ziddiyatlarni boshqarish san’atini, madaniyatlararo aloqa vakolatini, turli xalqlar vakillarini birlashtiradi. Turli ilmiy tizimlarda yuqoridagi turkiy unsurlarni izohlovchi ko‘plab nazariyalar ishlab chiqilgan. Taassufki, faqat ayrim ilmiy ishlardagina barcha unsurlarning o‘zaro murakkab aloqasi o‘rganilgan.

Shu bilan birga, nazariy asoslarni shakllantirish madaniyatlararo qaramaqarshilik ham ziddiyatlar ichidagi murakkab sabab-oqibat aloqalarini o‘rganish uchun foydali va zarurdir¹²⁷.

L.Fon Bertalanfi sistemasi nazariyasiga muvofiq¹²⁸, alohida unsurlar hodisani tushuntira olmaydi, chunki oxirgisi uning ihotalangan har qanday qismidan ko‘ra ko‘proq. Aloqa muayyan muhitda ro‘y beradigan integratsiyalashgan jarayon, bu yagona hodisa emas. Shunga ko‘ra, mazkur jarayonni tushunish uning tarkibiy unsurlarini aniqlashga muhtojdir. Transintizomlilik¹²⁹ va ijtimoiy-ekologik model¹³⁰ turli tadqiqot va nazariyalarni birlashtirish yo‘li bilan alohida tartibotlar doirasidan chiqadigan nazariy asosni yaratishga imkon berishi bilan qiziqarli bo‘lgan o‘xhash qadriyat yondashuvlariga asoslanadi. Bu alohida unsurlarning o‘zaro aloqasini tushunishga yordam beradi, hatto murakkab muammolarni hal etishning potensial yechimini ham taklif etadi¹³¹.

¹²⁵ Chen, G.M. & Starosta, W.J. Foundations of intercultural communication. – Needham Heights, MA: Allyn & Bacon, 1998. – P. 103; Gudykunst, W.B. Theorizing about intercultural communication. – Thousand Oaks, CA: Sage, 2019. – P. 116.

¹²⁶ Canary, D.J. & Lakey, S.G. Managing conflict in a competent manner: A mindful look at events that matter. In J.G. Oetzel & S. Ting-Toomey (Eds.). The Sage handbook of conflict communication: Integrating theory, research, and practice. – Thousand Oaks, CA: Sage, 2006. – P. 189; Roloff, M.E. & Wright, C.N. Social cognition and conflict. In J. G. Oetzel & S. Ting-Toomey (Eds.), The Sage handbook of conflict communication: Integrating theory, research, and practice (2nd ed.) Thousand Oaks: Sage, 2013. P. 147.

¹²⁷ Frodeman, R. The Oxford handbook of interdisciplinarity. New York, NY: Oxford University Press, 2020. P. 80.

¹²⁸ Von Bertalanffy, L. General system theory: Foundations, development, applications. New York, NY: George Braziller, 1968. P. 57.

¹²⁹ Mittelstrass, J. Transdisziplinarität — wissenschaftliche Zukunft und institutionelle Wirklichkeit. – Constance: Universitätsverlag Konstanz, 2003. – S. 29.

¹³⁰ Bronfenbrenner, U. & Ceci, S.J. Nature-nurture reconceptualized in developmental perspective: A bioecological model. Psychological Review. – 1994. – 101(4). – P. 571.

¹³¹ Frodeman, R. The Oxford handbook of interdisciplinarity. – New York, NY: Oxford University Press, 2020. – P. 78.

Mohiyatan, globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotni o'rganishning nazariy asosi madaniy o'ziga xoslikni, ziddiyatning mohiyatini, madaniyat, idrok va etnotsentrizmning turli xalqlar vakillari o'rtasida tushunmovchilikka olib kelishini sinchiklab o'rganishga tayanadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ishonchli munosabatlarni mustahkamlash va madaniyatlararo aloqa kompetensiyasini rivojlantirish orqali nizolarni samarali boshqarish yoki ularning oldini olish variantlari ko'rib chiqiladi. Bu kompetensiya ishonch, bilish va ijtimoiy metakognitsiya orqali shakllanadi. Tizimlar nazariyasi va ijtimoiy-ekologik modelga muvofiq madaniyatlararo tushunmovchilik hamda nizolarni muvaffaqiyatli boshqarishning turli elementlarini o'rganish orqali madaniyatlar to'laqonli konstruktiv muloqotiga imkon beruvchi nazariy tuzilmalarni ishlab chiqish mumkin. Turli nazariyalarning triangulyasiyasiga asoslangan keng nazariy asos potensial qarama-qarshilikni kamaytiradi. U fikrlar, madaniyatlar, idrok etishlar, o'ziga xosliklar, etnotsentrizm, ishonch, ziddiyatlar, anglash, ijtimoiy metabolish va madaniyatlararo aloqaviy vakolatlarni tadqiq etish imkonini beradi.

Inson dunyoni va dunyo insonni qabul etishi, qaysidir darajada, uning o'ziga xosligini belgilaydi. O'ziga xoslik insonlarning muloqot qilishi – xabarni qabul qilish va sharhlashiga¹³², shuningdek, ularning o'z-o'zini idrok etishi, boshqalar bilan o'zaro munosabatni nazarda tutuvchi o'ziga baho berishiga ta'sir o'tkazadi. O'zi haqidagi tasavvurlar inson o'zini qanday ko'rishiga, boshqalar bu odamni qanday qabul qilishiga va o'ylashiga tegishli. Inson o'z obrazi orqali ijro etayotgan rolni, o'zi taalluqli deb biladigan kategoriyanı, o'zini ta'riflash yoki aniqlashtirish uchun foydalanadigan so'zлari, o'zgalar uni qanday ko'rishayotganini tushunish (metabolish)ni o'zida jamlaydi¹³³. "Men" obrazi, shuningdek, "Men-sxema" deb ham ataladi va o'zida odamlar "Men"ini tanishlari uchun foydalanadigan chizgilarни saqlaydi. Mazkur chizgilar va insonni belgilaydigan barcha axborotlar samoreferant kodlashtirish deb ataladigan aloqa tizimida tashkil topadi¹³⁴.

¹³² Doise, W. Levels of explanation in social psychology. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 97.

¹³³ Gamble, T.K. & Gamble, M. Communication works (11th ed.). – New York, NY: McGraw-Hill, 2021. – P. 83.

¹³⁴ Rogers, T.B., Kuiper, N.A. & Kirker, W.S. Self-reference and the encoding of personal information // Journal of Personality and Social Psychology. – 1977. – No 35. – P. 681.

O‘ziga past baho beruvchi kishilarga, odatda, ijtimoiy parokandalik hamroh bo‘ladi. O‘zi haqidagi salbiy tasavvur stereotiplar, xurofotlar va shuningdek, yolg‘on e’tiqodlarga aoslanadi¹³⁵, ular esa potensial ziddiyatli vaziyatlarni tug‘diradi. Shunday bo‘lsa-da, ilmiy jamoatchilikda stereotiplar va xurofotlar o‘ziga baho berishni tiklashda foydali bo‘lishi mumkin degan fikr taqdim etilgan¹³⁶. Manfiy qayta aloqa insonlarning o‘zlariga baho berishiga xavf soladi va o‘z-o‘ziga baho berishni tiklashga intilib, ushbu qayta aloqani berayotganlarning yanada salbiyroq baholanishiga olib keladi¹³⁷. O‘zini hurmat qilish inson o‘zini qanchalik sevishi va qadrlashini xarakterlaydi. U, ko‘pincha, yutuqlar yoki inson hayoti davomida duch keladigan omadsizliklar bilan bog‘liq¹³⁸. Shu tariqa, o‘zini baholash insonning o‘ziga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo‘lishiga ta’sir o‘tkazadi¹³⁹. Demak, inson o‘zini qanchalik ijobiy idrok qilsa, uning o‘ziga bergen bahosi o‘zini past baholaydigan odamnikiga qaraganda yuqori va u muloqotga ko‘proq moyil bo‘ladi. Qolaversa, o‘zini yuqori baholaydigan kishi, katta ehtimol bilan, o‘zgalar haqida ham ijobiy fikrda bo‘ladi, zero, shubhasiz, ular uni qabul qilishlarini kutadi. Bu odamlar o‘zining fe’l-atvoriga o‘zgalarning salbiy munosabatidan xavfsirashmaydi, shu bois boshqalar uni kuzatib turishganida ular o‘z so‘zları va harakatlarida qat’iy bo‘lishadi, shuningdek, o‘z sha’nlariga bo‘lgan konstruktiv tanqidni ham oson qabul qiladilar. Aksincha, o‘zini negativ idrok etadigan kishida o‘zini baholash darajasi ham past, u hamisha boshqalarni tanqid qilib, ulardan inkor kutishga moyil bo‘ladi.

U o‘z mehnatiga ham tanqidiy munosabatda, boshqalar tomonidan ehtimoliy ma’qullamasliklarga nisbatan sezuvchan bo‘ladi, chunki bunday kishi o‘zi yuqori turuvchi deb biladigan insonlardan tahdidni his qilib turadi va unga o‘zgalarning

¹³⁵ Fein, S. & Spencer, S.J. Prejudice as self-image maintenance: Affirming the self through derogating others. *Journal of Personality and Social Psychology*. – 1997. – No 73(1). – P. 36.

¹³⁶ Florack, A., Scarabis, M.C. & Gosejohann, S. The effects of self-image threat on the judgment of out-group targets // *Swiss Journal of Psychology*. – 2019. – No 64(2). – P. 94.

¹³⁷ Fein, S. & Spencer, S.J. Prejudice as self-image maintenance: Affirming the self through derogating others. *Journal of Personality and Social Psychology*. – 1997. – No 73(1). – P. 38.

¹³⁸ Gamble, T.K. & Gamble, M. *Communication works* (11th ed.). – New York, NY: McGraw-Hill, 2021. – P. 85.

¹³⁹ Adler, R.B., Rodman, G. & du Pré, A. *Understanding human communication* (12h ed.). – New York, NY: Oxford University Press, 2013. – P. 54.

ziddiyatli sharoitni yuzaga keltiradigan negativ sharhlaridan himoyalanish qiyin bo‘ladi¹⁴⁰.

Shunday qilib, o‘zini baholash inson muloqotiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Agar inson uchun muhim bo‘lgan odamlar uni ijobiy baholashsa, bu unga o‘zini qabul etilgan, hurmatli, munosib, jozibador va ahamiyatli his etishga imkon beradi. Buning natijasi esa inson uchun o‘zi to‘g‘risida ijobiy obrazning va o‘zini yuksak baholashning rivojlanishidir. Biroq fikrlari inson uchun muhim bo‘lgan odamlar u haqida negativ tasavvurda bo‘lishsa, unda o‘z-o‘zini manfiy idrok etish rivojlanadi, o‘zini baholash darajasi ham pasayadi.

Yuqoridagilar shundan guvohlik beradiki, o‘ziga xoslik vaqt ichida rivojlanadigan ijtimoiy qurilma bo‘lib, obyektiv va qat’iy emas, balki aniq subyektiv kategoriyadir¹⁴¹. Chunki tildan foydalanadigan har bir kommunikant o‘z nutqiga shaxsiy xususiyatini, dunyoqarashini singdirgan holda so‘zlaydi. Bu esa uning milliy-madaniy qarashi bilan bevosita bog‘liq. Tabiatan yumshoq, beozor insondan haqoratli so‘zlar chiqishi qiyin, bu uning o‘ziga xosligi hisoblanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, “Mazkur ijtimoiy qurilma boshqalar bilan o‘zaro aloqadagina mazmun kasb etadi”¹⁴². Sababi kommunikatsiya jarayoni adresat va adresantning muloqoti orqali aktuallashadi. Turli millatga mansub bo‘lgan kommunikatorlarning muloqoti har doim ham kutilgan natijani bermasligi aniq. “O‘ziga xoslik o‘zlashtirilmaydi va konkretlashtirilmaydi, u yaratiladi, aks ettiriladi va odamlar bilan o‘zaro harakatda qo‘llab-quvvatlanadi”¹⁴³. Bu degani boshqa shaxs nutqiga oid o‘ziga xoslik o‘z-o‘zidan boshqalar nutqiga ko‘chmaydi, ko‘chishi uchun esa qarashlar, tafakkur bir-biriga yaqinlashishi talab etiladi. Vaqt o‘tgan sari muloqot nutqidagi o‘ziga xoslik butunlay o‘zgarib ketmaydi, balki shakllanishda davom etadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, “inson umri davomida o‘zgarishiga qaramay, o‘ziga xoslik nisbatan muqim va sezilarli

¹⁴⁰ Hamacheck, D. Encounters with the self (3rd ed.). – Fort Worth, TX: Holt, Rhinehart and Winston, 2021. – P. 69.

¹⁴¹ Yep, G.A. My three cultures: Navigating the multicultural identity landscape. In J.N. Martin, T.K. Nakayama & L.A. Flores (eds.) // Readings in cultural contexts. – Mountain View, CA: Mayfield, 1998. – P. 82.

¹⁴² Collier, M.J. & Thomas, M. Cultural identities: An interpretive perspective. In Y.Y. Kim & W.B. Gudykunst (Eds.), Theories of intercultural communication. – Newbury Park, CA: Sage, 1988. – P. 75; Combs, A.W. & Snygg, D. Individual behavior (rev. ed.). – New York, NY: Harper & Row, 1959. – P. 46.

¹⁴³ Yep, G.A. My three cultures: Navigating the multicultural identity landscape. In J.N. Martin, T.K. Nakayama & L.A. Flores (eds.) // Readings in cultural contexts. – Mountain View, CA: Mayfield, 1998. – P. 84.

transformatsiyaga uchramaydi”¹⁴⁴. Shu bilan birga, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fikrlar bir madaniy kontekstdagi odamlar bir xil emas, balki bir madaniy kontekstda tarbiyalanadigan noyob individumlardir.

Tasavvur qilinadiki, har bir inson xavfsiz, jamoaviy hayotiy faoliyatga qo‘shilgan, oldindan ma’lum va davomiy o‘ziga xoslikka muhtoj bo‘ladi, zero u ijtimoiy borliqdagi ijobiy (idrok etiladigan) munosabatlarning asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, inson boshqa madaniyat vakillari bilan munosabatga kirishganda uning o‘ziga xosligi xavf ostida qoladi, chunki bunday munosabatlar natijasini oldindan aytib bo‘lmaydi, hatto “ayrim holatlarda insonning o‘ziga xosligining o‘zgarishiga ham olib kelishi mumkin”¹⁴⁵. Bu fikr yuqorida keltirilgan mulohazalarga biroz zid keladi. Demak, o‘ziga xoslikning o‘zgarishi yoki transformatsiyaga uchrash-uchramasligini oldindan aytib bo‘lmaydi. “Oldindan aytib bo‘lmaslik shu bilan shartlanadiki, turli madaniyatlarda turlicha imzoli va imzosiz signallardan foydalanilganligi muloqotni murakkablashtiradi. Shu o‘rinda, oldindan aytib bo‘lmas holatlarda xavfni his etish insonlarga xosdir”¹⁴⁶.

Shu munosabat bilan o‘z xatti-harakati va muloqoti, shuningdek, boshqalarning xatti-harakatlaridan xabardor bo‘lish va kuzatish noto‘g‘ri tushunish darajasini kamaytirishi mumkin. Bu, albatta, turli madaniyatlar vakillarining ma’nolari yanada yaqinlashishini taxmin qilish asosida samarali muloqotni ta’minlashda maxsus bilimlarni talab qiladi. Madaniyatlararo aloqa doirasida idrokni charxlash, diapazonni kengaytirish, kodlar, ssenariylar, o‘zga madaniyat vakillarining bilimlar injeneriyasidan xabardorlik muhimdir, zero bu o‘zini hamda boshqa kommunikantlar atvorini yanada aniqroq nazorat qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, muloqotning samaradorligi, agar sherik bilan metakognitsiyaga asoslangan konstruktiv o‘zaro ta’sir mavjud bo‘lsa, ortadi, bu esa odamga sherik bilan muloqot jarayonida o‘z xatti-harakati qanday va u qanday

¹⁴⁴ Keltikangas, J. The stability of self-concept during adolescence and early adulthood: A six-year follow-up study // Journal of General Psychology. – 1990. – No 117. – P. 367.

¹⁴⁵ Gudykunst, W.B. (ed.). Language and ethnic identity. – Clevedon, UK: Multilingual Matters, 1988. – P. 90; Lustig, M.W. & Koester, J. Intercultural competence: Interpersonal communication across cultures. – Boston, MA: Pearson, 2013. – P. 81.

¹⁴⁶ Berger, C.R. & Calabrese, R. Some explorations in initial interactions and beyond: Toward a developmental theory of interpersonal communication // Human Communication Research. – 1975. – No 1. – P. 102.

qabul qilinishini ko‘rish imkonini beradi. Ushbu o‘zaro ta’sir o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z xatti-harakatlarini moslashtirish va sherik tomonidan tushunmovchilik va noto‘g‘ri tushunchalarni bartaraf etish uchun umuman muloqotni o‘z ichiga oladi¹⁴⁷. Bu madaniyatlararo muloqotning bashoratlilik darajasini oshiradi, bu ishonchni mustahkamlaydi. O‘z navbatida, ishonch zaiflikka toqat qilishga muhtojdir, chunki boshqa odam unga taqdim etilgan ma’lumot bilan nima qilishi noma’lum. Biroq o‘z-o‘zini oshkor qilmasdan, ishonch bo‘lishi mumkin emas, chunki ishonch odam o‘z raqibiga ratsionalizatsiya va kognitiv uyg‘unlik orqali shubha prezumpsiyasini berishga moyil bo‘lganida, ko‘proq kelishmovchiliklarga toqat qilishni ta’minlaydi. Ishonch kuchliroq munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi, chunki u ishonchsizlik va xavotirni kamaytiradi, madaniyatlararo muloqotning umum taxminiyligini oshiradi. Ishonch barcha muloqotchilarining kommunikatsiya sharoitida ochiqroq bo‘lish ehtimolini oshiradi. Bu o‘zaro ochiqlik, inson o‘z sheringining xulq-atvori va muloqot xususiyatlari haqida ko‘proq bilimga ega bo‘lganda, boshqa madaniyat vakili xabarlarining ma’nosini tushunib, uni o‘z qarashlariga yaqinlashtiradi, noaniqlik va xavotirni yo‘q qiladi. Boshqa madaniyatlarning ma’nolarini o‘rganib, siz kommunikativ jarayonda o‘z-o‘zini nazorat qilish va xulq-atvor sifatini, xulq-atvoringiz va raqibingizning yuborilgan xabarlariga reaksiyasini bashorat qilish qobiliyatini oshirishingiz, madaniyatlararo muloqotda potensial yoki haqiqiy mojaro darajasini kamaytirishingiz mumkin¹⁴⁸.

Shunday qilib, madaniy o‘ziga xoslik insonning ma’lum bir madaniy jamoaga mansubligini, uning madaniy namunalarini qabul qilish orqali anglashini bildiradi. To‘liq madaniy o‘ziga xoslik izchil madaniy ta’sirlar asosida shakllanadi. Madaniy o‘ziga xoslikning roli shaxsiy o‘ziga xoslikni shakllantirishda asosiy hisoblanadi, ammo ba’zi olimlar uni ijtimoiy o‘ziga xoslikning ko‘plab tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblashadi. Madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillarining dunyoqarashini birlashtirishi mumkin, ammo u “o‘ziniki” va “begonalik”

¹⁴⁷ Frith, C. The role of metacognition in human social interactions // Philosophical Transactions of the Royal Society. – 2012. – No 367. – P. 2215.

¹⁴⁸ Veeman, M.V., Van Hout-Wolters, B.H. & Afflerbach, P. Metacognition and learning: Conceptual and methodological considerations // Metacognition and Learning, 2021. – No 1. – P. 9.

tushunchalari o‘rtasidagi chegaralar xiralashganda, qadriyatlarning almashinishi va madaniy o‘ziga xoslikning yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Zamonaviy madaniyatshunoslikda madaniyatning aloqa tizimi sifatidagi g‘oyalari endigina shakllana boshlamoqda. Madaniyatning ma’lum shakllari mavjud bo‘lib, ulardan biri madaniyatning kommunikativ shaklidir, u bir qancha xususiyatlarga ega: 1) madaniyat nafaqat avloddan avlodga, balki bir davrdan ikkinchi davrga ham axborot tashuvchi; 2) madaniyat uchun nafaqat voqeliklarini bilish, balki ularni turli darajada tushunish ham zarurdir: mentalitet, qadriyatlar, me’yorlar, ma’nolar va boshqalar; 3) eng muhim kategoriya – bu kommunikativ tizim sifatidagi madaniyat tili bo‘lib, u turli darajadagi madaniyat tashuvchilarning o‘zaro tushunishini ta’minlaydi: mentalitet, an’anaviy qadriyatlar, belgilar shakllanishi va ramz shakllanishi.

2. Madaniyatlar muloqotining natijasi – turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi farqlarni tushunish va qabul qilish, shuningdek, ularning ma’naviy va moddiy hayotining qadriyatlarini o‘zlashtirish. Boshqa jamiyatlarning qadriyatlarini hurmat qilish etnoslararo va millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, uyg‘unlashtirishga, butun dunyoda xavfsizlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘zaro madaniy almashinuv jarayonida butun insoniyat tamaddunining eng samarali rivojlanishi uchun yangi, madaniyatlararo qadriyatlarni shakllantirish, ayniqsa, muhimdir.

3. Madaniy o‘ziga xoslik – bu shaxsning madaniy namunalarini bilan o‘zini tanishtirish orqali muayyan madaniy jamoaga mansubligini anglash. Madaniy o‘ziga xoslik shaxs duch kelgan turli xil madaniy ta’sirlarning tatbiq etilishi natijasida shakllanadi. Agar madaniy ta’sirlar ziddiyatli bo‘lmasa, u holda shaxsning atrofda shakllangan madaniyat bilan to‘liq identifikasiyalashuvi ro‘y beradi. Ilmiy adabiyotlarda madaniy o‘ziga xoslikning roli bo‘yicha turli xil tomonlar mavjud: ba’zi tadqiqotchilar uni shaxs o‘ziga xosligining asosiy

shakllantiruvchi elementi deb hisoblashadi, boshqalari uni ijtimoiy o‘ziga xoslikning jihatlaridan biri deb bilishadi.

4. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo o‘zaro ta’sir doirasida madaniy va milliy o‘ziga xoslikni shakllantirish muammolarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, xalqlar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri etnik guruhlar o‘rtasidagi kuchli qaramaqarshilikka va mahalliy identifikatsiyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ba’zi davlatlar va madaniyatlar global madaniy o‘zgarishlarni qat’iyan qabul qilmaydi. Bularning barchasi siyosiy va iqtisodiy makonlar chegaralarining o‘zgarishiga, madaniyatlar o‘rtasidagi chegaralarning harbiy chiziqlarga aylanishiga olib keladigan, hal etilmagan tarixiy, siyosiy-iqtisodiy muammolar mavjudligi bilan yanada chuqurlashadi.

III BOB. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIYOTINING KULTUROLOGIK TAHLILI

3.1-§. Badiiy matnning kulturologik tahlil tamoyillari

Badiiy matnning kulturologik tahlili uning lingvistik mohiyatini har tomonlama tahlil qilishni, badiiy asar muallifning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishni nazarda tutadi.

Badiiy matnni tahlil qilishning birinchi tamoyili bir turdag'i tilni o‘rganishdan iborat: badiiy til va shevalar, xalq tili, argo va boshqalar. Madaniyat shunday tarzda to‘rtta — elita, qishloq, shahar va hokazo nuqtayi nazardan talqin etiladi. Boshqacha qilib aytganda, madaniyatda tilshunoslik bilan bog‘liq to‘rtta o‘xhash unsur mavjud: 1) elita (“kitobiy”) madaniyat adabiy tilga mos keladi; 2) dialekt va shevalar xalq madaniyatiga mos keladi; 3) oraliq madaniyat (“xalq uchun madaniyat”, “uchinchchi madaniyat”) xalq tillariga mos keladi (masalan, asalarichilar, muhandislar, shifokorlar, o‘qituvchilar, dasturchilar va boshqalarning tagmadaniyati), 4) argo – professional submadaniyat¹⁴⁹.

Shunday qilib, madaniyatning tuzilishi tilning tuzilishi bilan o‘xhashliklarga ega. Muayyan ijtimoiy guruh olami tasviri uning madaniyatga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, chunki atrof muhitga oid hodisalar har xil ijtimoiy guruhlar tomonidan turlicha qabul qilinib, talqin etiladi. Tadqiqotimiz doirasida badiiy asar tili ma’lum milliy madaniyat egasi bo‘lgan yozuvchi o‘z dunyoqarashini qanday aks ettirganini tushunish muhimdir. Quyida madaniyat va tilning to‘rtta unsuri orasidagi munosabatlarning namoyon bo‘lishini batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. Adabiy til va elitar madaniyat egalari jamiyat elitasi (ijodiy, ilmiy va texnik ziyorolar) vakillari bo‘lib, ular o‘z ijodida mantiqan izchil bog‘langan tuzilmalar va benuqson talaffuzga ega lug‘atdan foydalanadilar. Jamiyat elitasi nafaqat tilning barcha imkoniyatlarini erkin namoyon eta olishi, balki undan ijodiy foydalanishini ham alohida ta’kidlash lozim. Bu nutq butun o‘qimishli aholi uchun

¹⁴⁹ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 65.

xos emas, faqat uning kichik bir qismi tomonidan istifoda etiladi. Demak, adabiy tilda so‘zlashuvchilarning hammasi ham elitar madaniyat vakili bo‘lavermaydi. Chunki barcha zamonlar va xalqlar adabiy tili hech qachon shonli so‘zlashuv tilga mos kelmaydi. Shuning uchun hamisha qaysidir ma’noda “chet tili” bo‘lib qoladi¹⁵⁰. O‘qimishli jamiyatda o‘rtacha adabiy madaniyat mavjud bo‘lib, u adabiy talaffuz me’yordan erkin foydalana olishi bilan ajralib tursa-da, ba’zan usluban beparvoligi, chet tillaridan olingan so‘z va iboralarining haddan tashqari ko‘pligi va qoidalarning qisman buzilishi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida ziyorolar nutq madaniyatining pasayishida umumiyligi tendensiya kuzatilmogda. Masalan, ko‘plab olimlar va teleboshlovchilar o‘z nutqlarida o‘rinsiz taftologiyalar va boshqa nutq xatoliklariga yo‘l qo‘yadilar¹⁵¹.

Badiiy matnni diskursiv tahlil qilishda muallifning individual uslubini e’tiborga olish samarali omillardan hisoblanadi (shu nuqtayi nazaridan, N.D.Arutyunovaning F.M.Dostoyevskiy idiostili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlari e’tiborga molik). Elita madaniyatida idiostil egalari taniqli yozuvchilar, shoirlar, fan va madaniyat arboblari bo‘lsa, xalq madaniyatida ular hikoyachilar, baxshilar va boshqalardir. Muayyan madaniyatda idiostil egasining o‘rnini aniqlash muhimdir¹⁵².

2. Dialekt va shevalar – xalq madaniyati namoyandalari adabiy tilda va dialektida so‘zlashuvchilar tildan o‘zgacha foydalanadilar. Xususan, ziyorining nutqi dehqon nutqidan qanday farq qilsa, sharqona madaniyat g‘arbona madaniyatdan shunday farqlanadi. Tilshunoslar xalq shevalari va adabiy nutqni doimo o‘rganib keladilar, chunki ular til faoliyatining sir-asrorlarini chuqr ochib beruvchi asosiy tadqiqot obyektini tashkil qiladi. XX asrda hududiy lahjalar tilni buzadi degan fikr keng tarqalgan edi. Shuning uchun dialektlarga qarshi kurash olib borildi. Biroq zamonaviy tilshunoslikda olimlar orasida dialektlarni tarixiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan, tilning rivojlanish

¹⁵⁰ Шерба Л.В. К вопросу о двуязычи // Л.В. Шерба Языковая система и речевая деятельность. – Я., 1974. – С. 313.

¹⁵¹ Килькеев В.Н. Клиффорд Гирц: концепция культуры и семиотический подход к ее изучению // Вестник Челябинского государственного университета. – 2009. – №11. – С. 33.

